



УДК: 80(045)(575.1)

Ирина АЙРАПЕТЯН,

Старший преподаватель Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: ayrapetyanirina867@gmail.com

На основе рецензии профессора Узбекского государственного университета мировых языков Ж. Якубова

ELSA TRIOLET “HAYOTDA FAQAT YASHASHGA ARZIYDIGAN NARSA UCHUN O'LISH MUMKIN” ASARI G'OYASI VA BADIY KONSEPSIYASI

Аннотация

Maqolada Elza Trioletning "Hayotda faqat yashashga arziydigan narsa uchun o'lish mumkin" nomli asarining badiiy konsepsiyasi va g'oyasi o'rganiladi. Trioletning asarlari, biografik ma'lumotlari va asarlaridagi obrazlarning pozitsiyasini chuqur tahlil qilish orqali ushbu maqolada Triolet falsafasining asosi bo'lgan motivlari ham o'rganildi. Bu Trioletning urushdan oldingi Fransiyadagi yahudiy rassomi sifatidagi hayotiy tajribasi qanday bo'lganini va unga qanday ta'sir qilganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu maqolada Triolet asarlarining bizning kunlarimizdagi dolzarbligi va oqibatlari, shuningdek, odamlar duch keladigan turli xil qiyinchiliklarga qanday aloqasi borligi tahlil qilinadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu maqola Trioletning asarining insonning qiyinchiliklarga qaramay hayotda qadr topish qobiliyatini eslatib turishini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Elza Triolet, yashashga arzigulik hayot, badiylik tushunchasi, g'oya, filosiya, obraz

ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННАЯ КОНЦЕПЦИЯ ЭЛЬЗЫ ТРИОЛЕ «МОЖНО УМЕРЕТЬ ЛИШЬ РАДИ ТОГО, РАДИ ЧЕГО СТОИТ ЖИТЬ»

Аннотация

В статье исследуется художественная концепция и идея высказывания Эльзы Триоле: «Умереть можно только ради того, ради чего стоит жить». Путем тщательного анализа литературы, биографических данных и политической позиции Эльзы Триоле в этой статье рассмотрены мотивы и источники вдохновения, лежащие в основе философии писательницы. В статье показано, как жизненный опыт повлиял на её творчество. Кроме того, в этой статье проанализирована актуальность её произведений в наши дни, особенно с трудностями, с которыми сталкиваются люди. В заключение, эта статья показывает, что это её заявление служит напоминанием о способности человека находить ценность в жизни даже перед лицом невзгод.

Ключевые слова: Эльза Триоле, достойная жизнь, художественная концепция, идея, философия, образ.

THE IDEA AND ARTISTIC CONCEPT OF ELSA TRIOLET “ONE CAN DIE ONLY FOR THE SAKE OF WHAT IT WORTH LIVING FOR”

Annotation

This paper explores the artistic concept and idea of Elsa Triolet's statement: "One can die only for the sake of what it worth living for". Through a close analysis of Triolet's literature, biographical information, and political stances, this paper will examine the motivations and inspirations driving Triolet's philosophy. It will explore how Triolet's work influenced and was influenced by her own life experiences as a Jewish artist in pre-war France. Additionally, this paper will analyze the relevance and implications of Triolet's statement in the present day and how it speaks to the various struggles experienced by individuals. In conclusion, this paper will demonstrate how Triolet's statement serves as a reminder of the power of the individual to find value in life, even in the face of adversity.

Key words: Elsa Triolet, worth living, artistic concept, idea, philosophy, image

Введение. В наше время складывается и эволюционирует новая структура интересов и приоритетов. В жизнь властно вторглись, мощно проявили себя гуманитарные интересы, общие для всего человечества. Объективно такие интересы существовали всегда. Но только в последние десятилетия, когда техническая цивилизация породила и глобальные проблемы, и общие угрозы, наиболее опасными из которых является угроза экологического самоистребления, только теперь общечеловеческие интересы начинают осознаваться нами. Известная французская писательница XX века Эльза Триоле (1886-1970) своими романами, в которых общечеловеческие интересы уже в самом начале ее творчества стали решающим критерием, опередила свое время и заглянула в завтра человечества.

Основная часть. Вернёмся к самим героиням Эльзы Триоле. Обратимся к любому персонажу, например, к Ан-Мари, лучшей подруге Женни Боргез. Ан-Мари Беланже была весьма далека от политики, и она, казалось, стояла в стороне от той деятельности, которую

вела Женни. Впрочем, она не могла не заметить, что у Женни были важные общественные обязательства перед людьми, которые вскоре исподволь становились и её собственными – ведь некоторые из лучших друзей Женни принадлежат к Сопротивлению. И когда мадам Дуаен встречает Ан-Мари в ноябре 1941 года около здания Министерства морского флота, то они ясновидчески понимают друг друга с полуслова. "Мы поздоровались, а потом остановились и стали друг на друга смотреть. Это была белокурая женщина в глупой шляпе и в каракулевом манто. Внезапно мы обе разрыдались. Была какая-то минута ясновидения, минута ужасной ярости... Она взяла меня под руку, и мы прошлись немного вместе по Королевской улице, потом мы зашли в какое-то кафе. Мы были так мало знакомы, мадам Дуаен и я! Так мало? В наше время это не имеет значения. Отношения между людьми странным образом упростились, как будто бы это отношения между членами одной семьи перед лицом чужака... Существуют семейные тайны, и когда лица

воспитываются вместе, то они понимают друг друга с полуслова"[1].

Можно сказать, что все романы Триоле, посвящённые Сопrotивлению, были своеобразными хрониками Сопrotивления. Они являлись в то же время повествовательным размышлением о природе истинно патриотического и неподдельного интернационального братского чувства. Для Эльзы Триоле и для её героев Сопrotивления важно было братство, которое прошло жизненное испытание перед лицом общей опасности. Нужно помогать друг другу, нужно создавать "рабочую цепочку", как при тушении пожара. Можно умереть лишь ради того, ради чего стоит жить. И тогда во всей этой массе людей, которые, если не прямо, участвуют в Сопrotивлении, то по крайней мере потенциально готовы принять участие в нём, когда им такой случай представляется. Не существует в этой массе ни различий воспитания, ни среды, ни политических или религиозных убеждений, ибо то, что заставляет их жить вместе, это общая опасность.

Ан-Мари морально и духовно находится на стороне Сопrotивления, хотя вступила в это движение формально. "О, это братство героических лет Сопrotивления! Оно существовало, и оно было сильным"[2]. Все другие романы, написанные Эльзой Триоле о Сопrotивлении, лишь подтверждают и иллюстрируют это утверждение писательницы.

Художник Алексис Славский совершает отчаянное усилие, чтобы сохранить то единственное, что для него важно: свою живопись.

Сначала он был на войне в качестве солдата, испытав горечь разгрома 1940 года. Оказавшись на какой-то вилле в Дордоне Алексис внезапно выходит из состояния оцепенения. Здесь ничто, абсолютно ничто не напоминает событие, которое Славский только что пережил. "Эта совершенно белая вилла, вся в широких витражах, вся гладкая и блестящая была подобна тем, которые можно увидеть на фотографиях на глянцевого бумажке в роскошных журналах; Алексису казалось, что он находится в какой-то другой стране, может быть в Китае, и там тоже говорят по-французски"[3]. Славский не выносит наблюдаемых им людей, не испытывающих никакой солидарности не только с ним, но и с остальной частью нации (не удивительно, что в среде этих людей, начиная с августа 1940 года, зарождается дух сотрудничества с оккупантами). Хотя Алексис не интересуется политикой, он никогда не будет на стороне этих людей. Он всегда со своим народом. Во многих отношениях художник Славский является типичным французом времён оккупации. Из-за своего отдалённого еврейского происхождения Славский решает, что для него будет правильным не возвращаться в Париж. Он отправляется в Лион вместе со своей подругой Генриеттой из Тулузы. Но и в Лионе течёт та же кровь – кровь Сопrotивления. Алексис Славский, однако, далёк от того, чтобы сблизиться с Сопrotивлением и, всё, что он замечает, это смертельная для парижского художника скука Лиона. "Подумать только, жить около Палубной площади! Господи, неужели возможно жить около Палубной площади, этого тернистого и шероховатого сердца, этой громадной морской звезды с её двурогими асимметричными разветвлениями в виде улиц... И сама площадь в виде палубы парохода, на которой находится толпа пассажиров, которые праздно ожидают, чтобы неподвижный пароход куда-нибудь, наконец, прибыл... Между двумя улицами находится небольшое и высокое здание в форме топора, острая часть которого повернута к площади, на которой находится гостиница с несколькими входами; однако, ни один из этих входов не повернут на площадь, все они выходят на маленькие улочки, в

которых прячется нищета..."[4]. И так, само Сопrotивление долгое время не попадает в поле зрения Славского. Эльза Триоле показывает частное бытие живущего в трудных условиях художника, в жизни которого случаются внезапные просветы. Но всё изменяется в этой частной жизни вследствие общей беды – немецко-фашистской оккупации. Сопrotивление Алексиса кажется пассивным: ему нужны деньги, но он отказывается продавать свои картины этим "странным людям". А затем события переносят нас в пансионат в нижних Альпах, в котором происходит встреча героя с Катрин Каре. Катрин – важная лионская дама, а в городе социальные барьеры непреодолимы.

В рассмотренных произведениях мы видели, что Сопrotивление было основано на взаимном доверии. Конечно, иногда там встречались предатели, которых судили быстро и безжалостно. Все остальные перед лицом смерти были честны, и можно было надеяться, что после того, как опасность исчезнет, столь же глубокие чувства будут существовать. Однако это означало бы, с точки зрения Эльзы Триоле, плохо знать человеческую природу, которой свойственно быстро забывать прошлое, и которая живёт лишь настоящим. Ан-Мари, а в след за ней автор, удивляются и возмущаются: так мало времени прошло после освобождения, а в Париже уже считается хорошим тоном улыбаться бывшим коллаборационистам и отодвигать в тень участников Сопrotивления. Эльза Триоле не перестаёт задавать себе вопросы о природе человека. Она открывает для себя новые стороны человеческой природы. Прочитав без особых комментариев два отрывка из "Вооружённых призраков":

"- А вы, мадамзель, как вы пришли в Сопrotивление? – спрашивает Шанфор у Марии (генерал де Шанфор, он же Селестен – умён, храбр, способен на сильную любовь. И вообще неплохой человек. Но он не может не принадлежать к своей касте).

- Через Жако. Я хочу сказать, что через полковника Вуарона.

- А он как там оказался?

- У него всё было просто, он член ФТП.

У Селестена был мечтательный вид; он не мог вообразить себе Ан-Мари, связанной с ФТП, а Вуарон был полковником ФТП.

- Но вы были прямо связаны с ФТП?

- Нет. Сначала я не была связана с военными. Это случилось потом, когда меня послали, как ассистентку-общественницу на грузовике Красного Креста, и я на нём перевезла оружие. Тогда я столкнулась с маки. Я жила в городе и всё время разъезжала. Впрочем, это было не маки ФТП, вместе с ними были АС, без этого они не получили бы оружие, а Рауль Леже был связан с АС.

- Я всегда знал, что нельзя управлять страной без коммунистов, говорит Селестен... Но дойти до того, чтобы дать им власть... Я их хорошо знаю, мы много работали вместе. Я не могу сказать, что ненавижу всех коммунистов, но я ненавижу коммунизм..."[5].

Мы знаем каким образом Жако – полковник Вуарон был убит, пытаюсь разобраться по просьбе Ан-Мари в истории, связанной с хранением оружия на случай возможной гражданской войны бывшими маки, настроенными против коммунистов. Со сходным эпизодом мы сталкиваемся в конце романа "Конь рыжий" – Эльза Триоле глубоко переживала разрыв единства Сопrotивления, когда взлелеянное чувство братства столь быстро обернулось чувством смертельной ненависти. И так, на следующий день после убийства Жако Селестен приходит к Ан-Мари, появившейся перед ним в чёрном:

"- Вы носите траур? – спросил Селестен, когда она вернулась в салон.

- Почему?, потому, что я в чёрном? Да, в трауре. А что, вам не нравится, что я в трауре?

- Что с тобой? Почему ты со мной так разговариваешь?.. Селестен развёл руками, как крыльями.

- Потому что я знаю, почему вы у меня спрашиваете, ношу ли я траур. Вы знаете, что Жако был убит.

- Да, я это знаю... Ну и что?

- Это всё, что вы можете сказать! Вас только одно интересует – спала ли с Жако или нет! Вы не просто падший архангел, вы всего лишь его статуя, его изображение, в вас нет ничего живого!..

- Как вы меня ненавидите!.. – Селестен сложил свои крылья и сел около камина: - Ан-Мари, я пришёл просить вас делать всё, что вы пожелаете. Сделать из меня вашего мужа, вашего любовника, вашего слугу... Я вижу, что вы хотите лишь одного: больше никогда меня не видеть...

Ан-Мари ничего не сказала. Селестен, Лоран, Ив, Лебо, Фелико... Это какая-то цепь, какая-то сеть. Труп Жако... Это была правда, то, что он сказал: всё, что она хотела, это больше никогда его не видеть. Никогда больше не видеть эту банду. У баррикад только две стороны и, может быть, однажды снова будут баррикады. Впрочем, будут баррикады или нет, нужна была новая победа и Ан-Мари снова хотела жить так долго, чтобы увидеть эту победу. Подобно тому, как во время оккупации она боялась лишь одного – умереть до того, как немцев погонят. Другая победа может быть опять будет не окончательной, и Ан-Мари хотела бы снова умереть до того, как победа будет одержана, и снова, и снова. Потому что ничто и никогда не завоевывается ни окончательно, ни навсегда..."[6].

Это фактически конец книги. Любовь не выдержала столь радикального расхождения моральных позиций. Пусть Селестен готов на всё, может быть даже на то, чтобы отказаться от своих политических убеждений ради Ан-Мари. Но она не хочет этого, потому что она находится на другой стороне баррикады. Не будем торопиться считать её фанатичкой; она обычный человек, она не была любовницей Жако, и тот, кого она могла бы любить, тот, кого она любила, это, конечно, Селестен. Но выше любви существуют элементарный долг по отношению к товарищам по борьбе. Ан-Мари – героиня корнелевского типа. Соппротивление навсегда превратило её в бойца.

Он обломок в море людей, в котором разрозненно плавают множество обломков. Иногда они сталкиваются между собой, как, например, бродяга Жоё и бывший нацист, в доме которого он поселяется. Устанавливаются доверительные отношения: "Вы доверитесь мне, Жоё, и позволите придти сюда завтра? Я печальный и одинокий человек, я тоже потерял всех тех, кого я любил, и я тоже потерпевший крушение, как и вы. Есть в мире много людей, потерпевших крушение и не знающих куда им идти, но люди обладают необычайной жизненной силой: жизнь гонит их в двери, они возвращаются в окно. Но благодаря настойчивости, они иногда добиваются своей цели. Они не хотят плыть по течению, но я поплыл по течению, а вы нет. Можно подумать, что вы здесь остаётесь потому, что поплыли по течению, но это несправедливо; для вас было бы гораздо проще рискнуть и отправиться туда, куда глаза глядят, чем жить так, как вы живёте. Я не говорю вам, что вы правы... Послевоенные лагеря... они в этом виноваты, это они так запачкали мир, что после них нужно без конца его расчищать... Когда сходишь с парохода, на котором были случаи холеры, то всех пассажиров сажают в карантин,

все они на подозрении, а вы путешествовали с холерными, Жоё, вы их жертва..."[7].

Вот он – человек без лица. Это человек из мира концентрационных лагерей, который всё потерял и который ничего не может больше найти. И потому естественен его конец: в результате обычного дорожного происшествия в Париже он погибает, и не будь господина Видаля, ночного аптекаря, никто бы этого даже не заметил. Очевидно, что Эльза Триоле в "Инспекторе развалин" не ушла от постоянной лейтмотивной темы своих романов: искать глубинную связь, объединяющую людей, будь-то сильные герои или жалкие обломки, продукты концлагерей – всеми движет один инстинкт – уйти от одиночества и страха, найти близкого себе по духу, морали, принципам или несчастью друга.

Каким образом Эльза узнаёт, что у неё больше нет лица? Это одно из наиболее потрясающих мест в книге: "До меня дотронулись. Кто-то до меня дотронулся. Ещё раз я почувствовала как волосы шевелятся на моей голове. Открыть глаза... Полная слабость меня охватила, но я открыла глаза, и я оставила их открытыми несмотря ни на что. Несмотря на лицо, которое находилось надо мной и находилось так близко, что почти касалось моего лица. Это было какое-то лицо без носа, с живым взглядом, который шёл из глубины двух дыр, оставшихся в красной блестящей коже... Широкие голубоватые утолщения вокруг другой дыры представляли рот. Лысый. Кожа, натянутая так, что казалось вот-вот лопнет на черепе..."

- Живая? Действительно живая? Слёзы текли из глубины дыр, в которых находились глаза и голос выходил из дыры для рта. Это был нормальный и ясный человеческий голос, голос американца.

- Не надо бояться, - говорил столь нормальный голос, - потому что мы теперь все такие"[8].

Последние строчки книги "Я прошу оценить эту песню" Фернандо провозносит, когда поёт её маленькому итальянцу: слова принадлежат русскому, музыка венгру, а по-французски её поёт испанец для маленького итальянца[9]. За роман "Свидание чужестранцев" Эльзе Триоле в 1957 году была присуждена "Премия Братства", утверждённая международной организацией движения борьбы в защиту мира.

Особенностью поэтики романа-исследования Триоле, таким образом, является слияние авторского зрения и слова со зрением с внутренним словом героев. Характерно, что в романе-исследовании писательницы происходит размывание границ между повествователем от первого и третьего лица; повествование от первого лица обретает модус синхронного репортажа "из души" героя.

Наконец, Триоле никогда не стремится поставить точки на "i". Она, напротив, часто прибегает к стилистической конструкции "non finito" то есть к принципиально недоконченному отражению стихийного бытия. Писательница как бы привлекает читателя додумать рассказанное ею, ставя его в положение исследователя рассказанного. Так "материализуя" творческий метод, стиль Триоле демонстрирует свой порядок художественной реорганизации реальности в своём романе-исследовании.

Заключение. Книга Эльзы Триоле «Можно умереть только ради того, ради чего стоит жить» — это мощное исследование смерти и ее воздействия на тех, кто остался после нее. Идея и художественная концепция произведения заключается в том, что смерть — это, в конечном счете, единственное, что может привести в жизнь смысл и цель. В нем исследуются мотивы тех, кто решил бросить вызов смерти, столкнувшись с ней лицом к лицу, а также тех, кто решил принять смерть, чтобы найти смысл жизни.

ЛИТЕРАТУРА

1. Триоле Э. Анна-Мария. –М.:Гослитиздат, 1963. с.19.
2. Триоле Э. Анна-Мария. – М.:Гослитиздат, 1963. с.118.
3. Ibid, -P.89-90.
4. Triolet E. La vie privée ou Alexis Slavsk //Le premier accroc coûte deux cents francs. – P.:Denoel, 1945.-P.100-101.
5. Triolet E. Les fantômes armés.- P.: Bibliothèque française, 1947. – P. 207-208.
6. Triolet E. Les fantômes armés.- P.: Bibliothèque française, 1947. – P. 330-331.
7. Триоле Э. Неизвестный и другие рассказы. – М.:Иностранная литература 1959. С. 275.
8. Triolet E. Le cheval roux ou les intentions humaines. – P.: Editeurs Français Réunis, 1953. – P.13-14.
9. Триоле Э. Незваные гости. – М.: Иностранная литература, 1958. С. 377.



Perxan ALLAMBERGENOVA,
O'zJOKU doktoranti
E-mail:musa20060411@gmail.com

F.f.d. professor v.b. Z.Orazimbetova taqrizi asosida

SATIRE AND HUMOR: SPECIFICITY, PROBLEM AND SOLUTION

Annotation

This article describes the genres of satire and humor and their characteristics. The process of formation of satirical and humorous programs on the television of Karakalpakstan was also studied in comparison with the television of Uzbekistan. Satirical programs on television of Karakalpakstan were analyzed, which is the object of our study. In accordance with the conclusions drawn from the analysis, proposals and recommendations were made.

Key words: Satire, humor, feuilleton, pamphlet, laughter, vice.

САТИРА И ЮМОР: СПЕЦИФИКА, ПРОБЛЕМА И РЕШЕНИЕ

Аннотация

В данной статье описаны жанры сатиры и юмора и их характеристики. Также был изучен процесс формирования сатирических и юмористических передач на телевидении Каракалпакстана в сравнении с телевидением Узбекистана. Были проанализированы сатирические передачи на телевидении Каракалпакстана, что и является объектом нашего исследования. В соответствии с выводами, сделанными в результате анализа, были сделаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Сатира, юмор, фельетон, памфлет, смех, порок.

SATIRA VA YUMOR: O'ZIGA XOSLIK, MUAMMO VA YECHIM

Аннотация

Mazkur maqolada satira va yumor janrlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, satira va yumor ko'rsatuvlarining shakllanish jarayonlari Qoraqalpog'iston televideniesida namoyon bo'lishi O'zbekiston televideniesi bilan qiyosiy o'rganildi. Aynan tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan Qoraqalpog'iston televideniesida satirik janrlarga mansub ko'rsatuvlar tahlil etildi. Tahlillar natijasida kelingan xulosaga ko'ra taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Satira, yumor, feleton, pamflet, kulgu, illat.

Kirish. Satirik janrlar eng tomoshabinbop janr. Nega-ki, unda hayotdagi ba'zi nuqsonlar qoralanadi. Teleekranda satira va yumorga o'rin berishdan maqsad jamiyatdagi ba'zi bir muammo va kamchiliklarni kulgu orqali tanqid qilishdir. Shu bilan birga xalqning aynan ko'ngilochar ko'rsatuvlarga bo'lgan talabini qondirish edi.

Satirik asarlarda o'tkir tasviriy vositalar, maqollar, matallar, satiraning kuchli qurollari – piching, istehzo, kinoya, mubolag'aga murojaat qilinadi. Albatta, badiiy so'z, badiiy til vositalari orqali jamiyatimizga yot bo'lgan nojo'ya xatti-harakatlarni ko'rsatish bilan jamoatchilik nafratini qo'zg'ata oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Satira, aslini olganda, xususiyati, mohiyati, oldiga quyan vazifasi nuqtai nazaridan tanqidning eng yuksak, eng salobatli va dahshatli, keskinlashgan, o'tkirlashgan adabiy shaklidir” [1],-deb izohlaydi o'zbek olimlarining biri. “Televizionnaya jurnalistika” kitobining mualliflari esa, “Televideniyeining hujjatlilik tabiati satirik ko'rsatuvlar samaradorligini ko'p marta oshiradi, bu esa, o'z navbatida, jurnalstdan jiddiy mas'uliyat talab qiladi” [2],-deydi. Satira har bir auditoriyani o'ziga tortadi va doimo tomoshabinlar diqqat markazida bo'ladi.

Satirik janrlarning biri “feleton aslida fransuzcha “Lafeuille” so'zidan olingan bo'lib, varaqa, hisobot, gazeta degan ma'noni bildiradi. Feleton Fransiyaning poytaxti Parijda 1800-yildan chiqa boshlagan “Zornaldes Debats” degan gazetaning birinchi sonida paydo bo'lgan. Burjua matbuotida feleton o'z tarixini ana shu yildan boshlaydi” [3] va shu shaklda feleton matbuot janriga aylandi. Feleton janrining o'ziga xos xususiyatlari feleton to'liq jurnalistika janri ekanligini namoyon qildi. “Jamiyatdagi ayrim voqea

hodalarni ayovsiz tanqid qilish, uni omma muhokamasiga olib chiqish va shu yo'l bilan ijtimoiy illatga barham berishga intilish feletonning asosiy vazifasidir. Jurnalistikada feletonning quyidagi turlari qayd etiladi: gazeta feletoni (maqola tarzida), radiofeleton (eshittirish shaklida), telefeleton (tasviriy feleton). Feletonning bu turlari bir oz harakatlar bilan bir-biriga aylantirilishi mumkin: gazeta feletoni tasvir vositasida (albatta, faktik hodisani) telefeletonga, u o'z navbatida radiofeletonga” [4]. Demak feletonni tasvir va matndan foydalanish holatiga ko'ra o'zgartirish mumkin ekan.

Feleton, pamflet, masal kabi satirik janrlarda xalq tili bazasida, uning ta'sirchan imkoniyati asosida badiiy tasvirlash formalari, obraz, xarakter, nutq qurilish prinsiplari, personajlarni tipiklashtirish va individuallashtirish hamda dialog usullari, boy badiiy frazeologiya, tasviriy vositalarning butun arsenali yaratilgan”[5]ligini ta'kidlash lozim.

Satirik janrlarinining yana biri pamflet (rus. pamflet,- ingl. -{pamphlet} — qo'ldagi bir varaq) — biror siyosiy tuzim, ijtimoiy voqeelik, u yoki bu to'da hamda guruhlar faoliyatini, xatti-harakatlarini fosh qiluvchi hajviy-tanqidiy publitsistik asar.

Pamflet boshqa hajviy janrlardan badiiy to'qimaning ozligi, aniq faktlarga, tarixiy hujjatlarga asoslanishi bilan farq qiladi. Pamfletda jamiyatdagi, turli shaxslar xarakteridagi nuqsonlar achchiq kinoya, o'tkir sarkazm vositalari bilan fosh etiladi.

Pamfletning ilk namunalari antik davrda yaratilgan. Pamfletlar ko'pincha kichik hajmdagi asarlar (maqola, ocherk va boshqa tarzda) bo'lgan. Keyinchalik katta hajmdagi badiiy asarlar ham pamflet usulda yaratildi[6].

Televideniyeidagi satira va yumor teleteatr unsurlarining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston, umuman, Markaziy Osiyo mamlakatlari televideniyesi uchun xos bo'lgan yana bir janr – teleminiaturalar. Bu faqat teleekranda yashaydigan janrdir.

Miniaturada talqin qilinayotgan kichkina bir voqeaning tag zamiridagi qandaydir bir qarama-qarshilik, to'qnashuv ochib beriladi. Hayotdagi ba'zi unsurlar ustidan kulish, kulgu ostida jiddiy ma'no, ibratomuz mantiq, millatimizga xos samimiy tuyg'u, odamiylik, insonga muhabbat hissi ufurib turishi kerak [7].

Yengil tanqid, hazil ruhi bilan yumor satiradan farq qiladi. Satirik asarda ijtimoiy hayot hodisalarini zaharxanda kulgu orqali fosh etilsa, xarakterdagi nuqsanlar hazilmutoyriba, kinoya bilan tanqid qilinadi. Satirada yumor usturi bo'lganidek, yumorda ham satira unsuri mavjud [8].

Satira hazildan sezilarli darajada farq qiladi, uning xarakterli xususiyati ham kulgidir. Biroq, hazil ko'pincha mehribon, yumshoq bo'lib, kulgili asar qahramonlari, qoida tariqasida, tomoshabinlarda hamdardlik uyg'otadi. Satirada illatlarni fosh qilish kulgusi ustunlik qiladi.

Aniqrog'i, nishonga olingan ob'ektga salbiy munosabatning kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Manbalarga qaraganda, O'zbekiston televideniyesida karikaturadan foydalangan. Karikatura (ital. caricare – bo'rttirmoq so'zidan) — aniq ijtimoiy tanqidiy yo'nalishga ega bo'lgan tasviriy san'at turi, grafika sohasi (rangtasvir va haykaltaroshlikda juda kam qo'llaniladi), hajv va kulgili qilib ishlangan rasm[9]. Televideniyaning dastlabki faoliyat yillarida matbuot materiallariga tayangani bizga ma'lum. Demak, karikaturalar asosan, ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlarda, "Salomatlik", telejurnallarida, 1962-yil iyun oyida "Satira olovi bilan" teleko'rsatuvi 40 dan ortiq siyosiy karikatura va plakatlari[9] namoyish etilgan.

Tahlil va natijalar. Kuzatishlarimizga ko'ra, aynan tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan Qoraqalpog'iston televideniyesida satirik janrlarning feleton va pamflet turlarini uchratmadik.

To'g'ri, eng faol va auditoriyaga ta'sir etish mexanizmi kuchli bo'lgan televideniya tanqid berilmaydimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Qoraqalpog'iston televideniyesida tanqidiy chiqish mavjud. Ammo asosan, "Xabar" informatsion dasturlarda tanqidiy reportaj, tematik masalan, "Ekologiya olamida" ("Экология әлемінде"), "Ochiq mikrofon" ("Ашық микрофон") singari ko'rsatuvlarda tanqidiy reportaj va lavhalar uzatiladi. Janrlarni publitsistika nuqtai nazaridan talqin qilgan professor Muxtor Xudoyqulov: "Hajviy publitsistikaning feleton va pamfletdan tashqari "kichik janrlari" ham mavjud, bular – hajviy xabar, hajviy lavha, hajviy reportaj, hajviy hisobot, hajviy subhat, hajviy maqola va boshqalardan iboratdir [10], deydi. Balki biz tilga olgan tanqidiy lavha va reportajlar shular jumlasidandir.

M.Xudoyqulovning ta'kidlashicha, "kichik janrlar" hajviy publitsistikani yanada to'ldiradi, uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birgalikda, hajviy publitsistikada xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan latifa, maqol va matallar, topishmoqlar, cho'pchaklar, loflar, askiya kabilardan ham keng foydalanishi mumkin. Radiodagi hajviy eshittirish va maxsus hajviy radio jurnallar, televideniyaedagi turli hajviy ko'rsatuvlar shular jumlasidandir [10].

Teleminiaturalarni millionlab odamlar katta qiziqish bilan kutadi va tomosha qiladi. Mazkur janr – tom ma'noda teleekran hosilasi. Unda televideniya xos bo'lgan dolzarblik, chaqqonlik, paradokslar, hazillardan iborat kuchli satira va yumor bor. Bunday miniaturalarni an'anaviy teatr sahnasiga olib chiqish qiyin, chunki u erda aktyorlar va syujetlar almashishi televideniyaedagidek tez bo'lmaydi. Natijada, voqealar dinamikasi va shu bilan bir qatorda badiiy ta'sirchanligi yo'qoladi. Demak, aytish mumkinki, teleminiaturalarning o'z qonuniyati bor, agar ular buzilsa, janrga zarar etadi.

O'zbekiston televideniyesida kulguga asoslangan janrlarning kirib kelishi o'tgan asrning 60-yillar boshiga to'g'ri keladi.

"Televizion miniatyuralar teatri" "Yoshlik" studiyasining Anvar Karimov muharrirligidagi, Meli Mahkamov rejissyorligidagi "Istiqbol egalari" telejurnalining oxirgi sahifasida Ergash Karimov, Hasan Yo'ldoshev va Sadir Ziyovuddinov, Roza Karimovaning bir-ikkita hajviy novellalarni ijro etishlari natijasida bunyod bo'lgan mustaqil televizion janr sifatida hayotga kirib keldi. O'sha paytlarda asosan, yumoristik sahnalar "Adabiy-dramatik ko'rsatuvlar" tahririyatining Hamza nomidagi o'zbek milliy teatrlarining Nabi Rahimov, Amin Turdiev, G'ani A'zamov kabi ustoz san'atkorlarning "Afting qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama" nomi ostida efigra uzatiladigan yumorga boy ko'rsatuvi bor edi. Ammo "Yoshlik" tahririyatining "Istiqbol egalari" turkumidagi ko'rsatuvidagi satira va yumor sahifasi ham teletomoshabinlarning talab va istaklariga binoan "Televizion miniatyuralar teatri"ga aylantirildi" [11].

Xuddi o'sha yillari Qoraqalpog'iston televideniyesida 1968 -yildan boshlab "Teleminiaturalar teatri" muntazam efigra uzatilgan. Bu ko'rsatuv tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otib, doimo xatlar kelib turgan. Albatta, u paytlari oldindan yozib olish yoki yozib olib keyinchalik efigra qayta uzatish imkoni bo'lmagan. Ammo ijodkorlar repititsiyalar qilib, asosan o'tkir va qiziqarli ijrolar jonli efigra uzatilgan.

Teleminiaturalarning mavzulari hayotdan olingan bo'lib, ko'pincha dangasa mexanizator, beg'am brigadir, ayrim bamaylixtir molboqar ferma boshliqlari, qurilish mollarini talon-taroj qiladigan prorab va boshqa jamiyatimizdagi ayrim illatlar kulgu ostiga olingan. Hatto, 1972-yilning bahor oylaridagi dasturning birida ko'chabezorilar obrazi ko'rsatilgan. Bir guruh ko'chabezorilari efigra tugib kelayotgan bir avtobus ijodiy va texnik xodimlarining yo'lini to'sgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Teleminiaturalar teatri" aniq manzilli ob'ektlar ham kulguga olingan: "Karakalpakvodstoy" tresti rahbarlarining beparvoligi oqibatida yo'qolib ketgan buldozer, Berdaq nomidagi sovxozda ferma boshlig'ining go'sht qilib sotishga berib yuborgan sigirlari, "Kenes" sovxozining dalasida talon-taroj bo'lgan DT-54 rusumli traktori haqidagi miniatyuralarga ko'plab xatlar kelgan [12].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur dasturlar nafaqat tanqidiy, balki o'sha tanqidiy kulgusi orqali o'z madaniy-ma'rifiy vazifasini, dam olish (gedonistik-rekreativ) funksiyasini amalga oshirishni ham ta'kidlab o'tish joiz.

Aynan televideniya studiyasida yozib olingan teleminiaturada "...televizion ko'rsatuvlarning sifatli va qiziqarli bo'lishiga Stanislavskiy nomidagi (hozirgi Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat musiqali akademik drama teatri) qoraqalpoq davlat teatrlarining artistlari bilan hamkorlik yo'lga quyilgan. Shamurat Otemuratov, Jaqsimbay Bekmuratov, Reyimbay Seytov, Ziyel Piyazov, Sapargul A'ezova va boshqalar radio eshittirishlar bilan televizion ko'rsatuvlarga faol qatnashgan" [13].

Qoraqalpog'iston televideniyesida teleminiaturalar "Satira va yumor", "Teletikenek" "Teleminiaturalar" nomlarda efigra uzatildi. Mazkur dasturni tomoshabinlar qiziqib tomosha qilishgan. Natijada ijodkorlar xalqqa tezda tanildi. "Ayniqsa, Mirzabay O'temisovning O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Shamurat Otemuratov bilan birga televideniyaning "Teleminiaturalar teatri"da satirik jurnalida ijro etgan rollari ularning mashhurligini ta'minladi. Bu egizak komiklarning ijro etgan rollarini, teletomoshabinlarga ham, radio muxlislariga ham qilgan xizmatlarini hamisha afsona qilib aytib yurdi" [14]. Chunki ular jamiyatimizdagi ayrim illatlarni kulgu ostiga oldi, xalqni dilidagini ko'rsata oldi.

Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasida o'tgan asrning 80-90-yillari satirik ko'rsatuvlar avjga chiqdi. Unda

Qoraqalpog'istonga mashhur satirik yozuvchi Muratboy Nizanov, Saylovboy Jumag'ulov, O'razboy Abduraxmonovlarning hissalarini katta. Yozilgan ssenariylarni maromiga etkazib o'ynagan komik aktyorlar Sh.Otemuratov, T.Qo'chqorov, M.O'temisovlar o'z ijrolari bilan tomoshabinlarni televideniye ekraniga mixlab qo'ydi.

“...Xato kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha “Satira va yumor”, “Teletikenek” kabi maxsus radio va telejurnalardan keng foydalanishgan.

2000-yillar satirik ko'rsatuvlar efirga uzatilmay qoldi. Mutaxassislar buni yaxshi ssenariyning yo'qligi bilan izohlashadi.

2010-yillarda talantli yosh komik aktyorlar satirik ko'rsatuvlarni yana ekranga qaytara boshladi. Masalan, yosh iste'dodli komik Maqset Abdujamilovning “Hazil Kech” ko'rsatuvini aytish mumkin. Agar ta'bir joiz bo'lsa, mazkur ko'rsatuvda zamonaviy, bugungi kun mavzulari aks etishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, 2016-yil namoyish etilgan “Hazil Kech” dasturlarning birida “Oq yo'l” sahifasi ham berildi (2017-yil, 17-son). Unda so'z ustasi Yumorbek (taxallusi, asli ismi Maqset Abdijamilov) bir guruh yo'lovchilari bor avtotransport vositasiga chiqib, yo'l-yo'lakay yo'lovchilar bilan savol-javob o'tkazadi. Ikkitadan ortiq savolga javob bergan yo'lovchining yo'l haqisi to'lab beriladi. Albatta, berilgan savollar ham hazil, ham jiddiy, ham mantiqiy. Masalan, “Ishxonada eng qiziqarli latifani kim aytadi?” Yo'lovchi javobi: boshliq. Bunda jamiyatimizdagi ayrim illatlarning biri laganbardorlarga shama qiladi. Yana bir misol, kichik tumanda (mikro rayon) yashaydigan aholining bolalari ukoldan qo'riqmas ekan. Nega?,-degan savol qo'yiladi. Yo'lovchi javobi: pashsha chibin sababli. Boshlovchi mana shu savol orqali kichik tumanlarda pashsha chibinning ko'pligi, sanitariya holatining yaxshi emasligiga shama qilgan.

Bu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Demak bu kabi o'ziga xos yondoshuv dasturning faqat teleekran orqali emas, balki kamera bilan bevosita xalqni ichiga kirib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar agentligi (hozirgi) va tadbirkor “Muratbek Mebel” hamkorligida tashkil etilgan “Yumor baygi” tanlovi ham iste'dodli yoshlarni kashf qildi desak to'g'riroq bo'ladi. Ishtirokchi yoshlarning aksariyati san'at sohasini tanlashiga, natijada oliy o'quv yurti talabasi bo'lishiga turki bo'ldi.

2022-yil 23-iyuldan boshlab Qoraqalpog'iston televideniyesi 24 soatlik efir hajmiga o'tgan. Hozirda efir vaqtini to'ldirish maqsadida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi mustaqil teleradiokanallarning efir mahsulotidan samarali foydalanishmoqda. Masalan, “Mahalla” telekanalining “Retro hajviya”, “Tabassum” hajviy dastur (O'zMTRK mahsuloti) haftalik ko'rsatuvlar tartibidan o'rin olgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Qoraqalpog'iston televideniyesida o'tgan asrning 90-yillari-gacha satira va yumor eng faol janrlardan bo'ldi.

2000-yillardan biron susaydi va 2015-yillardan san'at sohasiga kirib kelayotgan yoshlarning ijod namunalari efirga berila boshladi. Afsuski, bu 2017 -yil oxirigacha davom etgan. Ayni kunlarda O'zMTRK telemahsulotlaridan foydalanishmoqda. Ammo Qoraqalpog'iston jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi, Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik drama teatri, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiallari bilan hamkorlikda satira va yumor janrida turli ko'rsatuvlar tayyorlashga maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu bir jihatdan iste'dodli yoshlarning kashf qilsa, bir jihatdan o'z ona tilida ko'rsatuv tomosha qilayotgan auditoriyani qayta ekranga qaytishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Саидов О. Ўзбек совет фельетони. Т.: Фан. 1981. Б.56.
2. Кузнецов Г.В., Цвик В.Л., Юровский А.Я. Телевизионная журналистика. М.: МГУ, 1998. С.206. –288.
3. Саидов О. Ҳажв ва ҳазил фош этади. –Т.: Ўзбекистон. 1974. Б.3. –32.
4. Пардаев А., Рўзиев Ф., Маҳмадалиев Х. Журналистикада тил ва ифода. Т.: Истиқлол. 2006. Б.38. –72.
5. Саидов О. Сатира тили билан. Т. Ўзбекистон. 1978. Б-71. –84.
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-жилд. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2003. Б.661. –704.
7. Файзиёва Ф.Х. “Ўзбекистон бадиий телевидениесининг шаклланиши” (1956-2000йиллар) мавзусидаги 17.00.03 кино санъати, телевидение ихтисослиги бўйича санъатшунослик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Т.: 2009. Б. 30. –134.
8. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.:Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2005. 10 жилд. Б.317. –674.
9. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/karikatura-uz/>
10. Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. Т.:ТАФАККУР. 2011. Б.283-284. –288.
11. Асадуллаев М. Телевидениенинг назарий ва амалий асослари: ЎЗТВ 65 ёшда. Т.:MUMTOZ SO'Z. 2021. Б.266-267. –584.
12. Мадреймов Т. Телевидение жәриялылык куралы. Н.: Қарақалпақстан. 1989. Б. 31-32. -108.
13. “Совет Қарақалпақстаны” газетаси. 1967. 6 май, 90-сон.
14. Мадреймов Қ. Қалбим сүйген кәсип. Н.: Қарақалпақстан. 2009. Б.-26-27. –64.



Ra'no BEGMATOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti
E-Mail: rano@rambler.ru

O'zDJTU dotsenti, f.f.n. Xoliyarov L.T. taqrizi ostida

НАРУШЕНИЕ ПРИНЦИПА ЯЗЫКОВОГО СОТРУДНИЧЕСТВА И ЕГО ПРИЗНАКИ

Аннотация

В данной статье автор рассказывает о трактовке принципа лингвистической кооперации, причинах его нарушения, анализируются различные взгляды ученых. Кроме того, упоминаются факторы нарушения принципов лингвистической кооперации, их специфические характеристики и инициаторы конфликта. Также в ходе исследования было выявлено нарушение принципов сотрудничества, заложенных Г. П. Грайсом.

Ключевые слова: Принцип кооперации, конфликт, конфронтация, речевое поведение, конфликтная ситуация, неудачная коммуникация.

LISONIY KOOPERATSIYA TAMOYILINING BUZILISHI VA UNING KO'RSATKICHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada muallif tomonidan lisoniy kooperatsiya tamoyilining talqini, uning buzilish sabablari xususida so'z yuritilgan bo'lib, ko'p sonli olimlarning turlicha qarashlari tahlil qilingan. Qolaversa, lisoniy kooperatsiya tamoyillarining buzilish faktorlari, nizo tashabbuskorlari va o'ziga xos xususiyatlari keltirib o'tiladi. Shuningdek, konfrontatsiya jarayonida H.P.Grays tomonidan asos solingan kooperatsiya tamoyillarining buzilishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Kooperatsiya tamoyili, kommunikativ nizo, qarama-qarshilik, nutq hatti-harakatlari, ziddiyatli vaziyat. muloqot mavaffaqiyatsizligi.

VIOLATION OF THE PRINCIPLE OF LINGUISTIC COOPERATION AND ITS INDICATIONS

Annotation

The author of this article describes the interpretation of the principle of linguistic cooperation, the causes of its contravention, and analyzes various scientific viewpoints. Furthermore, the factors that violate the principles of linguistic cooperation, their specific characteristics, and the conflict initiators are mentioned. The investigation also revealed a contravention of G. P. Grice's cooperation principles.

Key words: Cooperation principle, conflict, confrontation, speech behavior, conflict situation, communication failure.

Kirish. Kooperatsiya lingvistik hodisasini tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda tadqiq etar ekanmiz, kooperatsiyaning buzilishi holatlariga duch kelamiz. Bu holatlar turli atamalar yordamida namoyon bo'ladi.

Lingvistik kooperatsiya hodisasi ustda izlanishlar olib borgan jahon, MDH davlatlari va vatanimiz olimlari qatoriga D. Lumsden, N.Maxmudov, Sh.Safarov, S.I. Moskalyova, S.B. Minina, I.V.Pevneva, N.A. Belous, A.V. Belozeroval, V.S. Tretyakova, D.S. Kalabuxova va boshqalar kiradi..

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Olima N.A. Belousning guvohlik berishicha, lingvistika ilmining izlanish sohasiga kirib borayotgan masalalardan biri nutqiy kooperatsiya va nutqiy konfliktidir. Natijada tildan amalda foydalanish jarayoniga yangi tushunchalar kirib bormoqda, jumladan, xafa bo'lish, tahdid, haqorat singari tilning inektiv vazifalashuvi bo'lsa, nuningdek, nutq agressiyasi, lisoniy ekologiya va til manipulyatsiyasi tushunchalaridir [3]. Xulosa shuki, ilmda konseptual va terminologik bo'shliqlar mavjud bo'lib emperik tekshiruvlarni taqozo qiladi.

Kooperatsiyaning buzilish xodisasi nima degan savolga javob izlanganda, kooperatsiya jarayoniga qarama-qarshi qo'yiladigan holatga nokooperativlik hodisasi keltirilishi aniqlandi. Kommunikatsiyaning ravon kechishi uchun kommunikantlar tomonidan ikki (yoki ko'p) tomonlama ta'sir mavjuddir va agar ishlab chiqilgan tamoyillarga e'tibor qaratilmasa kooperatsiya tamoyili buziladi va suhbat inqirozga uchraydi[4]. Shu bilan birga kooperatsiyaning buzilishi bu kooperatsiyaga intilmaslik bo'lib va uning natijasida nokooperativlik yuzaga keladi.

Nizo so'ziga ko'p olimlar tomonidan turli hil ta'riflar berilgan. Amerika va rus lingvokulturalarida konfrontatsiya

vaziyatida kommunikativ strategiya va taktikalarni o'rganigan olim I.V. Pevneva nizo so'zining ta'rifini keltirar ekan, ikki madaniyatda ikki hil yondashuv borligini yoritib o'tadi, ya'ni rus tilida nizo atamasi sabab-oqibat zanjirini ta'kidlab o'tuvchi statik tarkibiy qism ekanligini va unda agressiya borligini, amerika lingvistik ongida esa nizo so'zi nafaqat ziddiyatning mavjudligi, balki uni hal qilish zarurati bilan ham bog'liqdir [8]. Demak, nizo atamasi turli millatlarda turli xususiyatlarga ega bo'ladi. Fikrimiz dalili uchun olim I.O. Kosovanning "kommunikativ nizo" atamasiga bergan ta'rifini keltirishimiz mumkin: "... bunda biz ikki tomonning (konflikt ishtirokchilari) manfaatlari, maqsadlari, qarashlari to'qnashadigan vaziyatni tushunamiz, va ushbu to'qnashuvlar natijasida tomonlarning biri ongli yoki ongsiz ravishda boshqa kommunikantga (jismoniy yoki og'zaki) zarar yetkazishi, va boshqa tomon bu harakatlar uning manfaatlariga qarshi qaratilganligini anglagan holda sherigiga qarshi javob choralarini ko'rilishi deb bilamiz"[4]. Ko'rinadiki, nizo tushunchasi kooperatsiyaning buzilishi hodisasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

O'z o'rnida olim S.I. Moskalyova kooperatsiya buzilish hodisasini quyidagicha ta'riflaydi – "... bu suhbatdosh sheriklarning vaziyatni tushunish jarayoni farqlanuvchi va oqibatda noadekvat reaksiyaning namoyon bo'lishi"[7]. Demak, ushbu jarayonning natijasi sifatida muloqot muvaffaqiyatsizligining yuzaga kelishini keltirish mumkin.

Shuningdek, olim S.V. Minina anomal vaziyatlar deganda, konfliktli ya'ni nizoli noqulaylik va muvaffaqiyatsiz kommunikatsiya vaziyatlarini nazarda tutib, savol-javob dialoglarini o'rganish jarayonida, situativ va kontekstual tahlil hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanadi. Ratsional

kommunikativ o'zinini tutish qoidalari, qonuniyatlari va boshqarish dasturlari masalasini muhokama qilgan olim S.V. Minina [6] savol-javob diskursi bilan chegaralanib kommunikativ diskomfort tabiatini tushinishga va yechim izlashga harakat qiladi. Savol-javob diskursini tahlil qilar ekan ushbu olimga anomol vaziyatlarni shartli ravishda to'rtga bo'lib o'rganadi. Ayniqsa savolga savol bilan javob berish o'zaro tushunmovchilik keltirishi va kooperatsiya tamoyillarining barbod bo'lishiga olib kelishini ta'kidlaydi [6]. Bundan kelib chiqadiki, kommunikativ diskomfort ham kooperativ buzilishning bir turi sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shuningdek, tahlillar natijasida shu narsa ayon bo'ldiki zamonaviy adabiyotlarda "kooperativ konflikt" termini mavjud bo'lib, u kooperativ kontekstdagi nizoni anglatadi, ya'ni oila davrasida, yaqin do'stlar orasida ochiq va erkin tarzda kechadigan nizo turidir[4]. Ushbu holatda kelishmovchiliklar tinch va ochiq bahslarda o'z yechimini topadi deyish mumkin.

S.I. Moskalyovning fikriga ko'ra kooperatsiya aktiga raxna yetkazishning ikki turi bor – qasddan va bilmasdan turib putur yetkazish kiradi. O'zaro ravishda kooperatsiyaga putur yetishi mumkin qachonki dialog paytida adresat yoki adresant tomonidan ko'p ma'noli leksemalar, metafora ma'nosiga ega so'zlar, omnimlar, paronimlar, frazeologik birliklar va okkazonal transformatsiyaga uchraydigan leksemalar qo'llanilsa[7].

Kommunikatsiyada kooperativ ta'sirni atay zarar yetkazish disgarmoniyaga olib keladi va uning maqsadi quyidagilardan iborat bo'ladi. 1. Konfliktidan kochish, 2. To'g'ridan to'g'ri javobdan qochish, 3. Nizoli hazil reaksiyasi maqsadlarida qo'llanilishi mumkin[7]. Aytish o'rinliki, kooperatsiyaning buzilishi nafaqat verbal balki noverbal vositalar yordamida ham yuzaga chiqadi.

Asosiy masalalardan biri kooperatsiyaning buzilishlarga qanday aniqlik kiritamiz va buzilishlar qanday ko'rinishlarga ega bo'ladi. N.A. Belousning fikriga ko'ra kooperatsiyaning buzilishi yolg'iz kechmaydi balki, manfaatdorlik (zainteresovannost) va ishonch kodeksi darz ketishi bilan birga kechadi [3]. Bizningcha, ushbu holatda determinirovannost xodisasi mavjud bo'ladi.

Olima V.S. Tretyakova o'z ilmiy asarida kooperatsiya va konfrontatsiya jarayonlarini tahlil qilar ekan, konfrontatsiya strategiyasini ko'rib chiqadi va unga tegishli ma'lum konfrontatsiya taktikalarini keltirib o'tadi, bularga tahdid, qo'rqitish, ta'na qilish, ayblash, masxara qilish, piching, haqorat qilish, ig'vo qilish va boshqalar kiradi. Shu bilan birga yolg'on gapirish, kesatish, shama qilish, tilyog'lamalilik qilish, tanbeh berish, iltimos qilish, mavzuni o'zgartirish va boshqalar [9] konfrontatsiya yoki kooperatsiya strategiyasini amalga oshirish uchun qo'llaniladigan taktikalarga kiradi va ularni u yoki bu maqsadda qo'llash kommunikantlarning tanloviga bog'liq bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, kooperatsiya buzilishining bir necha omillari mavjuddir.

Kooperatsiya jarayonining buzilishi va kommunikativ muvaffaqiyatsizliklarga olib keluvchi bir necha markerlarni olim V.S. Tretyakova guruhlariga bo'lib o'z ishidagi keltirib o'tgan[9]. Kooperatsiya buzilishiga sabab bo'luvchi omillar – nutqda polisemik yoki omonimik so'zlarning qo'llanilishi, atayin ma'lumotning yashirilishi uchraydi. Shuningdek, nizoli kommunikativ aktning ishorasi sifatida nutqda haqoratli, uyatli so'kish so'zlarni ishlatish, suhbatdoshni tasvirlayotganda (masalan, tashqi ko'rinish, shaxsiy fazilatlar) salbiy baholovchi leksikadan foydalanish, agnonim so'zlarni (keng omma uchun tushunarsiz yoki mavhum qolgan birliklarni [1]) qo'llash, adresatga qaratilgan nutqda u shu yerda bo'lishiga qaramasdan uchinchi shahs birliklaridan foydalanish (unga yetkazinkki, men odamlarning noshukurligiga toqat qila olmayman, keskinlikni o'zida aks ettirgan fe'lining buyruq mayli shakllarini qo'llash (Joyingga o'tir! Darsdan so'ng oldimga kel!), do'q-po'pisa qilishni ajratish mumkin.

O'z o'rnida ingliz tilidagi matnlarda nizo tashabbuskorining kommunikativ hulq-atvorini gender aspektida o'rgangan olim A.V. Belozerova ayollar va erkaklar nutqida nizoni ifodalash yo'llari turli xilligini ko'rsatib o'tgan, ya'ni nizoning erkak tashabbuskorlarning taktikalariga do'q-po'pisa qilish, o'z fikrini boshqalarga singdirish va kamsitish taktikalari kirsra, ayol tashabbuskorlarning taktikalariga befarqlikni namoyon qilish, masxara qilish, o'pka-gina qilish va ayblashlar kiradi[2]. Demak, nizoni keltirib chiqarishda ayol va erkaklar bir-biridan farq qiladigan taktikalardan foydalanishadi.

Shuningdek, N.A. Belous ingliz va rus millatlariga xos bo'lgan konflikt diskursining illokutiv dominantni ikki xalqning xam erkak jinsli vakillarini o'xshash, va o'z navbatida ayollarning konflikt nutqlari tezaurusi o'zgacha ekanligini ta'kidlab, tip va podtiplarga ajratib o'tgan [3].

Olima D.S. Kulabuxovanning fikricha amaliyotda P. Grays maksimalaridan og'ish holatlari uchrab turadi va bir tomondan ushbu jarayon suxbatdoshning nosamimiyligni namoyish etishi bilan ifodalaniadi. Aytish joizki, olim nosamimiyligi indikatorini quyidagilar orqali belgilanishini keltirib o'tgan: (a) ko'rinib turgan faktlarga qarshi chiqish, (protivorechiye faktov); (b) yolg'on xabarga samimiy xabar singari qarash fenomeni (fenomen privikaniya k lojnoy informatsii kak k istinnoy); (c) tafsilotlarni qalastirib tashlash (nagromojdeniye podrobnostey) (masalan, men hamyonimni uyda, deraza oldidagi stol ustida qoldirdim); (d) nutq muhitini intimizatsiyasi (intimizatsiya rechevoy sredi) (masalan, - Sizga qanchalik ishonishimni bilasizku) [5].

Boshqa bir olim S.V. Mininaning fikricha kommunikantning hayajondan yoki boshqa sabablar tufayli ma'lumotni yashirishga urinish, jim qolish, lingvistik vositalarni qaytarish ham uning samimiy emasligi tasavvurini berishi mumkinligini ta'kidlaydi [6]. Shuningdek, qayta savol berish ham adresantning samimiy emasligini yuzaga chiqarishi mumkin, chunki ushbu holatda koopersiya tamoyili bo'lgan ma'lumotning sifat maksimasi buzilishi anglashiladi. Nazarimizda, bu holat qanday vaziyatda yuz berayotganligiga bog'liq bo'ladi, shunday holatlar bo'ladiki suhbatdosh to'liq ma'lumot bergan bo'lsada, uning sherigi eshitmay yoki angalamay qolgan bo'lishi mumkin va ushbu vaziyatda ma'lumot berayotgan so'hatdosh to'liq ma'lumot bermasligida aybdor deya olmaymiz.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikrimizning davomi sifatida shuni qayd etish lozimki, o'z navbatida miqdor kategoriyasining buzilishi ko'pincha uslub kategoriyasi maksimasining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni so'zlovchi xushmuomala, iltifotli, yordamga tayyor bo'lishga harakat qilishda, ushbu fazilatlar haddan ortiq namoyon qilishi o'rinsiz aniqlashtiruvchi savollar berish va shu bilan kommunikativ vaziyatni suhbatdoshga noqulay qilishida o'z aksini topadi.

Koopersiya buzilishining sabablariga nazar tashlaydigan bo'lsak, kommunikativ tamoyil va qoidalarning buzilishi kooperatsiya jarayonining ham darz ketishiga olib keladi[3]. Shu bilan avvaldan rituallashgan qoidalarga amal qilmaslik yoki amal qilishdan bo'yin tovlash/bo'ysunmaslik kooperatsiyaning buzilish sabablariga kiradi.

Olima N.A. Belousning fikricha, kooperatsiya buzilishining noverbal sabablaridan biri bu yetakchilikka, tashabbus ko'rsatishga va ishonchga bo'lgan da'volardir (pretenziyalar)[3]. Ko'rinib turganidek, shu kabi kooperatsiyaning buzilish hodisasi opponentlar (muxoliflar) orasida sodir bo'ladi.

Muloqot muvaffaqiyatsizligini adresat va adresant orasida sodir bo'ladigan ijtimoiy hodisa deya ta'kidlab o'tgan olim S.I. Moskalyova muloqot muvaffaqiyatsizligining sabablari deb kommunikantlarda hayotiy va lisoniy tajribaning yetishmovchiligi, kommunikantlarning kichik yoshdaligi (voyaga yetmagan bolalar), chet elliklar bilan bo'lgan

muloqotning o‘zgachaligi va boshqa omillarni ajratib ko‘rsatadi[7].

Shuningdek, olim S.V. Minina ham inson muloqotining qaysi bir xususiyatlari kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka olib kelishini o‘z ishida aniqlagan. Bunga: (a) fikrni noaniq ifodalash; (b) xabar strukturasi murakkabligi; (c) nutqni turli yo‘llar bilan qisqartirish; (d) ifodani noto‘g‘ri tuzish; (e) xabarni o‘zini emas, balki yaqin olib ifodalash; (f)

nutqning tushunilishi uchun muhim bo‘lgan axborotni yopiq holda uzatishlar kiradi[6].

Xulosa va takliflar. Tadqiqotimiz davomida lingvisik kooperatsiyaning buzilish holatlarini ko‘rib chiqib shunday xulosaga keldikki, ushbu jarayon “konfrontatsiya”, “nutqiy nizo”, “kommunikativ nizo akti”, “kommunikativ muvaffaqiyatsizlik”, “kommunikativ tushunmovchilik”, “anomal kommunikativ vaziyat” singari atamalar bilan ifodalanadi.

ADABIYOTLAR

1. Andaniyazova G. (2022). Agnonimlarning personaj nutqidagi uslubiy o‘rni (Sharof Boshbekov asarlari misolida). Conferencea, 178–183. URL: <https://www.conferencea.org/index.php/conferences/article/view/877> (Data obrasheniya: 20.01.2023).
2. Belozerova A.V. Yazikovaya reprezentatsiya kommunikativnogo povedeniya initsiatora konflikta v angloyazichnom xudojestvennom tekste (genderniy aspekt) : Dis. ... kand. filol. nauk: 10.02.04 : Ivanovo, 2016 210 s.
3. Belous N.A. Konfliktniy diskurs v kommunikativnom prostranstve: Semanticheskiye i pragmaticheskiye aspekti.– Krasnodar, 2009. – 54 s.
4. Kosova I. O. Pragmaticheskiye kategorii kooperatsii i konflikta v rechevoy kommunikatsii // Vestnik VolGU. Seriya 2: Yazikoznaniye. 2006. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pragmaticheskie-kategorii-kooperatsii-i-konflikta-v-rechevoy-kommunikatsii> (data obrasheniya: 21.01.2023).
5. Kulabuxova D.S., Grineva M.S. Otstupleniye ot prinsipa kooperatsii kak sposob sozdaniya podteksta v amerikanskotok-shou. / Kulabuxova D.S., Grineva M.S. // Dnevnik nauki. – 2018. - № 7 (19)
6. Minina S.V. Anomalnie kommunikativnie situatsii, obuslovlennnie narusheniye prinsipa kooperatsii (v sfere voprosno-otvetnogo diskursa). Diss. ... kand. fil. nauk. – Orel, 2006. – 28s.
7. Moskalyova S. I. Lingvisticheskiye sposobi sozdaniya komicheskogo v nekooperativnom rechevom obshenii (na materiale nemetskix yazikovix bitovix anekdotov). Diss. kand. fil. nauk. Ivanovo-2010. 21s.
8. Pevneva I.V. Kommunikativnie strategii i taktiki v konfliktnix situatsiyax obsheniya obixodno-bitovogo i professionalnogo pedagogicheskogo diskursov russkoy i amerikanskoy lingvokultur : avtoreferat dis. ... kand. filol. nauk. - Kemerovo, 2008. - 22 s.
9. Tretyakova V.S. Rechevoy konflikt i garmonizatsiya obsheniya : Dis. ... d-ra filol. nauk : 10.02.01 : Yekaterinburg, 2003 301 c. RGB OD, 71:04-10/72.



Ergash BOBORAJABOV,
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi

F.f.d Y.Xamdamiy taqrizi asosida

INTERNETDA DAVLAT VA NODAVLAT SPORT SAYTLARI FAOLIYATI (O'ZBEKISTON VA ROSSIYA MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada internet tarmog'idagi sport saytlari xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, sport saytlari faoliyatini yanada kengaytirish, saytning uzluksiz reformatini amalga oshirish yutuq va kamchiliklari haqida tahlillar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Internet, sport saytlari, sport jurnalisti, reklama, milliy sport, internet jurnalistikasi.

АКТИВНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ И ОБЩЕСТВЕННЫХ СПОРТИВНЫХ САЙТОВ В ИНТЕРНЕТЕ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ)

Аннотация

В статье рассказывается о спортивных сайтах в Интернете. Также представлен анализ достижений и недостатков дальнейшего расширения деятельности спортивных площадок, осуществления непрерывного реформирования площадки.

Ключевые слова: Интернет, спортивные сайты, спортивный журналист, реклама, национальные виды спорта, интернет-журналистика.

ACTIVITY OF GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT SPORTS WEBSITES ON THE INTERNET (EXAMPLE OF UZBEKISTAN AND RUSSIA)

Abstract

The article talks about sports sites on the Internet. Also, the analysis of the achievements and shortcomings of the further expansion of the activity of sports sites, the implementation of continuous reform of the site is presented.

Key words: Internet, sports sites, sports journalist, advertising, national sports, internet journalism.

Kirish. Internetdagi sport saytlari paydo bo'libdiki, hamon o'sishda, o'zgarishda, sohalar kesimida transformatsiya jarayonini bir soniya bo'lsin susaytirmay kelayotgan yo'nalish sifatida e'tirofga loyiq. Zamon bilan hamnafaslik sport saytlari faoliyatini yanada kengaytirish, saytning uzluksiz reformatini amalga oshirish, juda katta auditoriyani sayt atrofida to'plash, saytlarda faoliyat yuritayotgan sport jurnalistlari va muharririyatni yirik maosh bilan ta'minlash, reklama beruvchilar talab va istaklariga muvofiq bozor munosabatlariga o'tish, oddiy bir saytni zamonaviy, ixcham, tez harakatlanuvchi, ommabop, kecha-kunduz shiddat bilan ishlaydigan on-layn korporatsiyaga aylantirdi. Bu kabi korporatsiyalarning bizning yurtimizda milliy sport saytlarimiz misolida ko'rishimiz uchun eng katta mas'uliyat albatta sport jurnalistlari zimmasiga

tushadi. Buni his qilgan holda faoliyat yuritayotgan soha vakillari albatta bu kabi muvaffaqiyatga ham erishishlari aniq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sport saytlari faoliyatini o'rganar ekanmiz, ularning kunlik, haftalik va oylik abonentlari tashrifi, saytlardagi ko'ruvchanlikning qay darajada ekanligini ham tahlilga tortdik. Quyida mazkur tahlillar keltirilgan bo'lib, ular asosida yurtimizdagi sport saytlari faoliyati haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

O'zbekistondagi sportga ixtisoslashgan nodavlat veb-saytlari reytingida birinchi top-5 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir kunda tashrif buyuruvchilar va ko'rishlar soni quyidagicha[1]:

O'rin	Resurs nomi	Tashrif buyuruvchilar	Ko'rishlar
1	CA – Markaziy Osiyo futbol yangiliklari	134 577	549 331
2	Stadion.UZ – Futbol yangiliklari	66 988	245 192
3	TRIBUNA.UZ – Futbol va sport yangiliklari	46 735	77 520
4	ONLINE.UZ – Futbol yangiliklari	35 289	69 010
5	OLAMSPORT – Markaziy Osiyo sport xabarlari	20 096	43 584
UMUMIY		303 685	984 637

O'zbekistondagi sportga ixtisoslashgan nodavlat veb-saytlari reytingida birinchi top-5 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir haftada tashrif buyuruvchilar va ko'rishlar soni quyidagicha[2]:

O'rin	Resurs nomi	Tashrif buyuruvchilar	Ko'rishlar
1	CA – Markaziy Osiyo futbol yangiliklari	762 717	3 797 457
2	Stadion.UZ – Futbol yangiliklari	363 369	1 652 448
3	TRIBUNA.UZ – Futbol va sport yangiliklari	289 069	562 912
4	ONLINE.UZ – Futbol yangiliklari	190 215	392 893
5	OLAMSPORT – Markaziy Osiyo sport xabarlari	87 878	208 804
UMUMIY		1 693 248	6 614 514

O'zbekistondagi sportga ixtisoslashgan nodavlat veb-saytlari reytingida birinchi top-5 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir oyda tashrif buyuruvchilar va ko'rishlar soni quyidagicha[3]:

O'rin	Resurs nomi	Tashrif buyuruvchilar	Ko'rishlar
1	CA – Markaziy Osiyo futbol yangiliklari	1 970 368	9 357 737
2	Stadion.UZ – Futbol yangiliklari	1 268 742	5 076 185
3	TRIBUNA.UZ – Futbol va sport yangiliklari	863 408	1 693 281
4	ONLINE.UZ – Futbol yangiliklari	557 648	1 121 577
5	OLAMSPORT – Markaziy Osiyo sport xabarlari	302 683	737 001
UMUMIY		4 962 849	17 985 781

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sportga ixtisoslashgan nodavlat veb-saytlar reytingi natijalarini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, top-5 talikka turuvchi saytlarimizdan bugungi kunda bir oy davomida 4 962 849 nafar kuzatuvchi foydalangan bo'lib, ular mazkur saytlardagi sahifalarga 17 985 781 marotaba murojaat qilishgan. Yuqorida o'tkazilgan mamlakatimizdagi top-10talikka turgan veb-saytlarning tepa beshtaligini mazkur sport saytlari bilan taqqoslab, qiyosiy tahlilga tortadigan bo'lsak, yangiliklar saytining top-5talikkdagi veb-saytlariga bir oy davomida 7 224 637 nafar kuzatuvchi tashrif buyurganini, sahifalar bo'ylab ko'rishlar soni esa 36 463 442 marotabani tashkil etadi. Yana shuni ham unutmaslik kerakki, yangiliklar saytlaridagi "Sport" sahifasiga tashriflar umumiy tashrifchilarning o'rtacha 17%ni tashkil etadi, bu esa taxminan mamlakatimizda yana sport yo'nalishi

sahifalariga 1 228 188 nafar tashrifchi kirishini, ular 6 198 785 marotaba sahifalar bo'ylab ko'rishlarni amalga oshirishini bildiradi. Demak, xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda Internetdagi sport manbalariga bir oy davomida taxminan 6 191 037 nafar kuzatuvchi murojaat qiladi hamda ular 24 184 566 marotaba mazkur manbalarni sahifalar bo'ylab o'qishadi. Yana ham aniqroq xulosa chiqarish uchun aytish mumkinki, mamlakatimizda Internet manbalariga murojaat qilayotgan respondentlarning qariyb 66,2% aynan sport sohasidagi ma'lumotlarni olish uchun kirishadi.

O'zbekistondagi sportga ixtisoslashgan davlat muassasalari veb-saytlari reytingida birinchi top-5 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir oyda tashrif buyuruvchilar va ko'rishlar soni quyidagicha[4]:

O'rin	Resurs nomi	Tashrif buyuruvchilar	Ko'rishlar
1	uzathletics.uz – O'zbekiston yengil atletika federatsiyasi rasmiy sayti	5681	13440
2	fencing.uz – O'zbekiston qilichbozlik federatsiyasi rasmiy sayti	2662	3667
3	kokand1912.uz - "QO'QON 1912" professional futbol klubi rasmiy sayti	395	556
4	navoi-ibusm.uz - Navoiy viloyati jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi sportning o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabi rasmiy sayti	282	363
5	uznada.uz - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi Milliy Antidoping Agentligi rasmiy sayti	224	441
UMUMIY		9 244	18 467

Mazkur statistika O'zbekistondagi Internet veb-saytlari reytingini yurituvchi www.uz sayti ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. Mamlakatimizda sportga ixtisoslashgan davlat muassasalari veb-saytlari reytingida birinchi top-5 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir kunlik yoki bir haftalik dayjestni ham berishimiz mumkin edi, lekin raqamlardagi kamchilik ushbu statistikani berishga yo'l qo'ymadi. O'z yo'nalishida kuchli beshtalikka kiruvchi ushbu saytlarga bir oy davomida jami 9244 nafar kuzatuvchi kirgan bo'lsa, uning sahifalari bo'ylab 18 440 marotaba ko'rishlar amalga oshirilgan. Taqqoslash uchun nodavlat veb-saytlar top-5taligini yakunlab beruvchi oxirgi sayt – OLAMSPORT – Markaziy Osiyo sport xabarlari saytining kunlik tashrifchilari soni 20 096 nafarni, ko'rishlar soni esa 43 584 tani tashkil etadi. Mana bugungi davlat va nodavlat sektordagi veb-saytlarning haqiqiy holati. Vaholanki, davlat muassasalari saytlari kimningdir homiyligi yoki korxonada foydasidan emas, balki davlat budjeti mablag'lari asosida yaratiladi. Bitta o'rtacha ishlaydigan veb-saytni yaratish va ishga tushirish bugungi kundagi hisob-kitoblarga ko'ra 150-200 million so'm atrofidagi mablag'ni talab etadi. Yuqoridagi beshta davlat saytlari ham aynan ana shu kabi budjet mablag'lari hisobidan bunyod etilgan platformalar hisoblanadi. Har biriga 200 million so'm atrofida pul sarflangan bo'lsa, bu beshta veb-sayt davlat uchun kamida

1 mlrd. so'm mablag'ga tushganligini bildiradi. Bugungi kunda ushbu veb-saytlar o'ziga sarflangan xarajati emas, balki o'zi bajarishi lozim bo'lgan missiyani ham amalga oshirilmayapti. Bu birgina top-5talikka kiruvchi saytlarning holati, xolos. Ushbu reytingni yoniga ham yaqinlasholmay turgan davlat veb-saytlari soni qancha? Ularning ishga tushirishi uchun sarflangan budjet mablag'lari necha milliardni tashkil etar ekan? Ushbu saytlarni yuritish uchun ish joylarini band qilib turgan xodimlarning soni qancha ekanu, ularga to'lanayotgan oylik maoshlari necha pulni tashkil etadi? Bu kabi ko'plab ochiq qolayotgan savollar davlat budjeti mablag'larini noto'g'ri sarflanishiga olib keladi va bu o'ta jiddiy masala hisoblanadi.

Bugun dunyoda veb-saytlar asosan sohaviy yo'nalishdan kelib chiqqan holda ma'lumotlar bazasi, ulkan platforma, ya'ni ma'lum bir yo'nalishning haqiqiy ensiklopediyasi bo'lish uchun transformatsiya jarayonini boshdan o'takarmoqda. Ularning kunlik millionlab kuzatuvchilari esa kichik-kichik kanallar, bloglar, botlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali bu ummonga kirib kelmoqda. Mamlakatimizda ham ushbu holatlarning ba'zi unsurlarini kuzatish mumkin, lekin bizdagi saytlar ensiklopedik xarakterni kasb etishiga hozircha erta deb o'ylaymiz. Chunki yurtimizdagi .uz domeni ostida faoliyat yuritayotgan veb-saytlardagi haqiqiy ahvul yuqorida ko'rgani-

miz kabi anchayin achinarli holatda. Mazkur holatlarni yaxshilash va mamlakatimizdagi veb-saytlarni WORLD WIDE WEBning haqiqiy ma'nodagi "a'zosi" bo'lishiga intilishimiz, ushbu tadqiqot ishimizda berilayotgan tavsiyalar, tahlillar, statistikalarda o'z aksini topib bormoqda.

Tadqiqotimiz davomida bugungi kunda Internet jurnalistikasi anchayin rivojlangan, ayniqsa 2014 yilgi qishki olimpiada va 2018 yilgi futbol bo'yicha jahon chempionatlari mezbonligidan keyin sport jurnalistikasi va sport saytlari

keskin rivojlangan Rossiya federatsiyasining bir qator veb-saytlari va internet partallarini tahlilga tortdik.

Mazkur tadqiqotimiz davomida nafaqat mamlakatimizdagi balki, qo'shni davlatlardagi veb-saytlarning holatini ham tahlilga tortdik. Jumladan, 2022 yilning dekabr oyida Rossiya Federatsiyasidagi sportga ixtisoslashgan veb-saytlar reytingida birinchi top-5talikka kiruvchi sayt va partallarga bir oyda tashrif buyuruvchilar va ko'rishlar sonini o'rganar ekanmiz quyidagi jadvalda haqiqiy ahvolni ko'rishimiz mumkin[5]:

O'rin	Resurs nomi	Tashrif buyuruvchilar	Ko'rishlar
1	championat.com - barcha so'nggi sport yangiliklari, o'yin kalendarlari, o'yin sharhlari va turnir jadvallari, o'yinlarning onlayn translyatsiyasi	105,0 mln.	525,0 mln.
2	sports.ru – barcha sport turlari yangiliklari, yulduz sportchilar va murabbiylarning bloglari	96,7 mln.	483,5 mln.
3	sportbox.ru - bepul jonli translyatsiyalar, sport statistikasi va tahlillari	46,1 mln.	230,5 mln.
4	news.sportbox.ru - Sport haqida hamma narsa	45,3 mln.	226,5 mln.
5	sport-express.ru - Yetakchi sport internet portali	34,8 mln.	174,0 mln.
UMUMIY		327,9 mln.	1 mlrd. 639,5 mln.

Rossiya sport saytlarining ushbu ko'rsatkichlarini kuzatib turib, mamlakatimizdagi veb-saytlarning axvoli qay darajada ekanligini his qilish qiyin emas. Rossiya saytlarining ushbu ko'rsatkichlariga havas qilishdan ilgari dunyoda mavjud sportga ixtisoslashgan veb-saytlarning kunlik holati bilan qiziqdik. Ulardagi holatni to'g'risi til bilan ta'riflash yoki biror so'z aytish noo'rin. Siz saytga kirgandan so'ng undan chiqishni unutasiz, sohaga oid shu qadar ko'p va xo'p ma'lumotlar bazasi yaratilganki, uning ichida suzishdan boshqa

narsa xayolingizga kelmaydi. Saytlarda berilayotgan ma'lumotlar shu darajada tartibli, birorta ortiqcha harakatga hojat yo'q.

Dunyo reytingida 2022 yilning so'nggi oyi, dekabrda sportga ixtisoslashgan kurrai zaminimizning eng kuchli top 5 taligida turuvchi giper-veb-partallarga bir oy davomida tashrif buyuruvchilar va ko'rishlar soni qanday ko'rsatkichda ekanligini quyidagi jadval orqali bilib olamiz[6]:

O'rin	Resurs nomi	Tashrif buyuruvchilar	Ko'rishlar
1	espn.com – dunyo bo'ylab so'nggi sport yangiliklari	591,6 mln.	2958 mlrd.
2	cricbuzz.com - Kriket bo'yicha jonli, shuningdek so'nggi sport yangiliklar	437,4 mln.	2187 mlrd.
3	marca.com - Ispan tilidagi eng yaxshi sport yangiliklari daqiqa sayin yangilanadi	361,4 mln.	1807 mlrd.
4	chapmanganato.com - 24 soat bepul yangilang va birinchi bo'lib yangi boblarni nashr eting	282,0mln.	1410 mlrd.
5	as.com - Qo'shma Shtatlar onlayn sport gazetasi jonli efir, intervyu va reportajlar	217,8mln.	1089 mlrd
UMUMIY		1 mlrd. 890,2 mln.	9 mlrd. 451 mln.

Bir milliard sakkiz yuz to'qson million ikki yuz ming nafar odam bir oy davomida yuqoridagi 5 ta saytga tashrif buyurdi va sayt sahifalari bo'ylab to'qqiz milliard to'rt yuz ellik bir million marotaba ko'rishlarni amalga oshirishdi. Bugun yer aholisining umumiy soni 8 mlrd bo'lgan bo'lsa, demakki har 8 nafar odamdan bittasi aynan mana shu saytlarga tashrif buyurgan. Albatta, bu ko'rsatkichlar 2022 yil dekabr oyi davomida futbol bo'yicha 2022 yilgi jahon chempionati o'tkazilganligi hisobiga ham ortgandir, lekin aslida ham bu saytlarning ishi va ishlash mexanizmi tahsinga sazovor.

Bugun mamlakatimizning futbol bo'yicha terma jamoasi jahon chempionatiga chiqishni qanchalar xohlar ekanmiz, veb-saytlarimizning ham aynan dunyo reytingida nufuzli o'rinlarda turishini juda qattiq istaymiz. Bu borada dunyo sport saytlarining yutuqlari, kamchiliklari, imkoniyatlari bo'yicha tahlillar, kuzatishlar, o'rganishlar olib boraveramiz va natijalarimizni zarur o'rinlarda oprobatsiyadan o'tkazamiz, rejalarimiz, harakatlarimiz ish beramasa ularni o'zgartiramiz, lekin eng buyuk orzuimiz bo'lgan dunyo sport saytlari reytingining avval boshiga chiqish maqsadimizni o'zgartirmaymiz.

ADABIYOTLAR

1. https://www.uz/ru?cat_id=325 22.01.2023й.
2. https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings?cat_id=325&cat_id=325&VisitorRating 22.01.2023й.
3. https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings?cat_id=325&cat_id=325&=monthly&Vis 22.01.2023й.
4. <https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings?cat5D=monthly&VisitorRating%5Btasix%5D=0> 22.01.2023й.
5. <https://www.similarweb.com/ru/top-websites/russian-federation/sports/> 24.01.2023й.
6. <https://www.similarweb.com/ru/top-websites/sports/> 24.01.2023й.



Оксана ГИБРАЛЬТАРСКАЯ,

Национальный университет Узбекистана д.ф.н., и.о.проф. кафедры русского литературоведения

E-mail: ogibraltarskaya@mail.ru

На основе рецензии д.ф.н., проф. З.Ж.Пардаевой

ПОЭТИКА ИМЕНИ В ТВОРЧЕСТВЕ Д. АНДРЕЕВА

Аннотация

Для поэтики Д. Андреева характерен прием умножения номинативной функции слова, совмещение прямого, переносного и контекстуального значений, приобретенных в исторической перспективе и духовной парадигме различных культур. С этих позиций имя Навна имеет непосредственную связь с наименованием по отцу (Ярославна), поэтически-метафорическую с именами героинь произведений Л. Н. Толстого, А. С. Пушкина, И. С. Тургенева, Ф. М. Достоевского и контекстуальную с великой миссией русского «сверхнарода» (Яросвет). При этом использование «спондеев», для которых характерно активное использование минимальных «междуударных» интервалов, в контрасте с «гиперпеонами» позволяет расставить ключевые акценты.

Ключевые слова: Имя, значение, образ, ритм, поэтика, спондеи, гиперпеоны.

THE POETICS OF THE NAME IN THE WORK OF D. ANDREEV

Annotation

The poetics of D. Andreev is characterized by the method of multiplying the nominative function of a word, combining direct, figurative and contextual meanings acquired in the historical perspective and the spiritual paradigm of various cultures. From these positions, the name Navna has a direct connection with the name by her father (Yaroslavna), poetical and metaphorical with the names of the heroines of the works of L.N. Tolstoy, A.S. Pushkin, I.S. Turgenyev, F.M. Dostoevsky and contextual with the great mission of the Russian "super people" (Yarosvet). At the same time, the use of "spondees", which is characterized by the active use of the minimum "inter-beat" intervals, in contrast to the hyperpeons allows you to place key accents.

Key words: Name, meaning, image, rhythm, poetics, spondeia, hyperpeons.

Д. АНДРЕЕВ ИЖОДИДА НОМ ПОЕТИКАСИ

Аннотация

Д. Андреевнинг поетикаси турли маданиятларнинг тарихий истикболи ва маънавий парадигмасида олинган тўғридан-тўғри, мажозий ва контекстуал маъноларни бирлаштириб, сўзининг номинатив функциясини кўпайтириш усули билан тавсифланади. Ушбу позициялардан Навна номи Лео Tolstoy, A. S. Pushkin, И. S. Тургенев, Ф. М. Достоевский асарлари қахрамонларининг номлари билан шеърий метафора билан отанинг (Ярославна) номи билан бевосита боғлиқдир. ва русларнинг "super" – буюк миссияси билан контекстуал одамлар" (Яросвет). Шу билан бирга, "гиперпеонлар"дан фарқли ўларок, minimal "шоклараро" интерваллардан фаол фойдаланиш билан тавсифланадиган "спондеев" дан фойдаланиш асосий акцентларни жойлаштиришга имкон беради.

Калит сўзлар: Ном, маъно, тасвир, ритм, поетика, спондеи, гиперпеонлар.

Введение. В современной науке все большее внимание уделяется проблемам междисциплинарного подхода к изучаемым явлениям. В частности, особую актуальность приобретают исследования, посвященные «вечной» области филологии, которая исследует собственные имена в художественных текстах» [3], эксплицирующие творчество таких оригинальных, малоизученных писателей, как Д. Андреев, и иллюстрирующие продуктивность взаимодействия лингвистического и литературоведческого анализа. Но несмотря на то, что «на протяжении последних пятнадцати лет не ослабевает интерес специалистов разных областей знания к наследию писателя» [4]; анализируется теоретическое и практическое наследие Д. Андреева «в качестве прогнозной версии дальнейшего развития общества и государства в условиях глобализирующегося мира» [8]; изучается трактат «Роза Мира» «через призму современной мифокритики» [11]; на наш взгляд, на данном этапе развития филологической науки необходимы работы обобщающего характера на уровне таких пластов художественного произведения, как система персонажей, пространственно-временная организация, жанрово-стилистические особенности.

Обзор литературы. Вопросы об эстетической природе и художественной специфике творчества Д. Андреева решаются неоднозначно. Исследователи в

основном акцентируют внимание на философском аспекте, изучению которого посвящено несколько диссертационных работ, авторефераты которых опубликованы в сети Интернет. М. Эпштейн трактует «Розу Мира» с позиций эсхатологических философских учений. Д. Ахтырский пытается выявить и описать философский контекст творчества Д. Андреева. И. Чиндин анализирует особенности романтизма в творчестве Д. Андреева с философской точки зрения. В целом, следует констатировать, что существующие на данном этапе диссертации рассматривают Д. Андреева не как художника, вобравшего культурные, эстетические тенденции эпохи, а как философа, создавшего специфическое учение.

В литературоведческих теоретических построениях точкой опоры для российских ученых стал сборник «Д. Андреев в культуре XX века». Так, С. Джимбинов отмечает связь Д. Андреева с классической русской литературой, в частности, с А. Пушкиным: «Даниила Андреева сближает с Пушкиным универсальная писательская одаренность: он тоже выразил себя не только как поэт-лирик, поэт-эпик, но и как драматург («Железная мистерия») и прозаик-романист («Странички ночи»)» [5]. В. Махнач выявляет мотивы прароссианства Д. Андреева: «Обращение Даниила Андреева к теме прароссианства не случайно – она чрезвычайно важна для

России. Я вижу это в исключительной востребованности и даже до какой-то степени в возврате сегодня к художественному наследию начала века, в стремлении реализовать этот не до конца реализованный потенциал. Д. Андреев указал тенденцию, которая может стать значительной и даже определяющей в самую ближайшую эпоху» [9]. К. Антропова считает, что Д. Андреев обладал особым даром «осмыслять и объяснять окружающий мир» [2]. Л. Королева рассматривает мифотворчество Д. Андреева: «Он берет на себя функцию демиурга и творит свой собственный миф, тем самым открывая другой мир, реальный, но неочевидный (невидимый до поры до времени) и вокруг, и внутри нас» [7]. Таким образом, факты, на которые указывают исследователи, свидетельствуют о необходимости решения следующих задач: характеристика мифотворческой направленности произведений Д. Андреева, определение функций имен собственных в этом процессе, выявление связей с традиционными наименованиями, функционирующими в русской культуре и выступающими знаками, символами определенных эпох.

Методология исследования. Имя персонажа в «Железной мистерии» Д. Андреева отражает специфику его общей эстетической концепции, выраженной в поэтическом ансамбле «Русские боги», философском трактате «Роза Мира», литературоведческом труде «Некоторые заметки по стиховедению», и эксплицирует переосмысление русской культурной традиции. В данной работе выявлены связи имен Навна, Ярослав с именем собственным Ярославна, представленном в других художественных произведениях. Сущность Навны раскрывается через женские образы русской литературы: Наташа Ростова, Татьяна Ларина, Елена Стахова, Соня Мармеладова. Этот прием переноса, как воплощение авторских идей, был рассмотрен контекстуально-герменевтически, при структурном анализе выявлены особенности поэтической речи, где особое значение приобретает ритм, эмоциональная и смысловая насыщенность.

Анализ и результаты. Результаты проведенного исследования позволяют вычленив в творческой системе Д. Андреева несколько основных компонентов: мифотворчество – создание художественного мифа как подлинной реальности; идея художественного синтеза, выразившаяся в сочетании жанров поэмы, мистерии и философского трактата; мистериальное миромоделирование, основанное на эстетической концепции Поэта-вестника и новаторство в области языка, в частности, создание имен, которые, с одной стороны, являются абсолютно новыми: Навна, Друккарг, Гагунгр, с другой – имеют непосредственную связь с предшествующей ономастикой и культурной традицией. Все это указывает на то, что в поэтике Д. Андреева актуально вычленив особенностей его наименований.

В данной работе в соответствии с концепцией исследования выявлены связи имен персонажей «Железной мистерии» Навна, Ярослав с именами собственными, представленными в других художественных произведениях.

Сущность специфического женского персонажа – Навны – раскрывается через женские образы русской литературы, то есть перед нами определение дефиниции посредством переноса: «Время неслось, и я резвой Натасей»; «задумчивой Таней»; «Гордой Еленой»; «Кроткою Соней» [1]. Благодаря этому приему возникает перед взором несколько отдельных картинок с четким сюжетом, законченность каждой из которых обозначена и графически (выделение в одну самостоятельную строку во 2, 3, 4 строках и в две самостоятельные строки в 1 и 5 строках), и ритмически. При этом весь отрывок

проникнут внутренним единством, выявление которого проходит по нескольким различным уровням, самый сложный из которых временной.

За каждой «сюжетной картинкой» высвечивается определенное художественное произведение: «Война и мир», «Евгений Онегин», «Накануне», «Преступление и наказание». Исследование показывает, что это не просто использование «культурного кода», а чисто андреевское концептуализированное построение. Выбор именно этих литературных героинь можно вполне объяснить их значимостью, смысловой нагрузкой – они являлись олицетворением России, проекцией на ее судьбу в различные периоды времени. Но как трактовать именно такую последовательность их представления, которая идет вразрез с хронологией создания: ведь произведение о Наташе Ростовой полностью было закончено лишь в 1869 году, тогда как все остальные намного раньше (например, «Накануне» опубликовано уже в 1860 году). Сам автор заостряет наше внимание на особом значении хронологического аспекта: «Время неслось», так начинается этот фрагмент, и закономерно возникает вопрос: «Какое же время взято за основу Д. Андреевым?». Очевидно, что не реальное время, связанное с созданием и появлением литературных произведений, поскольку тогда Наташа Ростова должна оказаться последней в ряду героинь: «Евгений Онегин» Пушкина написан в 1823-1830 (31) годах; «Накануне» Тургенева закончено в 1859 году, опубликовано в 1860-м; «Преступление и наказание» Достоевского создается в 1868 году и, наконец, роман «Война и мир» начат в 1856 году и полностью закончен лишь в 1869-м.

При решении этого вопроса необходимо учитывать тот факт, что Д. Андреев перерабатывает весь материал с точки зрения метакультуры и метаистории: время с 1812 по 1917 год – это, по его мнению, «столетие художественных гениев», «потока изумительных женских образов» и вестнических посланий. Все происходящее на земле, в частности, в культуре, является для него отражением изменений в иных мирах, подготавливающих еще задолго до рождения художников их «вести». С этих позиций становится понятно, почему Наташа Ростова и «Война и мир» – произведение о войне 1812 года, начинающееся с 1805 года лишь благодаря своеобразной «риторической фигуре»: «не начинать с апофеоза» победившей стороны, представлены первыми. Роман «Война и мир» – единственный из всех рассматриваемых произведений имеет намеренно четкое обозначение времени действия: с 1805 по 1814 год в эпилоге.

Таким образом, если за основу взять время художественной реальности, которая для Д. Андреева имела главенствующее значение, то последовательность героинь представляется логически выстроенной и вполне оправданной.

В целом, отрывок – это своеобразная книга истории по страницам художественных произведений, являющихся вестническими посланиями. Это концентрат, в котором через сложные смысловые грани отдельного слова высвечивается вся глубина удивительного, фантастического, философского миропонимания художника, виртуозно использующего возможности семантики каждого слова и наделяющего язык произведения грандиозной смысловой нагрузкой.

Идея Вечной Женственности, основная в проанализированном отрывке, получила разработку на всем протяжении «Железной мистерии»: «голос Навны», монолог «Основательницы женских обществ нового типа», которая впоследствии станет «Священнослужительницей и Главой голубой иерархии Розы Мира». Намеченная в художественном произведении разработка центрального женского образа философской

концепции Д. Андреева понятийно оформится в философском трактате «Роза Мира».

В данном контексте ключевым является упоминание о Ярославне, которая также представляет один из ликов Навны. При этом, Д. Андреев в «Железной мистерии» использует поэтику загадки, перифразы, в основе которой лежит принцип метонимии. Разгадать перифраз можно по частям: «башня Путивля» отсылает нас к произведению «Слово о полку Игореве», «плакала о жене и герое» – к конкретному эпизоду – плачу Ярославны, и таким образом мы понимаем, что на вопрос: «Кто ж ты?» следует ответ: Ярославна. Этот женский образ не раз использовался художниками, но абсолютно по-разному. Например, М. Цветаева, наоборот, фиксирует внимание на номинации, вынося ее в заглавие: «Плач Ярославны». Здесь тоже присутствуют значащие факты «с башенной выщечки», «воплъ стародавний», но акцент смещается на качественные характеристики – важен ответ на вопрос: плач не кого, но какой: «неизбывный», «плавный» [10]. В критическом труде «Ярославны плачут» С. Есенин использует наименование Ярославна как знак культуры: «Я подслушал, как плачут Ярославны» [6]. При этом образ Ярославны наполняется не только традиционным содержанием, в котором превалирующее значение приобретает «плач», «слезы», но и индивидуально-авторским, поскольку каждый поэт расставляет разные акценты. Д. Андреев подчеркивает загадочность героини, создает ситуацию, когда необходимо расшифровать культурный код: «Все та, что в Путивле старинном» [1]. М. Цветаева использует образ Ярославны, как знак богатого культурного наследия, подчеркивая временной признак: «стародавний», «неперерывный» [10]. С. Есенин

применяет, как нарицательное наименование, в отношении определенных женщин-поэтесс: «со своими слезами» [6]. Во всех трех случаях образ Ярославны выступает, как знак национальной самобытной культуры, на что указывает этимология слова, поскольку так же, как и в имени Ярослав выделается корень яр, исторические факты, вследствие которых ключевое значение приобретает суффикс, обозначающий 'относящаяся к роду Ярослава', и литературно-культурный контекст, эксплицированный древнерусским памятником, многочисленными произведениями литературы, живописи, балетного искусства.

Заключение. Таким образом, Д. Андреев видит в Навне, Соборной Душе российской метакультуры, лишь отблеск высшей Премудрости, лишь знак избранности поэтов-вестников – отражение взора Приснодевы. Зыбкость, призрачность – вот основные штрихи этого образа, и неудивительно, что многие поэты обманываются демоницами, прикрывающимися ее именем. Но есть особые признаки Вечной Женственности: чудный голос из темницы и удивительное сияние, на земле видимое в голубом, синем, лазоревом цвете. Закономерно возникает вопрос, почему этот персонаж назван Навна. На наш взгляд, при поиске ответа следует учитывать, что особенности поэтического языка Д. Андреева непосредственно связаны с философской позицией, системой ценностей, эмоциональными свойствами и личностью поэта. Кроме того, сам автор акцентирует внимание на особенностях поэтической речи, где особое значение приобретает ритм, эмоциональная и смысловая насыщенность.

ЛИТЕРАТУРА

1. Андреев Д. Л. Железная мистерия. М.: Молодая гвардия, 1990. С. 143-144.
2. Антропова К. Даниил Андреев – «гений эзотеризма» // Андреев Д. в культуре XX века. М.: Мир Урании, 2000. С. 184.
3. Васильева Н.В. Рецензия. Калинин В.М. «Поэтика онима» // Вопросы ономастики. 2004. № 1. С. 167.
4. Дашевская О.А. Жизнестроительная концепция Андреева Д. в контексте культурфилософских идей и творчества русских писателей первой половины XX века. Томск: Издательство Томского университета, 2006. С. 4.
5. Джимбинов С.Б. Пушкин в жизни и творчестве Даниила Андреева // Андреев Д. в культуре XX века. М.: Мир Урании, 2000. С. 203.
6. Есенин С.А. Ярославны плачут // Есенин С.А. Собрание сочинений в 2 т. М.: Сов. Россия: Современник, 1991. С. 270.
7. Королева Л. Поэтическое мифотворчество // Андреев Д. в культуре XX века. М.: Мир Урании, 2000. С. 94.
8. Кручинин В.Н., Кручинин С.В. Концепция «великодержавной государственности» и «сверхгосударств» в трудах Андреева Д. // Journal of Scientific Research Publications. 2018. № 4. С. 35.
9. Махнач В. Мотивы прароссiанства в русской культуре // Андреев Д. в культуре XX века. М.: Мир Урании, 2000. С. 174.
10. Цветаева М.И. Плач Ярославны // Цветаева М.И. Стихотворения и поэмы. Л.: Сов. писатель, 1990. С. 186-187.
11. Чиндин И.В. «Роза Мира» Даниила Андреева в контексте современных учений об архаической ментальности // Философская антропология. 2019. Т. 5. № 2. С. 102.



Sobira JO'RAYEVA,

O'zMU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

E-mail: juraevasobiral@gmail.com

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.O'tanova taqrizi asosida

BIOGRAPHIC INTERPRETATION IN SHUKURI'S WORKS

Annotation

Abdushukur Shukuriy is a major representative of Uzbek classical literature of the late 18th and early 19th centuries, poet about whom there is information in the tazgirs of Vozeh, Hashmat, Sadrid Zia, Sadrididdin Ayni. The article discusses the creative activity of the poet, the analysis of his works.

Key words: Rubaiyat, hamd, nat, chahorer, masnavi, Persian, khashmat, Sadri Ziya, manuscript, masnavi.

БИОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ ШУКУРИЙ

Аннотация

Абдушукур Шукури – представитель узбекской классической литературы конца XVIII – начала XIX веков. О нем говорится в антологиях Хашмата, Садри Зии и Садриддина Айни. В статье речь пойдет о творческом наследии и анализе его произведений.

Ключевые слова: Рубаи, хамд, наът, чохорёр, маснави, персидский, Хашмат, Садри Зия, рукопись, маснави.

SHUKURIY ASARLARIDA BIOGRAFIK TALQIN

Annotatsiya

Abdushukur Shukuriy XVIII asr oxiri XIX asr boshlari o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, zullisonayn shoir bo'lib, u haqida Vozeh, Hashmat, Sadri Ziyoy, Sadrididdin Ayni ning tazkiralarda ma'lumotlar bor. Maqolada shoirning ijodiy faoliyati, janrlar tarkibi, shoir gazallarining poetikasi borasida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: Meros, ruboiy, hamd, na't, chahoryor, masnaviy, forsiy, Hashmat, Sadri Ziyoy, ta'rix, masnaviy.

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida muayyan millat ma'naviy merosiga sezilarli hissa qo'shgan ijodkorlar asarlarini birlamchi qo'lyozma manbalar asosida o'rganish, ularning millat mumtoz adabiyotidagi o'rnini belgilash, adabiy merosini avlodlarga yetkazish an'anaviylik va izdoshlik nuqtai nazaridan muhim ilmiy-nazariy va amaliy mohiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotshunosligida, ayniqsa, istiqloq sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy, tarixiy va diniy qadriyatlarimizni tiklash, xususan, ma'naviy boyliklarimiz bo'lmish adabiy merosni chuqurroq o'rganishga zamin yaratildi. "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi" [1].

Mumtoz adabiyotimiz an'analar davomchisi sifatida ijod qilgan Buxoro adabiy muhiti shoiri Abdushukur Shukuriy ham shular jumlasidandir. Abdushukur Shukuriy o'zbek va fors-tojik tillarida birday mahorat bilan qalam tebratgan zullisonayn shoirlardan sanaladi. Shoirning salmoqli adabiy merosi va san'atkorlik mahoratini o'zbek tilidagi ijodi misolida o'rganish o'zbek adabiyotshunosligidagi ushbu kemptiklikni muayyan darajada to'ldiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1967-yilda turkman tadqiqotchisi M.Annamuxamedov nomzodlik tadqiqotida Zinhoriy, Allohiiy singari shoirlar qatorida Abdushukur Shukuriy hayoti va ijodiga ham to'xtalib, shunday deydi: "Shukuriy lirik she'rlarining ma'lum qismini hasbi hol mazmunidagi misralar tashkil etadi. Shoir o'z ma'shuqasidan ayrilgani, taqdir taqozosi bilan Farg'onani tark etganligini ana shu misralarda bayon etadi. Ammo u ushbu musibatlarida o'zi voyaga yetgan jamiyatni emas, balki, o'zining taqdirini ayblaydi:

Qozondek qarorsun falakning yuzi,

To'kulsun ko'zum yoshidek yulduzi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Zullisonayn shoir Shukuriyning hayoti va ijodi o'zbek, tojik va turkman olimlari

tomonidan XX asrning qariyb ikkinchi choragidan e'tiboran izchil tadqiq etib kelinmoqda. R.Vozeh, Hashmat, S.Ayniy, A.M.Muginov, M.Annamuxamedov, Yo.Ishoqov, Q.Tohirov kabi qator olimlarning tadqiqotlarida Abdushukur Shukuriy ijodiga alohida e'tibor qaratilgan[2].

Lekin hozirga qadar Shukuriy adabiy merosini alohida yoritgan yaxlit monografik tadqiqot yaratilgan emas. Shoir devoni qo'lyozma nusxasi birinchi marta maxsus va monografik yo'sinda tekshirilishi hamda shu asosda o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Shukuriy adabiy merosining asosiy xususiyatlari ochib berilishi, undagi yetakchi tamoyillarning belgilanishi dissertatsion ishning muhim ahamiyatini ko'rsatadi. Masalan, Vozeh shunday deydi: "Shukuriyning ismi sharifi-Abdushukur, jannatsifat Samarqandning mutavvatinlaridan. Ilm ololmaganiga qaramay, yaxshi ta'bi bor. Ravonlik va sofgo'ylikda obi hayotdan ham o'tib tushgan. She'rni tez aytishi va yoqimli mazmuni barcha toifaga maqbul"[3]. Ma'lum bo'layotirki, Shukuriy o'ziga xos ifoda uslubiga ega shoirlardan bo'lgan. Hashmat esa, uning shoirlilik salohiyatiga yanada yuqori baho beradi va u qadar go'zal so'z aytguvchi yo'q edi, – deya ta'kidlaydi.

Shukuriy ijodiga qiziqish keyingi davrlarda ham davom etdi. Uning hayoti va ijodi haqida 1959-yilda turkman olimi A.M.Muginovning Shukuriyga bag'ishlangan maqolasi-da ilk bora shoir to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekistonda Shukuriy hayoti va ijodi bo'yicha ilk tadqiqotlar yaratgan olim filologiya fanlari nomzodi Q.Tohirovdir. Uning maqolasi "Shukuriyning hayoti va ijodi" deb nomlanadi. Unda muallif shoirning faqat Farg'ona va Samarqandda emas, Qorako'lda istiqomat qilganligini ham qayd etgan. 1978-yilda chop ettirgan "O'zbek va turkman adabiy aloqalari masalalariga doir" nomli risolasida esa shoirning ijodiga ham to'xtalib, bunday deydi: "XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmida avval Farg'onada, so'ng Samarqandda va umrining oxirida Buxoro va Qorako'lda yashagan shoir Shukuriy tamoman o'zbek tilida ijod qildi"[4].

Shukuriy hayoti va adabiy merosi haqidagi nisbatan keng ma'lumot esa ko'p tomlik o'zbek adabiyoti tarixining 4-jildida berilgan. Unda taniqli navoiyshunos Yo.Ishoqov Shukuriyning o'z adabiy muhitida qo'lga kiritgan mavqeini quyidagicha izohlaydi: "Mujrimning mashhur masnaviysi, asosan, shoirning o'z taqdiri bayoni va shu asosda chiqargan achchiq xulosasidan iborat. Volada esa, zamondan shikoyat birinchi o'rinda turadi. Shukuriyda ham bu masala nihoyatda keng va keskin qo'yilgan: Shukuriy faqat qator g'azal, qasida va masnaviyalarda o'z ahvoli va kayfiyatini har taraflama bayon qilish bilan cheklanmaydi. Balki, o'ziga o'xshash alamdiydalarning fojiali taqdiri, og'ir qismatini ham jasorat bilan qalamga olib, mahorat bilan tasvirlaydi"[5].

"Ey g'ami furqat ila hamdardim" so'zlari bilan boshlanadigan masnaviysida u yozgan edi:

Mulki Farg'ona maskanim erdi,

Maskani osoyishi tanim erdi.

Nasabim turkman sarafrozi,

Sarafrozlar orasida og'oz.

Bunda nasl-nasab va ajdodlardan faxrlanish hissini ham sezish qiyin emas. Q.Tohirovg'a ko'ra, shoirning otabobolari Buxoro va Qo'qon xonlari saroyida mansabdor shaxslar bo'lishgan. Uning o'z iqrori esa mana bunday:

Avji tole'da har birisi quyosh,

Hudi davlat boshida charx talosh.

Lekin Shukuriy ilm olish bilan birga hunar o'rgandi. Hunari bilan elga tanildi va bundan Shukuriyning o'zi ham faxrlanib, shunday deydi:

Garchi onlarcha yo'qtur iqbolim,

Mulku asbobu izzatu molim.

Hunarini bu darajada qadrlagan shoir, albatta, vataniga fidoyilik, xalqining baxt-saodati uchun o'z bilim va iqtidorini ishga solib xizmat qilishlik oliy burch ekanligini anglab yetadi.

Tahlil va natijalar. Shukuriy ijodida Vatan mavzusi alohida yorqin misralarda aks etgan. O'zi tug'ilib o'sgan diyori – muqaddas vatanini shoir sevdi, ardoqladi va umrining oxirigacha kuylab o'tdi. "Vatan tuyg'usi – qismat tuyg'usi. Vatan – qaysi bir ijodkor uchun quvonch va farag'. Kim uchundir hijron va qayg'u. Vatan– qaysi bir san'atkor uchun bor, mavjud xilqat. Boshqa biri uchun judolik ramzi, guyo boy berilgan umr bo'lgan"[7]. Vatani Farg'onaga qaytib borolmagan Shukuriy (Nasrulloxon saroyga chaqirib olgandan keyin, majburiy hayot unga to'sqinlik qiladi) ijodida vatan mavzusi bosh mavzuga aylanadi. Ayrim she'rlarida yor hijroni diyordan judolik hislari bilan uyg'un shakllarda ifodalanadi. Hajr-hijronidan shikoyat tasvirlari shoir lirikasining muhim xususiyatlaridan bo'lib, shoir ana shu tasvirlarni ifodalashga maxsus g'azallar ham bag'ishlagan. Hijron azoblari va visol orzusi kuylangan g'azallarida "hijron" va "visol" so'zlari keng ma'noda bo'lib, bu shoirning o'zi tug'ilib o'sgan shahridan uzoqlarda kechirgan og'ir turmush va ruhiy kechinmalariga ishoratdir. Chunki Shukuriy umrining oxirigacha o'z yurti Farg'onadan yiroqda yashab, yurtiga borishga imkoni bo'lmadi. Shu boisdan Farg'onaga bag'ishlangan turkum she'rlari mavjud. "Rozi dilim eshitgil, Ey rozdoni Farg'on", "Faryod charx elidin, qildi judoyi Farg'on", "Bir zamona iy bo'lmadim hijron balosidin xalos" deb boshlanuvchi g'azallar, "Maylim har soat meni mahjurni Farg'on chekar" misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi ana shu yo'nalishdagi she'rlaridir.

"Ey rozdoni Farg'on" radifli g'azali 19 baytdan iborat bo'lgan sog'inchi, vatanparvarlikni madh etuvchi she'rlaridan sanaladi:

Rozi dilim eshitgil, ey rozdoni Farg'on,

G'arib ishini qilg'il, ey kordoni Farg'on.

Begona mamlakatda ming yillik umrdin xo'b,

O'z manzilimda o'tgan har bir zamoni Farg'on.

Vatan sog'inchi, yurt qayg'usini qalamga olar ekan, shoir ichki his-tuyg'ularini badiiy ifodalashga harakat qiladi

va nihoyat, ona yurti Farg'onaga borish uchun imkoni yo'qligi sababli shafqatsiz hayot qiynoqlariga ko'nikadi va "Vatan" mavzusida qalb harorati singgan mazmunli she'rlar yozdi:

Farg'onag'a yetolmay uchmoq tilar Shukuriy,

Nechunki uchmoq ichra topmish nishoni Farg'on.

Ammo dastlabki paytlarda amalga oshmay qolgan safar orzusi uni qiynagan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan Vatani – Farg'onani qo'msash, unga yetishish ishtiyoqi tobora kuchayib boradi va umrining oxirigacha unga tinchlik bermaydi:

Shoirning ijtimoiy mavzudagi she'rlaridan biri "Diram" radifli g'azalidir. 5 baytdan iborat bo'lgan bu she'rda u hayotdagi adolatsizliklarni, amaldorlarning razilliklarini haqqoniy ochib beradi:

Va'da qildi ul bahori lutfi davlat yuz diram,

Yuz chaman ochdi ko'ngil bog'ida har yolg'uz diram.

Mazkur baytda qaytarish san'ati orqali fikrini ifodalaydi. Ya'ni, birinchi misrada yuz so'zi qofiya, ikkinchi misrada esa yuz so'zi sifatlash bo'lib kelmoqda. Shoir aytmoqchiki, ko'ngul bog'ida diram yuz marta chaman bo'lib ochildi, chunki davlat boshchilaridan katta va'dalar berilgan. Shukuriy oddiy xalq vakili sifatida ko'p jabrlangan. Hunaridan topgan daromadi yashash uchun yetmagan. Nasrulloxon saroyidagi majburiy hayot esa uning erksizligidan nishona edi. Shoir "diram" – pulni inson uchun hayotiy zarurat, hatto insonning ma'naviy kamoloti shakllanishida asosiy quvvat manbai ekanligini go'zal badiiy tasvirlar orqali ifodalaydi. Birinchi baytda amaldorlar va'da qilgan «yuz diram»ni, tilga olsa, ikkinchi misrada yana yuz so'zi takror ishlatilib, tajnis san'ati yuzaga keladi:

Oy yuzin ko'rmakka ul yuz va'dani men telmurub,

Intizoridin oqarmoq birla bo'ldi ko'z diram.

Shoir mazkur baytning birinchi misrasida amaldorlarning yolg'on va'dalarini fosh etadi, ularning subutsizligini qayd etadi. Ikkinchi misrada shoir qalb tug'yonini aks ettirmoqda. Pul topish mashaqqati shunchalar qiyin ediki, hatto uni qo'lga kiritmoq uchun ko'z qarosi ham oqardi, deydi. Bu umumning ham mungli nolasi edi.

Ro'zg'oring qora bo'ldi, oq yuzini ko'rmayin,

Ey Shukuriy, zikring o'ldi kechayu kunduz diram.

Shoir bu baytda oq va qora ranglar orqali tazod san'atini qo'llagan. Bu g'azalning maqtasi bo'lib, unda jamiyatdagi alamdiydalarning fojiali taqdiri nazarda tutilgan. Shoir bu baytda oq va qora ranglar orqali tazod san'atini qo'llagan. Bu g'azalning maqtasi bo'lib, unda jamiyatdagi alamdiydalarning fojiali taqdiri nazarda tutilgan. Avtobiografik she'rlar deganda, odatda, shoirning hayoti, shaxsiy kechinmalaridan tashkil topgan asarlar tushuniladi. Shoirning ijtimoiy mavzudagi xalqchil ahamiyatga ega bo'lgan g'azallaridan biri "Xudovondo o'shal bemehr uchun mehri jahon o'lsun" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalidir. Shoir bu g'azalida inson ma'naviy kamolotini belgilovchi, jamiyatning ajralmas qismi bo'lgan oila munosabatlarini falsafiy mushohada qiladi. Farzandiga bag'ishlangan bu g'azalida u shunday deydi:

Xudovondo, o'shal bemehr uchun mehri jahon o'lsun,

Tiriklik avjida ser ayla, doim komron o'lsun.

To'qqiz baytdan iborat bu g'azalda shoirning turmush haqidagi qarashlari, ota va farzand o'rtasidagi munosabatlar qalamga olingan. Birinchi baytni o'qishimiz bilan ko'z oldimizda ma'naviy kamolotga to'lgan, qalbida otalik tuyg'usi jo'sh urgan inson qiyofasi gavdalanadi. G'azalning lirik qahramoni shoirning o'zi. Allohdan najot so'rayotgan ota bemehr farzandiga olamga teng bo'lgan mehr so'rasa, ikkinchi misrada yana, farzand baxtini o'ylayotgan mehribon ota timsoli paydo bo'ladi. G'azal matla'sidan ma'lum bo'ladi, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan bu misralar shoirning hayotiy taassurotlari zaminida vujudga kelgan. Mazkur baytning o'ziyoq shoirning hayotga bo'lgan real qarashlarini aks ettirmoqda. G'azal yozilishida turtki bo'lgan narsa nima edi? Jamiyatdagi shafqatsiz tuzummi? Yoki azaliy davom etib

kelayotgan oilaviy munosabatlardagi illatmi? O'z turmushidan shikoyat motivi – bu ijodkorning o'z zamonasiga va umuman davr oqimiga bo'lgan tanqidiy munosabatining o'ziga xos mahsuli hisoblanadi. Shoir o'z ichki tuyg'ularini, orzu istaklarini mana shu g'azali orqali ochib berishga intilganligini keyingi misralar ham tasdiqlaydi:

Qulog'iga agarchi olmadi durru nasihatni,

Chu gavhar dahr eliga qadru qiymatdin garon o'lsun.

Bu baytda endi shoirming isyonkorlik ruhida fikrlari rivojlana borganligini ko'ramiz. Didaktik mazmunga ega bo'lgan bu baytda shoir tomonidan ijtimoiy-ta'limiy fikrlar ilgari suriladi. Avvalo, shoirming yoshlarga qarata aytilgan nasihatimiz ta'sirli ovozi eshutiladi. Nafaqat otaning, balki vatanning ishonchi, xalqning suyanchig'i bo'lishlik har bir farzandning burchi ekanligi uqtirilmoqda. G'azaldagi nodon

o'g'il obrazi orqali shoir farzandlaridagi salbiy xislatlarni qoralab, mehribon ota timsolida esa umuminsoniy qadriyat sanalmish mehru muhabbat, qadr-qimmat, oqibat kabi insoniy fazilatlarini ochib beradi.

Xulosa va takliflar. Shukuriy she'riyatini bir butun uyg'unlikda – zohiriy va botiniy ma'nolar asosida o'rganish shoirming ruhiy-ma'naviy, badiiy olamiga chuqurroq kirib borish va, ayni paytda, adabiyotning muhim vazifasi bo'lgan inson ruhiy olamining eng yuksak intilishlarini anglab yetish yo'lga o'tishdir. Xullas, Abdushukur Shukuriy o'zbek adabiyoti tarixidan munosib o'rin egallaganligi shubhasizdir. Uning ijodiyotini keng miqyosda o'rganish va talqin etish o'quvchilarni mumtoz adabiyotimizning hali noma'lum yangi sahifalari bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. – 4-avgust.
2. Rahmatullo Vozeh. Tuhfat ul-ahbob fit tazkiratul ashob. FASHI. – Buxoro, 1871
3. Annamuxamedov M. Из истории литературы Восточного Туркменистана XIX в. (Зинхара, Аллахи, Шукури): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ашхабад, 1967. Haqqulov I.Ch. O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti (g'oyaviylik, izdoshlik, obrazlar olami): Filol. fan. d-ri ... dis. – Toshkent, 1995. – 282 b.
4. Boltaboev H. XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi: Filol. fan. d-ri. ... dis. – Toshkent, 1996. – 386 b.
5. O'tanova S. Alisher Navoiy g'azaliyotida rang simvolikasi: Filol. fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2007. –138 b.
6. Qobulov U. Masih timsolining o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqini: Filol. fan. nomz. ... dis. – Samarqand, 2001.
7. Qobilova Z.B. Amiriy va uning adabiy faoliyati: Filol. fan. nomz. ... dis. –Toshkent, 2007.
8. Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. B. 25.



Nigora ISMATULLAYEVA,
TDYU o'qituvchisi
E-mail: nigora.ismatullayeva@mail.ru

O'zDJTU katta o'qituvchisi M.B.Shakirova taqrizi asosida

THE ROLE OF LANGUAGE IN CULTURE

Annotation

The relationship between language and culture is the focus of this article. Some assert that language is a "part" of culture, while others maintain that language is only a means of cultural communication. Still others contend that language is a characteristic rather than a component of culture. The goal of the first is to provide the individual with all the material wealth of the world's human cultures, while the goal of the second is to select what stands out to him as personally meaningful. This is because cultural aspects seem to a person as both universal and subjective values.

Key words: Ethnopsycholinguistics, equal phenomenon, spiritual integration, whole thinking, folklore language, preservation, reproduction, consumption, assimilation.

РОЛЬ ЯЗЫКА В КУЛЬТУРЕ

Аннотация

Данная статья посвящена языку и культуре и их соотношению. Некоторые утверждают, что язык относится к «частичной» культуре, другие, что язык является лишь форма культурного общения и другое, что язык является не компонентом, а особенность культуры. Поскольку элементы культуры предстают как универсальные, так и субъективные ценности перед человеком, цель первого состоит в том, чтобы индивид все доступное богатство материала человеческой культуры мира, а предмет второй - выбрать из него то, что ему кажется важным, то это личное дело значительное.

Ключевые слова: Этнопсихоллингвистика, равноправный феномен, духовная интеграция, целостное мышление, фольклорный язык, сохранение, воспроизводство, потребление, ассимиляция.

TILNING MADANIYATDA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar ushbu maqolaning asosiy mavzusidir. Ba'zilar tilni madaniyatning "bo'lagi" deb ta'kidlasha, boshqalari tilni faqat madaniy muloqot vositasi, deb hisoblaydi. Yana ba'zi olimlar esa tilni madaniyatning tarkibiy qismi emas, balki o'ziga xos xususiyat deb hisoblashadi. Madaniy jihatlari insonga ham umuminsoniy, ham subyektiv qadriyatlar sifatida ko'rinadi, shuning uchun birinchisining maqsadi insonni jahon insoniyat madaniyatlarining barcha moddiy boyliklari bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchisining maqsadi - shaxsan o'ziga xos bo'lgan narsalarni tanlashdir..

Kalit so'zlar: Etnopsixolingvistika, teng hodisa, ma'naviy integratsiya, butun tafakkur, folklor tili, saqlash, ko'paytirish, iste'mol qilish, assimilyatsiya qilish.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda "til va madaniyat" masalasi bahsli va to'liq hal etilmagan. Tadqiqotchilar uchun madaniyatning o'zi nimaligi hali ham munozarali masala. Amerikaning "madaniy antropologiya" maktabi vakillari madaniyatni inson hayotining barcha biologik bo'lmagan tomonlari yig'indisi deb hisoblashadi. Moddiy madaniyat - bu inson mehnatining moddiy, ko'rinadigan ishlari va ma'naviy madaniyat - bu moddiy va ma'naviy madaniyatning uzviy birligi bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilishdir. Madaniyatdan va odamni alohida tasavvur qilish behuda: u insonning mohiyati bilan chuqur bog'langan, insonning ta'rifining bir qismidir. Bunga qo'shimcha ravishda tadqiqotchi ko'p jihatdan aniqlay oladi.

Madaniyat maqsadlarini tushunish: "ma'lum qadriyatlar yig'indisi." U insonning mohiyati bilan chuqur bog'liq bo'lib, insonni shunday ta'riflashning bir qismidir. "Madaniyatni tushunish ham ko'p jihatdan olimlarning tadqiqot muhiti bilan belgilanishi mumkin, chunki madaniyat turli fanlar: falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, tarix va boshqalarning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Ma'lum bo'lishicha, til ichki fikrlarning tashqi ifodasi va muloqotidan ko'ra, ularning so'zlashuvidan mustaqil ravishda shakllanadi. Tilga nisbatan bunday qarashning nomutanosibligi va qabul qilinishi mumkin emasligini ko'rsatishda ona tilining jamiyat hayotining qolgan qismi va bu jamoadagi kichikroq guruhlar bilan chambarchas

bog'liqligi va jamiyatdagi har qanday tafsilotlari bilan bog'liqligiga e'tibor allaqachon qaratildi.. Bu barcha xalqlar va barcha tillar uchun amal qiladi, bu til haqidagi universal haqiqatdir.

Antropologlar til va madaniyat o'rtasidagi munosabat haqida gapiradilar. Darhaqiqat, tilni madaniyatning bir qismi deb hisoblash to'g'riroq. Madaniyat bu yerda ham, butun maqolada bo'lgani kabi, antropologik ma'noda inson hayotining barcha jabhalarini jamiyatga mansubligi bilan belgilanadigan yoki shartlangan holda ifodalash uchun ishlatiladi. Odamlarning yeyishi yoki ichishi o'z-o'zidan madaniy emas, bu hayotni saqlab qolish uchun biologik zaruratdir. Ularning ma'lum oziq-ovqatlarni iste'mol qilishlari va boshqa moddalardan voz kechishlari, garchi ular juda iste'mol qilinadigan va to'yimli bo'lsa-da, ular kunning ma'lum vaqtlarida va ma'lum joylarda yeyishlari va ichishlari madaniyat masalasidir. ingliz antropologi ser Edvard Bernett Taylor tomonidan madaniyatning klassik ta'rifiga ko'ra "u inson tomonidan jamiyat a'zosi sifatida qo'lga kiritilgan". Ushbu tushuncha va taqdimotda madaniyat inson hayoti va xatti-harakatlarining juda keng sohasini qamrab oladi va til aniq uning bir qismi, ehtimol eng muhim qismidir.

Tilni egallash va undan foydalanish qobiliyati tug'ma va irsiy bo'lib, bu tug'malik darajasi to'g'risida qonuniy bahsmunozaralar mavjud bo'lsa-da, har bir kishining tili boshqa tillar bilan bir qatorda va ayni vaqtda jamiyat a'zosi sifatida

shaxs tomonidan o'zlashtiriladi. Kishilar tarbiyalanayotgan jamiyat madaniyatining jihatlari, jamiyat va til bir-birini almashtirib bo'lmaydigan narsadir. Til faqat ijtimoiy muhitda, qanchalik tuzilgan bo'lsa, rivojlanadi va insoniyat jamiyati har qanday shaklda, hatto bugungi kunda ma'lum bo'lgan yoki tarixda qayd etilgan narsalarga uzoqdan o'xshash bo'lsa ham, faqat umumiy tildan foydalanadigan va tushunadigan odamlar orasida saqlanib qolishi mumkin edi.

"Til" va "madaniyat" ma'nolari o'rtasidagi munosabat ham munozarali: ba'zilar tilning "qisman" madaniyatga tegishli ekanligini ta'kidlaydilar, boshqalari – bu til shunchaki madaniy muloqot shaklidir, boshqa til esa bunday emas madaniyatning tarkibiy qismi yoki xususiyati. Boshqasining ko'rinishi nuqtai nazaridan bu muammoni ikkita eng kattasi-ning bayonotlari bilan ko'rsatish mumkin madaniyatshunoslik vakillari, amerika va rus tillarining etnolingvistik maktablari asoschilari E.Sapir, N.I.Tolstoy shunday deyishadi: "Madaniyatni shunday ta'riflash mumkin ma'lum bir jamiyat doim bajaradigan mashg'ulot, lekin til jamiyat qanday fikrlashini ko'rsatadi. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni butun va uning qismi o'rtasidagi munosabat sifatida ko'rish mumkin [11].

"Tilni madaniyatning tarkibiy qismi, madaniyat quroli sifatida qabul qilish mumkin. ayniqsa adabiy til yoki xalq og'zaki ijodi tiliga nisbatan. Shunga qaramasdan, til ham butun jamiyat uchun antonimdir va uni izohlash mumkin madaniyatidan qat'iy nazar teng hodisa sifatida" [4]. Zamonaviy tilshunoslik kabi sohalarining yuqori darajada rivojlanganligi bilan ajralib turadi etnopsixolingvistika sifatida tilni tasniflash imkoniyatini ko'rsatadi va ma'naviy madaniyat sohasidagi ijtimoiy hodisa va uni uning biri sifatida ko'rib chiqiladi.. Shu bilan birga, tan olish kerakki, bir qator bunday madaniy sohalar ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni va mahsuli sifatida tushuniladi. Ma'naviy qadriyatlarini, me'yorlarni ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va iste'mol qilish, ma'lumot va g'oyalar, va bu maqsadli til ekanligini tushunish muhimdir. Bizga imkon beradigan jamiyat va insonning ma'naviy olamining rivojlanishiga hissa qo'shadigan tabaqalashtirilgan bilimlar tizimini jamiyat bilan ta'minlash madaniyatning butun jamiyat sifatida ma'naviy integratsiyasini belgilaydi. Shunday qilib, til " ushbu madaniy va til hamjamiyatidagi turli guruhlarda mujassamlangan millat madaniyatining o'ziga xos kontsentratsiyasi sifatida ishlaydi." [8].

Til madaniyatning o'ziga xos poydevoridir, chunki insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan madaniy me'yorlar va ijtimoiy rollarni o'zlashtirish uning yordami bilan amalga oshiriladi. Madaniyat fanida til va madaniyatning aloqadorligi quyidagicha ta'riflanadi: "Til madaniyat ko'zgusi bo'lib, u nafaqat insonni o'rab turgan real dunyoni, balki xalqning butun tafakkurini, boshqacha aytganda, o'ziga xos idrok etish usulini ham ifodalaydi. dunyo, uning milliy xarakteri, urf-odatlarini, amaliyotlari va normalari tizimi, qadriyatlarini, axloqi va dunyoning surati [7].

Tilni dunyoqarash, madaniyat xazinasini sifatida tan olish mumkin, chunki hamma narsa odamlar tomonidan to'plangan bilim, ko'nikma, moddiy va ma'naviy qadriyatlar ularning til tizimida yozma va og'zaki tilda saqlanadi. Biror kishiga asoslangan har safar o'z rivojlanishini yangidan boshlamaydi, shunchaki o'zlashtirib boradi oldingi avlod tajribasi. Til ona tilida so'zlashuvchi sifatida tan olinadi tilning gnoseologik funksiyasini bajarishga asoslangan madaniyat avloddan-avlodga o'tib keladi. Til atrofida dunyo ob'ektlarini aniqlash, tasniflash va tartibga solish osonlashtirish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, til insonni atrof-muhitga ko'chirish uchun mo'ljallangan va ob'ektlar, hodisalar va

ularni to'g'ri baholashga hissa qo'shadi munosabatlar, til ob'ektlar va inson munosabatlarini tartibga solishi va muvofiqlashtirishi kerak. "Til insonning shaxsiyatini shakllantiradigan madaniy vositadir til bu tarbiyani an'ana va urf-odatlarini idrok etishga yo'naltiradi odamlar va dunyoning alohida madaniy qiyofasi" [7].

Til madaniy ravishda uzatiladi, ya'ni o'rganilgan. Kamroq darajada, masalan, ota-onalar farzandlarini ataylab gapirishga va suhbatga javob berishga undaganda, xatolarini tuzatganda va so'z boyligini kengaytirganda o'rgatiladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bolalar o'zlarining birinchi tillarini ko'p darajada "grammatikani qurish" orqali o'zlari duch keladigan tasodifiy so'z birlikmalariga duchor bo'lishlari natijasida o'rganadilar. Maktabda til o'rgatish deb tasniflangan narsa ikkinchi tilni o'zlashtirishni anglatadi yoki o'quvchilarning birinchi tiliga kelsak, asosan o'qish va yozish, adabiyotni o'rganish, rasmiy grammatika va qabul qilingan to'g'rilik me'yorlariga qaratilgan. Bu barcha talabalarning mintaqaviy yoki ijtimoiy dialektlariga mos kelmasligi mumkin. Maktabda til o'rgatish deb ataladigan barcha narsa ona tilini maktab yoshigacha egallagan asosiy lug'at va muhim tuzilmasidagi oldingi bilimlarni nazarda tutadi va unga tayanadi.

Agar til madaniyatning bir qismi sifatida uzatilsa, demak, umuman olganda madaniyat ko'p darajada til orqali uzatiladi, chunki u aniq o'rgatiladi. Hayvonlarning tarix ma'nosida yo'qligi insoniyatning borligi butunlay tilning natijasidir. Tadqiqotchilar aytishlaricha, hayvonlar o'z-o'zidan taqlid qilish yoki boshqa hayvonlar tomonidan o'rgatilgan taqlid orqali o'rganishadi. Bu qunduz to'g'ronni yoki chumoli uyasi kabi qo'shma jismoniy mehnatning ancha murakkab va muhim turlarini bajarishga to'sqinlik qilmaydi va asalarilar kabi ba'zi turlarning murakkab ijtimoiy tuzilishini istisno qilmaydi. Ammo bu shuni anglatadiki, tashkilot va ishdagi o'zgarishlar omon qolish qiymati bilan to'liq mustahkamlangan mutatsiyalarning bosqichma-bosqich natijasi bo'ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, qushlarning qo'shiqlari bir tur ichida joydan joyga bir oz farq qiladi, ammo hududiy tabaqalanishning boshqa dalillari kam. Hayvonlar xulq-atvorining bu birligidan farqli o'laroq, inson madaniyatlari butun dunyodagi inson tillari kabi turlicha bo'lib, ular XXI asrning sanoati rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi har doim ham, ba'zan katta tezlikda o'zgarishi mumkin va o'zgaradi.

Binobarin, Yuqorida aytilganlarga asoslanib, til o'rtasida bog'liqlik borligini ta'kidlash mumkin va haqiqiy dunyo. Til va madaniyatning ona tili bo'lgan shaxs idrok etadi va dunyoni o'zining "men" prizmasi orqali tasniflaydi. Tilda aloqa turli madaniyatlar o'rtasida leksik qarzlari ko'rinishida o'z ifodasini topadi; madaniyatlarining o'zaro ta'siri va intererizatsiyasi esa xalqaro lug'at shakllanishda namoyon bo'ladi. Madaniyat va til chambarchas bog'liq va o'zaro munosabatlarni turli nuqtai nazardan o'rganish mumkin.

Xulosa. Olimning barcha fikrlariga ko'ra, "til va madaniyat" bir-biri bilan chambarchas bog'langan, chunki madaniyatsiz til va tilsiz madaniyat dunyoda mavjud bo'lmaydi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, bu fundamental ahamiyatga ega degan xulosaga kelish mumkin: madaniy va aksiologik nuqtai nazardan ta'lim usullari sezilarli darajada o'zaro bog'liqdir. Madaniyat elementlari sifatida namoyon bo'lgani uchun umumjahon, shuningdek, sub'ektiv qadriyatlar inson oldida, birinchisining maqsadi - inson uchun mavjud bo'lgan dunyo madaniyati materialining barcha boyliklari, ikkinchisining maqsadi - unga muhim bo'lgan narsani tanlash shaxsan ahamiyatga ega. Ushbu strategiyalarni birgalikda qo'llash individual-shaxsiy ta'lim mazmuni orqali umuminsoniy madaniyatni yaratish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Tolstoy L.N. Urush va tinchlik: Op. 12-jildda / L.N. Tolstoy. - M., 1974. -311 bet.
2. Sapir E. Til, irq, madaniyat: tilshunoslik va madaniyatshunoslikka oid tanlangan asarlar. Tadqiqotlar / E.Sapir.- M., 1993.- 194 b.
3. Lixachev D.S. San'at falsafasi bo'yicha insholar / Lixachev D.S. - Sankt-Peterburg. 1996-yil 28r.
4. Tolstoy L.N. Inson: falsafiy va ensiklopedik lug'at / L.N.Tolstoy. M., 2000. - 177 b.
5. Maslov Yu.V.S. Tilshunoslikka kirish / Maslov Yu. S. - M., 1998.-7s.
6. Salett E.P. va Diane R. Koslou. (2003). Irqi, etnik kelib chiqishi va o'ziga xosligi: o'ziga xoslik ko'p madaniyatli nuqtai nazar. Vashington DC: Milliy ko'p madaniyatli institut.
7. Ting-Toomey S. (1999). Madaniyatlar o'rtasidagi aloqa. Nyu York: Guildford Press
8. Xasanova G.K. (2021). Rivojlanishning asosiy trendlari dunyoda ta'lim va ta'lim. Sharqona uyg'onish: Innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 1 (Maxsus son 1), 257-262.
9. Xasanova G.X. O'zbekistonda umumiy va kasb-hunar ta'limi tizimlari va Yaponiya: qiyosiy tahlil // O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2020. –Yo'q. 1. - S. 83-10. Xoshimova S. (2019). Chet tilini o'qitishning ba'zi xususiyatlari haqida boshlang'ich bosqichda nofilologik yo'nalish talabalari. Yevrosiyo ilmiy Ittifoq, (1-6), 334-338.
10. Xoshimova S. Ba'zi grammatik va semantika yapon tilida doublingning xususiyatlari. - Mamlakat. Tillar. Madaniyat. – S. 334-338.
11. Xoshimova S.A., Nasirova S.A. (2021). Shakllanish xususiyatlari Zamonaviy xitoy tilida afikslari bilan animatsion otlar tili. Markaziy Osiyo ijtimoiy tadqiqotlari jurnali, 2(04), 1-10
12. Nasirova S.A. (2020). Tushunchalar shinghiningini "Xitoy orzu" "Insoniyat yangin taqdir jamoasi" - A. Lingvistik soha. Markaziy Osiyo ijtimoiy tadqiqotlari jurnali, 1(01), 05-14.
13. Abdullaevna N.S. (2020). Siyosatning leksik-semantik va kognitiv xususiyatlari nutq (Si Szipin nutqlari asosida). AKADEMIYA: Xalqaro Fanlararo tadqiqotlar jurnali, 10(5), 1086-1092.
14. Nasirova S.A., Xoshimova S.A., Rixsieva G.S. (2021). Bizning Xitoy siyosiy tizimining shakllanishiga ta'siri ijtimoiy-siyosiy terminologiya. Markaziy Osiyo ijtimoiy jurnali Tadqiqot, 2(04), 10-17.



Madina KARIMOVA,
Andijon davlat chet tillar instituti dotsenti
E-mail: madinakarimova398@gmail.com

Andijon davlat chet tillar Instituti professori M.Abdvaluhiyev taqrizi asosida

DISTINCTIVE FEATURES OF THE USE OF PAREMIAS IN UZBEK-ENGLISH LITERARY TEXTS

Annotation

This article covers the use of proverbs and sayings in texts in both languages and translation issues. At the same time, we can use all examples in the English language teaching.

Key words: Paremia, phraseology, mythology, proverbs, national mentality.

ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ПАРЕМИЙ В УЗБЕКСКО-АНГЛИСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы использования и перевода пословиц и поговорок в текстах на обоих языках. При этом также были рассмотрены способы использования приведенных примеров при обучении английскому языку в области литературы.

Ключевые слова: Паремия, фразеология, мифология, пословица, поговорка, национальный менталитет.

O‘ZBEK –INGLIZ BADIY MATNLARIDA PAREMIYALARDAN FOYDALANISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maqol va matallarni ikki tilda ham matnlarda qo‘llanish va tarjima masalalari yoritilgan. Shu bilan birga keltirilgan misollar ingliz tilini o‘qitishda adabiyot fanida qo‘llash usullari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Paremiya, frazeologiya, mifologiya, maqol, matal, milliy mentalitet.

Kirish. Paremiologiya bo‘yicha ko‘zga ko‘ringan o‘zbek olimasi B. Jo‘rayeva matallar faqat o‘z ma‘nosida qo‘llanishini ta‘kidlab quyidagi fikrlarini bildiradi: “Matallar esa grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, faqat o‘z ma‘nosida – to‘g‘ri ma‘noda qo‘llaniluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlari hisoblanadi. Maqollarning matallardan asosiy farqi maqollarning idiomalashgan ko‘chma ma‘noga ega ekanligi va matallarning bu xususiyatga ega bo‘lmay, faqatgina to‘g‘ri ma‘noda qo‘llanishida ko‘rinadi” [1].

Badiiy matnlarda paremiyalardan unumli foydalaniladi, ayniqsa, ixcham nasriy asarlarda fikrni lo‘nda va ta‘sirchan ifodalash uchun frazeologizmlardan, aforizmlardan, ayniqsa, xalq maqollaridan samarali foydalaniladi. Masalan, Abdulla Qahhor o‘zining aksariyat hikoyalari paremiyalarni asos qilib oladi. Jumladan, u “O‘g‘ri” hikoyasini yozishda bir paytlar yon daftariga yozib qo‘ygan “yo‘qolmasdan ilgari bormidi” paremiyasidan foydalanadi. Muallif hatto asarning epigrafini ham paremiya bilan boshlaydi: “O‘tning o‘limi – itning bayrami”. Bu o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan, uning milliy mentalitetini ko‘rsatib turuvchi, madaniyatini ifoda etuvchi paremiyadir. Hikoyaning boshlanishida ham ketma-ket paremiyalar zanjiridan foydalanilgan.

“Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib ho‘kizidan xabar oldi. O!.. Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi. (A. Qahhor).

“Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo‘ldi. Quruq qoshiq og‘iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo‘ladi? Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho‘kizni bo‘ynidan bog‘lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas. Qobil bobo ro‘para bo‘lganda amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi”. Mazkur parchada bir nechta maqol va ibora qo‘llangan. Muallif o‘z fikrining

ta‘sirchanligini oshirish uchun xalq maqollari va frazeologik birliklardan unumli foydalangani ko‘rinib turibdi. “Quruq qoshiq og‘iz yirtadi”, “Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz” kabi maqollaro‘z davrida Qobil bobo fojeasi orqali davr muammolarini, korrupsion holatlarni ayovsiz tanqid qilgan.

Maqollar grammatik jihatdan gap shaklida bo‘lsa-da frazeologizmlar kabi tushuncha emas, fikr ifodalaydi. Bu muallif uchun nihoyatda qulaydir. Ibora ta‘sirchanlikni oshirish uchun qo‘llaniladigan, so‘z birikmasi ba‘zan gap shaklidagi lisoniy birliklar hisoblanadi[2].

Erkin A‘zamning “Navoiyni o‘qigan bolalar” hikoyasi matnida ham paremiyaning ayrim turlaridan foydalanilgan:

“Malikaning “ketaman” deganiga parvo qilmabmiz – na men, na Janob. Ko‘chaga chiqqanimizda dunyoni qor bosgan edi. To‘zon, tuman. Bir qadam narini ko‘z ilg‘amaydi. Shu qiyomatda Yalang‘ochga yetib borish kerak. Iloj yo‘q, oyisi dori ichib o‘tiribdi. Yana birpasgina kutsa-ku olam guliston edi – hademay tong otadi. Ana o‘shanda dori ichadimi, sirkami – ko‘ngli tortgani. Injiq, besabr xotin ekan. Onasini ko‘rginu qizini ol. Yo‘q, Malika... yaxshi baribir!

Janob Malikaning to‘rvasini (Yangi yil bazmiga somsa pishirib kelgan edi) ko‘tarib olgan. Xushomad. Sadoqatli it. Xira pashsha. Ham g‘ashim keladi, ham kulgim qistaydi: zarurga-ku zarur, qudag‘ay xola, sizga nima zarur? Shunaqa bir alomat toifa bor. Doimo ergashib, suykalishib yuradi. Soya, sharpa. O‘zi mustaqil holda biron ishning uddasidan chiqolmaydi. Sevib-sevolmaydi, ketib-ketolmaydi. Mudom birovlarining ma‘shuqasiga ko‘z tikkani tikkan. Kulgili va ayanchli joyi shundaki, gohida o‘sha oshiq-ma‘shuqlar o‘rtasida vositachilik ham qiladi: gap tashish, xat-pat degandek. Oqibat – pinhona umidlar bilan yura-yura, dog‘da qolib ketadi. Bechora Janob! Qo‘lida kattakon to‘rva, mashina tutaman deb yelib-yugurishini qarang. Joni jabborniki. Mayli, yuzta joni bo‘lsa, bari-bari o‘shaning, ya‘ni – Malikaning yo‘lida nisor! Shu qiliqlarini yuziga solsangiz, “Sen uchun-da, jo‘ra!

Birga o'qiymiz-ku, jo'ra!'"– deydi yerga qarab. Mehribon jo'ra, shum raqib!

Keltirilgan matnda ayrim maqollar va frazeologik birliklar fikrning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "zarurga-ku zarur, qudag'ay xola, sizga nima zarur?" iborasi boshqa millatlarda uchramaydigan til birligi hisoblanadi. Shuningdek, dog'da qolib ketmoq va boshqa iboralar milliy mentalitetni ifoda qiladi.

Abdulla Qahhorning ayrim hikoyalari xalq maqollaridan unumli foydalaniladi. Shuningdek, muallif iboralarni ham o'rni bilan ishlata olgan:

Er-xotin uzoq jim qolishdi. Turobjon og'zini katta ochib ham esnadi, ham uf tortdi.

– Ma, buni tik, – dedi u yaktagini yechib, – ma!

Xotin yaktakni olib yoniga qo'ydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi.

– Bo'l, – dedi Turobjon, birpasdan keyin, – ol... Senga aytyapman!..

– Ha, muncha!.. Turtmasdan gapira bering... Tikib qo'yarman, muncha qistov...

Turobjonning tepa sochi tikka bo'ldi.

– Hay, sening dimog'-firog'ing kimga! Xo'sh, nima deysan?

– Men sizga bir narsa deyapmanmi? Tikib qo'yarman.

– Har narsaga ro'zg'or achchiq bo'la bersa... qiyinroq bo'lar, – dedi Turobjon yaktagini kiyayotib, – kambag'alchilik...

– Kambag'alchilik o'lsin!.

Bu o'rinda "Tepa sochi tikka bo'ldi" iborasi g'azablanishning eng yuqori cho'qqisini ifodalab turibdi. Mazkur frazeologik birlik boshqa xalqlarda aynan shunday ma'nolarni ifodalamasligi mumkin. O'zbek tilida esa, faol qo'llanuvchi muhim iboralardan biridir.

Paremiyalari maqol yoki ibora shaklida badiiy adabiyot va boshqa turdagi matnlar orasida sezilarli hamda ko'zga tashlanadigan farq bu Injildan boshlangan paremiyalarning yuqori konsentratsiyasidir. Masalan:

New wine in old bottles – "Eski idishda yangi sharob" yoki eski shaklda yangi tarkib.

The spirit had animated the prose of Chateaubriand and the poetry of Lamartine; but it was the spirit only: the form of both those writers retained most of the important characteristics of the old tradition. It was new wine in old bottles (L. Strachey).

The olive branch – zaytun novdasi, tinchlik ramzi; yarashtirishga harakat, tinchlik o'rnatish taklifi.

Lester had long suspected that Robert would like to make up. This was the olive branch (Th. Dreiser). 'Good morning, Cousin Clarissa,' I said guardedly. 'I thank you for the olive branch and accept it with pleasure' (S. Howatch).

"Open the door(s) to smth." – biron narsa uchun yo'l ochmoq; biron narsa uchun imkoniyat ochmoq. O'zbek tilida ham bunday iboralar faol qo'llaniladi: ochiq eshiklar kuni...

I have demonstrated that I can't describe Deer Isle. There is something about it that opens no door to words (J. Steinbeck) In this way the Geneva Conference opened the doors to a new perspective for peace (R.P. Dutt).

"A/the parting of the way"s – qaror (odatda. at the parting of the ways – qaror qabul qilish bo'sag'asida).

Edwin Drood stands at the parting of the ways between the early Victorian and the modern attitude to murder in literature (K.S. Pritchard) All right, sister, you are at the parting of the ways. Either identify this guy or get hooked as an accessory (E.S. Gardner).

"Possess one's soul in patience" – sabr-toqat qilmoq

Laura. What is it, mother? Amanda. Possess your soul in patience – you will see! (T. Williams).

"The powers that be" – qudratli kuchlar.

Clyde Mercer was a careerist of a very special kind, a man of altogether priceless value to the powers that be in Canada (D. Carter).

Put one's hand to the plough – ishni boshlamoq, ishga qo'l urmoq, bir narsani boshlamoq, bir ishga qo'li tegmoq.

What was he to do? One thing, and one thing only – go forward. He had put his hand to the plough, and he wasn't the one to look back. He would start a new play that very night (S. O'Casey).

Rule with a rod of iron – zolimlik bilan boshqarmoq, qattiq qo'l boshqaruv;

Hi did not know what sickness was, never had an ache or pain, ate his food with gusto, and riled his brothers with a rod of iron (The. Dreiser). Teddy. Talk about nitpicking – Doris riled her old count with a rod of iron (T. Rattigan).

Safe and sound – but va lat yemagan, tirik-sog'lom.

You must keep busy and try not to fret. If we believe Steve and Bill will come back to us safe and sound it must help (K.S. Prichard) The ship was nearly wrecked in a blow, but anchored in a bay, safe and sound (K.S. Pritchard).

The salt of the earth – yerning tuzi.

We no longer accept these country gentlemen, these opulent ladies who drive about in barouches, as the salt of the earth, and their behaviour too often strikes us as vulgar and trivial (W.S. Maugham) So has closed the life of a working-class woman and mother typical of millions, their names never heard of, save in their own homes, but they are in truth the salt of the earth (H. Pollitt).

The scales fell from one's eyes – ko'zlari ochilib ketdi.

Margaret realized that, though an odious attraction bound her to the man, she loathed and feared him. The scales fell from her eyes (W.S. Maugham).

Separate the sheep from the goats – qo'zilarni echkilardan ajratish, zararni foydadan, yomoni yaxshidan ajratish.

'I wish I had a brain like yours,' said Lord Ickenham. 'What an amazing thing. I suppose you could walk down a line of people, giving each of them a quick glance, and separate the sheep from the goats' (P.G. Wodehouse).

Jahon adabiyotida Injil tasvirlari yaxshilik va yovuzlikning qarama-qarshi ruhlari – farishtalar va jinlarning eng qadimiy mifologik tasvirlariga qaytadi. Ushbu qarama-qarshilik eng qadimgi butparast dinlarga ma'lum bo'lgan, keyin u xristian mifologiyasida qabul qilingan. Jin va farishtaning tasvirlari xalq mifologiyasi va fantastika tomonidan qayta talqin qilingan. Shu bilan birga, Iblis, adabiy va mifologik xarakter sifatida, turli xil, ba'zan qarama-qarshi xususiyatlarga ega. Ba'zi asarlarda u jim va harakatsiz, ba'zilarida turli xil qahramonlar bilan suhbatga kirishib, ularni yo'ldan ozdirishga harakat qiladi. Ba'zi mualliflarning talqinida Iblis fojeali, uning yolg'izlik va mag'rurlik ko'lamini hayratlanarli, boshqa asarlarda u masxara, kinoya va h.k bilan bog'liq.

Farishta obrazida – mifologiyada ham, adabiy an'analarda ham turli mualliflar tomonidan ushbu belgi tushunchasida ko'proq o'xshashlik mavjud. Farishtalar Rabbiyning xabarchilari sifatida paydo bo'lib, Uning irodasini yoki xushxabarini yetkazishadi. Ularning tashqi qiyofasi, hissiyotlari, tajribalari haqida jinning his-tuyg'ulari, hissiyotlari va qiyofasi haqida juda kam narsa aytiladi. Bundan tashqari, masalan, rassomchilik an'analari farishtalar ham bir xilda – qanotli odamlar yoki olti qanot bilan o'rigan yuz shaklida – serafim sifatida tasvirlangan. Iblis, ajdaho, ilon, antropomorfik shoxli jonzot va boshqalar shaklida tasvirlangan – adabiy talqinda bo'lgani kabi, xilma-xilligi ham ko'proq.

ADABIYOTLAR

1. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. – Т.: ФАН, 2006
2. Пинхасов Я.Д. Ўзбек тили фразеологияси ҳақида. – Тошкент, 1957 – 27 б.
3. Саломов Ғ. Бадий таржиманинг лексик-фразеологик масалалари: Филол. фан. ном. ... дис. -Тошкент, 1964. 124 б.
4. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. –168 б.
5. Wolfgang Mieder. A Dictionary of American Proverbs. – Oxford University Press, USA, 1992. – 710 p.
6. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. –168 б.
7. <https://ziyouz.uz/index.php>
8. <https://t.me/joinchat/AAAAAE7jT68RO01nFo6fHg>



Jasurbek MAHMUDOV,
O'zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: jasurbekm@mail.ru

ToshDTAO dotsenti Q.Pardayev taqrizi asosida

QISSACHILIK TARIXIGA DOIR MULOHAZALAR

Annotatsiya

Qissachilik qadim tarixga va tadrijiy takomilga ega bo'lgan janrdir. Insoniyat tarixida qissachilik muhim o'rin tutadi. Chunki "qissa" so'zining o'zagida "bayon qilmoq", aytib bermoq" degan mazmunlar yotar ekan, inson hamisha kimgadir nimadir aytib berishdan o'ziga madad, imkon topadi. Har bir qissada muayyan zamon va makondagi shaxs va uning taqdiri, shu bilan birga davr ijtimoiy ahvoli namoyon bo'ladi. Shu ma'noda qissa inson, zamon va makon oynasidir.

Kalit so'zlar: Qissa janri, xalq qissalari, zamon va makon, futuvvat.

REFLECTION ON THE HISTORY OF SHORT STORIES

Annatoin

Short story is a genre with a long history and gradual development. Storytelling plays an important role in human history. Because at the core of the word "story" lies the meaning of "telling", a person always finds help and opportunity to tell something to someone. Each story shows a person and his fate in a certain time and place, as well as the social situation of the time. In this sense, the story is a mirror of man, time and space.

Key words: Genre of short stories, folk tales, heroism, patriotism, chivalry and futuvvat.

РАЗМЫШЛЕНИЕ ОБ ИСТОРИИ КОРОТКИХ РАССКАЗОВ

Аннотация

Живопись – жанр с многовековой историей и постепенным развитием. Рассказывание историй играет жизненно важную роль в истории человечества. Поскольку в основе слова "история" правомерное значение "рассказывать", человек всегда находит помощь и возможность кому-то что-то рассказать. В каждом рассказе показан человек, его судьба, конкретное время и конкретное место, а также социальная ситуация того времени. В этом смысл истории - зеркало человека, времени и пространства.

Ключевые слова: Рассказы, героизм, патриотизм, отваги, рыцарство, футувват.

Kirish. Agar biz dastlabki qissalarning Ilohiy kalomdagi Payg'ambarlar haqida aytilganini va ilk javonmard ahli aynan payg'ambarlar bo'lganini hisobga olsak, qissa janrining kelib chiqish genezisi aynan futuvvat ekanini anglaymiz. Buni o'zbek adabiyotida keng tarqalgan "Yusuf va Zulayxo" qissasi bilan ham dalillashimiz mumkin. Demak, dastlabki qissalar ilk javonmardlar – payg'ambarlar hayoti haqida yaratilgan. Keyin esa tadrijan avliyolar hayoti tasvirlangan qissalar, so'ngra qissalar asosida xalq qahramonlari tasvirlangan jangnomalar paydo bo'la boshlagan. Tarixda ko'pchilik qissalar bo'lib o'tgan voqealarni ifodalagan. Qissa janrining asl mohiyati shuki, gapirilayotgan voqeaning ishonchli ekanini dalillashdir. "Qissa milliy kitobxonlikning, adabiy jarayonning qiyofasini ko'rsatuvchi o'ta muhim janr. Romanga yetmagan, hikoyaga sig'magan oraliq ijodiy quvvat qissada aks etadi"[1].

Mavzuga oid manbalar tahlili. Qissa so'zi Ilohiy kalomda bir necha bor takrorlagan. Yaratgan tomonidan marhamat qilingan so'zlar esa shubhasiz rostdir. Ana shu jihatdan qissa janrida ko'proq tarixiy bo'lib o'tgan voqealar ifodalanishi ko'zda tutiladi. Bekorga Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziy o'zining "Qisasi Rabg'uziy" asarini Qur'on oyatlari va hadislar bilan dalillamagan. Hazrat Navoiy ham "Saddi Iskandariy" dostonini yozishda tarixiy asarlarga murojaat qilar ekan, shunday yozadi:

Yana qissasig'a taaqqul qilib,
Tavorixig'a ko'p taammul qilib.

Umurida ulcha g'aroyibdurur,
Ki, ul ishta ko'prak ajoyibdurur,

Judo aylabon kizb oloyishin,
Anga aylasam nazm oroyishin...

Alisher Navoiy bu yerda shunday demoqdaki, aql yugurtirib, tarixlar ustida ko'p o'ylab, ishlarida qanchaki g'aroyib bo'lsa, u ishda ko'p ajoyib bor, mavjud bo'lgan yolg'onlarni chiqarib tashlab, unga nazm bilan bezak bersam...

Ki, olamda iki Skandar emish
Ki, ikisi davronda dovar emish.

Biri ulki, Doro bila qildi razm,
Biri buki, sad bog'layu etti azm.

Va lekin bu fursatki donoyi dahr,
Berur erdi bu qissadin elga bahr...

Zaruratdin alqissa har hol ila,
Aning qissasin surdum ijmol ila...

Shah ul qissadin bo'ldi, bas, shodmon,
Ne shohi zamon, balki yaxshi-yomon...[2]

Chunki, qaysidir ma'noda Iskandar haqidagi bu doston qissa janriga xos ma'lum bir shaxs haqida bitilgan. Shunday ekan unda qissa janrining birinchi sharti rostgo'ylik, tarixiy asoslanishlar bo'lishi shart edi. Bizningcha, shu sababdan ham xalq qissalarining boshida "Imomi Ja'fari Sodiqlik, rahnamoi muvofiq shunday rivoyat qiladilar" degan boshlanma keltirilgan va bu bilan aytilayotgan qissaning rosti yolg'oni shu zotning zimmasiga yuklangan.

Xalq qissalari, xususan, qahramonlik, vatanparvarlik, jasorat, mardlik, shijoat mavzusida yozilganlari, xalq ichida og'izdan og'izga o'tib kelganlari, qissaxonlik kechalarida aytilganlari asosida javonmardlik, futuvvat bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Javonmardlar haqidagi asarlarning o'zbek adabiyotiga kirib kelishi ham asosan qissa va qahramonlik

dostonlari amalga oshirilgan. O'zbek adabiyotida ko'proq bahodir shaxslarning qahramonliklari ifodalangan va jangnoma shaklidagi qissalar ko'plab uchraydi. A.Xolmurodov qayd etganidek, "Turli yig'inlarda qissaxonlar tomonidan o'qilgan "Ibrohim Adham", "Amiri Ahtam" hamda "Bobo Ravshan" qissalari xalq donishmandligini o'zida aks ettirganligi bilan xalq o'rtasida qadrlangan"[3].

Husayn Voiz Koshifiy yozadi: "Shuni bilki, qissa o'qish va qissa eshitishning foydasi katta. Birinchidan, kishi o'tgan ajdodlarning ishi va ahvolidan xabardor bo'ladi. Ikkinchidan, odam g'aroyib va ajoyib voqea, sarguzashtlarni eshita, fikri va ko'zi ochiladi. Uchinchidan, o'tganlarning zahmatu uqubatlaridan xabardor bo'lsa, hech kim u dunyodan tashvish-g'amdan ozod emasligini anglab, ko'ngli taskin topadi, tasalli bo'ladi. To'rtinchidan, o'tgan podshohlar davlati va mulkining ahvolini yeshitsa, dunyo moliga mehri susayadi, boylik kishiga vafo qilmasligini bilib oladi. Beshinchidan, qissa eshitgan behad ko'p ibrat oladi, tajriba orttiradi. Bas, ma'lum bo'ladikim, o'tmish ajdodlarning qissalarida foyda ko'p, agar bo'lib o'tgan voqealar bo'lsa, aytuvchi va o'quvchi bilan birga eshituvchi ham undan naf' topadi va agar g'ayri voqe' (to'qima) bo'lsa, aytuvchi uchun gunoh hisoblansa-da, ammo eshituvchi uchun foydali va savobdir...[4]"

Qissaxonlik kechalarida ko'proq jangnomalar aytilgan, qahramonlarning mardona qilgan urushlari, qahramonliklari tinglovchilarga ma'qul kelganidan bunday qissalar xalq orasida ko'proq ommalashgan. Shu bilan birga qissalardagi bosh qahramonning ko'rsatgan olijanoblighi, mardligi afsonaga aylanib borgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida xalq kitoblari turkumidagi qissalar keyingi yillarda kirill alifbosiga o'girildi. Bu sohada adabiyotshunos olimlar Bahodir Sarimsoqov, Sayfiddin Raf'iddinov, Rahimboy Jumaniyozov va Otabek Jo'raboevlar katta ulush qo'shishgan. Ular tomonidan "Xalq kitoblari" turkumida bir qator qissalar chop etildi. Aslida "Hazrat Ali qissalari", "Bobo Ravshan Qissasi", "Abu Muslim jangnomasi", "Temurnoma" singari asarlar futuvvatnomalar asosida yaratilgan kitoblar hisoblanadi.

Javonmardlar bajargan vazifalariga ko'ra ham ajralishgan, ba'zilar ijtimoiy hayotda odamlar orasidagi turli qiyin vaziyatlarni yumshatishgan bo'lsa, ba'zilar siyosiy maydonda hukmronlik uchun kurashlar olib borishgan. Shu jihatdan ham ularni shartli ravishda dastlab ikki qismga, ya'ni qavliiy va sayfiy (so'z hamda qilich bilan) amal qiluvchi javonmardlar deb atashgan.

Xalq qissa, dostonlari javonmardlarning turli guruhlari: ayyorlar, polvonlar, shotirlar, sarbadorlar kabilarga mansub qahramonlar haqida bitilgan. Javonmardlarning aynan sayfiy guruhiga kiruvchilari haqida xalq qissalari, dostonlari ko'proq aytilgan.

Olimning yozishicha, islomlashtirish davrida Eron hududlarida arablarning hukmronligiga qarshi qo'zg'olon ko'targan guruhlarini ayyorlar yoki xorijiyalar deb atashgan. Ayyorlar tashkiloti bu davlat siyosatiga nisbatan qarshi turgan kuchlarning yig'ilmasi, majmuasi bo'lgan.

Ayyorlar toifasi javonmardlarning qadimgi guruhlari bo'lishgan. Bu xususida eronlik olimah Mahbuba Sharafiy shunday yozadi: "Bu yo'l va ravishning paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar kam. Ammo ko'plab tadqiqotchilar uning paydo bo'lish sarchashmalarini Eronning islomdan oldingi tarixiga olib borib taqashadi. Jumladan, Malik ush-shuaro Bahor "ayyor" kalimasini asosi qadimgi pahlaviy tilidan kelib chiqqan forsiy termin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, "ayyor" so'zi aslida "ayn" harfi bilan emas, balki "alif" harfi bilan yoziladi va forscha "iyor" ايار, bu ham aslida "Izi yor" اذى يار bo'lganligini ta'kidlaydi; ya'ni "Izi" – Xudo, yor – do'st degani bo'lib, to'lig'icha Xudo yor degan mazmuni anglatadi[5]".

Yana bir eronlik olim Parviz Notil Xonlariy esa quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Manbalarda ayyor so'zi

javonmard so'zi bilan sinonim sifatida barobar keltiriladi. Agar bu so'zni arabcha deb bilsak, uning ma'nosi hech ham javonmard so'ziga yaqin va mos kelmaydi. Bundan tashqari, avvallari fors she'riyatida ham "ayyor" kalimasi ma'shuq va mahbubning xos sifat va ismlaridan biri tarzida ham qo'llangan, masalan "dilbari ayyor, buti ayyor iboralari so'z ustalarining (shoirlarning) asarlarida keltiriladi. Olim o'z fikrini, ayyorlarning o'z qasamlarida aytadigan "Yazdon dodor", "Yazdon dodor kirdikor" Yazdon dodor parvardigor omuzgor" iboralariga tayanib izohlaydi.

Abdurrafi Haqiqatning "Tarixi irfon va orifoni Eroniy az Boyazid Bastomiy to Nur Alishoh Gunabodiy" asarida o'qiyamiz: "Arablar bu qo'zg'olonlardan qattiq shikast va ziyon ko'radilar. Ular ro'parasidan chiqqan va osonlikcha jon bermaydigan bu askarlar guruhini ayyorlar, gohida esa xorijiyalar, deb atashgan. Bu istiloh umumiy tarzda Xalifaning buyruqlariga bo'ysunmagan, qaror va qonunlarini pisand qilmagan, boshqarayotgan tizimidan norozi bo'lgan har bir to'da yoki guruhga nisbatan qo'llangan"[6].

Turkiyalik olim Ibrohim Arslono'g'li yozadi: "Abbosiyar Turkiston va Xurosondan olib kelingan turkiy asirlardan kuchli va imtiyozli harbiy bo'linmani tashkil qilishdi. IX asrdan boshlab bunga qarshi vaziyat holiga kelgan ba'zi kuchlar o'rtaga chiqdi. Ular "Ayyor (arabcha so'z bo'lib, "qo'rqmas" ma'nosini bildiradi. Ko'pligi "ayyarun") - qonunni tan olmaydigan, qo'rqmas", "shotir - ayyor" va saljuqiylar davrida esa "rind - dunyo ishlarini yoqtiradigan va hech narsadan qaytmaydigan kimsalar" nomlarini olib, turli noroziliklarni chiqarar, fitnalarni boshlab, odamlarning tinchini buzar edi[7].

Ibrohim Arslono'g'li fikrida Abbosiy xalifalar tomonidan Turkiston va Xurosondan asir olingan qullardan tayyorlangan guruhlariga mazkur nom berilgani ilgari surilmoqda. Ammo bu fikrga biz qo'shilmaymiz, chunki, Abbosiyar xalifaligi davrida Turkiston degan nom bo'lmagan. Arablar Markaziy Osiyo hududlarini Movarounnahr deyishgan. Keyin aslida dastlabki arablar tomonidan qullikka olingan hududlar bu G'arbiy Eron, Ozarbayjon hududlari bo'lgan. Asirlar ham ko'proq ana shu joylardan olingan. Bizningcha, olim Turkiston deya, aslida hozirgi Turkiya, Eronning Ozarbayjon hududlarini nazarda tutgan. Chunki, aynan o'sha hududlardan asirga olingan yosh yigitlar ayyorlikka, turkiy atama bilan aytganda "yanichar"likka tayyorlangan va davlat to'ntarishlarida ulardan foydalanilgan.

Mehron Afshoriy yozadi: "Ayyorlar islomgacha va islomdan keyingi davrlarda ko'proq siyosiy vaziyatlarda qatnashgan guruhlar hisoblangan. Ular Eronning sharqiy hududlarida keng tarqalgan. Lekin vaqtlar o'tishi bilan ularning nomi faqat qissa va hikoyatlarda qolib ketdi. Chunonchi, h.q. XI va XII (mil. XVII-XVIII) asrlarda bu toifa haqidagi xalq qissalar to'qilgan og'izdan og'izga o'tib yurgan. Jumladan, "Rumuzi Hamza" va "Iskandarnomai kabir" singari qissalar tarkibida ularning qahramonliklari tasvirlanadi"[8]. Lekin bu bilan ayyorlar butunlay tarix sahnasidan nomi butunlay yo'qolib ketdi, degani emas, balki o'tgan keyingi sakkiz-to'qqiz asr mobaynida ular boshqa nomlar, jumladan, polvonlar, shotirlar nomi bilan namoyon bo'lmoqda. Bu guruhlariga xos bo'lgan asosiy sifatlardan biri ularning jangovarligi, siphogirliigi va lashkarboshilik qilishga moyilligidir.

Ayyorlar haqida bizda ham ko'plab qissa va dostonlar uchraydi. Rus olimi A.M.Shoytovning "Djavanmardi" v persidskom dastane" maqolasida O'rta Osiyo hududiga mos "ayyorlar" haqida shunday so'z yuritiladi: "Keyingi paytlarda fors xalq dostonlari haqidagi tadqiqotlar ko'zga tez-tez tashlanadigan bo'ldi... "Samaki Ayyor" Faromo'rz Xudodod ibn Abdulloh ar Rajoniy tomonidan ko'chirilgan, Sadak ibn Abulqosim Sheroziy tomonidan aytib berilgan ko'p jildli dostonidir. "Samaki Ayyor" dostoni qahramonlari halablik shahzoda Xurshidshoh va chin malikasi Mohpari. Bosh

qahramon Samaki ayyor tarixiy shaxs bo‘lib, chaqqon, ziyrak charchamaydigan javonmardlar guruhi boshlig‘i bo‘lgan...”[9]

“Samaki Ayyor” dostoni qo‘lyozmasi Angliyaning Oksford universiteti Bodleyn kutubxonasi saqlanadi. Dostonning muallifi kimligi va u qachon yozilgani haqida aniq ma‘lumotlar mavjud emas. Ayyorlar vatan ozodligi va odamlar xursandchiligi uchun lozim va munosib bo‘lgan ishlarni bajarishgan. Ular ko‘pincha zolim amaldorlar istibdodiga qarshi qo‘zg‘olon va g‘alayonlar ko‘tarishgan. Shunday mashhur ayyorlardan biri Abu Muslim Xurosoniy edi. Uning fidokorona harakatlari natijasida Bani Umayya xalifaligi barham topib, Abbosiylar xalifaligi davlat tepasiga chiqqan. Lekin noshukr Abbosiy xalifa (Mansur) ayyorlar namoyandasi bo‘lgan bu bu komil insonni nayrang bilan qatl ettiradi.

Keyinchalik, so‘fiy bo‘lgan ba‘zi shayxlar oldinlari ayyorlar jamoasidan bo‘lishgani yoziladi. Jumladan, Fuzayl bin Iyoz (vaf. h.q.187 \802 m.) Marv va Bovard orasidagi tog‘larda qaroqchilik bilan shug‘ullanganini aytgan. Uning eslashicha, bir kuni karvonni talayotganida kimnidir Qur‘on o‘qiyotganini eshitgan va bundan ta‘sirlangan. Shundan so‘ng u barcha narsalardan tiyilib, ayyorlikni tashlab, zuhdu tasavvufni ixtiyor qilgan.

Xulosa va takliflar. Qissachilik janrida bitilgan asarlar o‘zida tarixiy haqiqatni singdirib, bizga o‘tmishdagi har bir hududning qahramonlari tavsifini beradi va qaysidir ma‘noda o‘sha hududning kishilari xarakter xususiyatini ham ochib beradi. Zero, xalqimizda aytilganidek, “Qariysan qartiysan, asli naslingga tortasan”.

ADABIYOTLAR

1. Nazarova Sh. Yangi qissachilik sarhadlari // Sharq yulduzi, 2013. № 3. – B.126.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy: (Nasriy bayoni bilan) / Tahrir hay‘ati Qayumov A.va boshqa. – T.:G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birl., 1991. – 832 b.
3. Xolmurodov A. O‘zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari (XX asr so‘nggi choragi): Filol. fanlari dokt. ... diss. - T., 2008. – B.18.
4. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors-tojik tilidan Komilov N.tarj. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – B.81.
5. Mahbuba Sharafiy. Fatiylar tashkiloti va uning rivojlanishida Abbosiy xalifalarining tutgan o‘rni// Eronshenox. №6. - C.34-36.
6. Abdurrafi‘ Haqiqat. Tarixi irfon va orifoni Eroniy az Boyazid Bastomiy to Nur Alishoh Gunobodiy. –Tehron: chopxonai Ahmadiy. 1375/ 1996. – B.76-77.
7. Ibrahim Arslanoglu. Yazari belli olmayan bir futuvvetname. - Ankara. 1997. - S.15
8. Mehron Afshoriy. Oyini javonmardiy. –Tehron: Daftari po‘juheshhoi farhangiy. 1384. – C.25.
9. Shoytov A.M. «Djavanmardi» v persidskom dastane. – Moskva, 1972. – S. 48–61.



Gulshahnoz MAHMUDJONOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
E-mail: gulshahnozmahmudjonova@gmail.com

O'zMU katta o'qituvchisi, t.f.f.d., PhD R.H.Alayev taqrizi asosida

STUDY OF THE TF-IDF METHOD IN TEXT CLASSIFICATION AND ITS IMPORTANCE

Аннотация

This paper discusses research on text classification and text processing using the TF-IDF method. The TF-IDF method is a statistical method used to measure the importance of words in a document or corpus. TF (Term frequency) stands for term frequency, IDF (inverse document frequency) stands for inverse document frequency, and is often used in text classification, clustering, and data retrieval.

Key words: Word frequency, text classification, natural language processing, manta vectorization, documents, sentiment analysis.

ИЗУЧЕНИЕ МЕТОДА TF-IDF В КЛАССИФИКАЦИИ ТЕКСТОВ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация

В этой статье рассматриваются исследования по классификации и обработке текста с использованием метода TF-IDF, который представляет собой статистический метод, используемый для измерения важности слов в документе или корпусе. TF (Term frequency) является частотой слов, IDF (inverse document frequency) является обратной частотой документов и часто используется при классификации текстов, кластеризации и поиске данных.

Ключевые слова: Частотность слов, классификация текстов, обработка естественного языка, манти-векторизация, документы, сентимент-анализ.

MATN TASNIFIDA TF-IDF USULINI O'RGANILISHI VA UNING AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada TF-IDF usuli yordamida matnlarni tasniflash va matnlarga ishlov berish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida so'z yuritiladi. TF-IDF usuli – bu hujjat yoki korpusdagi so'zlarning ahamiyatini o'lchash uchun ishlatiladigan statistik usul. Bu TF (Term frequency) so'zlar chastotasi, IDF (inverse document frequency) hujjatning teskari chastotasi degan ma'noni anglatadi va ko'pincha matnlarni tasniflash, klasterlash va ma'lumotlarni qidirishda qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: So'z chastotasi, matn tasnifi, tabiiy tilni qayta ishlash, mant vektorlashtirish, hujjatlar, sentiment tahlil.

Kirish. Kompyuterlar va internetning hayotimizga kirib kelishi bilan axborot ma'lumotlari miqdori har soniyada ortib bormoqda. Ma'lumotlarni tez va oson topish uchun ma'lumot matnlari tasnifi amalga oshirilishi kerak. Matnlarni tasniflash uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) da keng tarqalgan TF-IDF (so'zlar chastotasi - hujjatning teskari chastotasi), Count Vectorizer, so'zlar sumkasi (Bag of words, Bow) kabi usullardan foydalaniladi. Axborat tizimlarida katta hajmdagi matnli ma'lumotlarni NLP vositalari yordamida qayta ishlash imkoni bor. Ushbu katta hajmdagi ma'lumotlarni tushunish va muayyan qarorlarni qabul qilish uchun ularni raqamli shaklga olib kelish zarur. NLP (natural language processing – tabiiy tilga ishlov berish) – informatikaning inson tilini tahlil qilish, modellashtirish va tushunish usullari bilan shug'ullanadigan sohasi. Tabiiy til (inson tili) ni o'z ichiga olgan har bir intellektual dasturning asosini NLP tashkil etadi [1]. Tabiiy tilni qayta ishlashda matn vektorizatsiyasi – so'zlar, gaplar yoki kattaroq matn birliklari vektor sifatida ifodalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida o'zbek tili ta'limiy korpusi matnlari uchun TF-IDF usulidan foydalanib korpus matnlari tahlil qilingan. Maqola mualliflari tomonidan korpus hujjatlaridagi so'z uchun TF-IDF qiymatini olish uchun quyidagi formuladan foydalanilgan:

$$w_{t,d} = TF_{t,d} * \log\left(\frac{N}{DF_t}\right)$$

Korpusdagi hujjatlarni berilgan Q so'rovga mos TF-IDF qiymatlar bo'yicha tartiblash amalga oshirilgan. Q so'roviga nisbatan D1, D2 va D3 hujjatlar bo'yicha o'rtacha TF-IDF qiymatlaridan foydalanilgan. Natijada hujjatlarning

TF-IDF qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydigan nomuhim so'zlar aniqlangan. TF-IDF qiymatlarini hisoblashni Python tili vositalari yordamida amalga oshirilgan. Jarayonni avtomatlashtirish uchun sklearn paketidan foydalanilib, computeTF funksiyasi orqali hujjat bo'yicha korpusdagi har bir so'z uchun TF qiymat hisoblab chiqilgan. O'zbek tili korpusidagi matnlar va berilgan so'rovga mos TF-IDF qiymatlarini hisoblashda tokenlarga ajratish yoki lemmatizatsiya asosida tahlilni amalga oshirish mumkin. Korpusdagi hujjatlar lemmatizatsiya va tokenizatsiya asosida tahlil qilingan [2].

“Maktab korpusi”dagi nomuhim so'zlarni avtomatik aniqlash uchun TF-IDF usuli Khabibulla Madatov, Shukurla Bekchanov, Jernej Vi cic tomonidan ishlatilgan. Buning uchun 47165 ta noyob so'zning har biri uchun uning chastotasi aniqlangan. Nomuhim so'zlarning uchta ro'yxati, unigramlar – faqat bir so'zdan iborat nomuhim so'zlar, bigramlar – bigram usuli bilan aniqlangan juft so'zlar, birikmalar – birikma usuli bilan aniqlangan juft so'zlar olingan [3].

O'zer Çelik, Burak Can Koçlar TF-IDF, Word2vec va Fasttext vektor model usullari bilan 6 toifadagi turk xabarlarini matnlarini tasniflaganlar. Ya'ni ma'lumotlar to'plami Python's BeautifulSoup kutubxonasiidan foydalanilgan holda 6 xil yangiliklar saytlaridan tuzilgan. Fan-texnika, ta'lim, madaniyat va san'at, sog'liqni saqlash, siyosat va sport yo'nalishlari bo'yicha jami 12000 ta, har bir yo'nalish bo'yicha 2000 ta xabar matnlari asosida tadqiqot olib borganlar. Kategoriyalar axborot saytlari tomonidan belgilangan toifalar asosida aniqlangan. Logistlik regressiya usulining murakkablik matritsasi TF-IDF uchun eng yaxshi muvafaqiyat ko'rsatkichlarini bergan [4].

Turkcha qo'shiq matnlarini tahlil qilishda va turk qo'shiqlaridagi kayfiyatni (ijobiy, salbiy) solishtirish uchun TF-IDF og'irliklaridan foydalangan holda an'anaviy so'zlar sumkasi (Bow) modeli, Doc2Vec algoritmi yordamida yaratilgan modellari Bariş Çimen va Ahmet Onur Durahim tomonidan tahlil qilingan [5].

Turk tilida sentiment tahlil qilish algoritmlariga yuklanadigan gaplarni tayyorlash uchun oldindan ishlov berish algoritmlarini amalga oshirish maqsadida TF-IDF usuli qo'llanilgan. Basri Çiftçi tomonidan Twitter ijtimoiy tarmog'ida yozilgan twitlarni tasniflash, nafratdan iborat nutq va haqoratli so'zlarni aniqlash uchun n-gramm asosidagi TF-IDF yondashuvidan foydalanilgan. Ular Twitter ma'lumotlar to'plamida sinflarni ko'rsatish uchun uchta tegni: nafratli (0), haqoratli (1) va nafrat va haqoratdan toza (2) tarzida ko'rib chiqdilar va yuqoridagi usul yordamida tasnifladilar. Bundan tashqari turk olimi Turkmano'g'li tomonidan olib borilgan yana bir tadqiqot Beyazperde 220K jumladan iborat film sharhlarining onlayn veb-saytidan turk tilidagi yangi ma'lumotlar to'plamini tahlil qilishda TF-IDF vektorizatorlaridan foydalangan va tahlilda aniqlikni oshirishga erishilgani aytib o'tilgan [6].

Hujjatlarni vektor sifatida aks ettiruvchi Doc2Vec Paragraf vektor modeli (Paragraph Vector model) asosida bir nechta tasniflash k-NN (k-Nearest Neighborhood classifier), SVM (support vector machine), hujjatlarning paragraf vektorlarida ishlaydigan CC (Centroid Classifier) va CFSVM (Centroid Feature Support Vector Machine) usullar yordamida Yulduz Texnik Universitetining Kemik tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) guruhi veb-saytidan olingan ma'lumotlar to'plami tasnif qilingan. Tasviriy tomonida paragraf vektor modeli tasniflagich sifatida yuqoridagi usullar yordamida TF (so'zlar chastotasi) va TF-IDF (so'zlar chastotasi – hujjatning teskari chastotasi) bilan taqqoslangan. Natijada Doc2Vec nomi paragraf vektor tasviri o'quv ma'lumotlari miqdori cheklangan bo'lsa, SVM tasniflagichlari uchun TF-IDF ko'rinishlariga qaraganda yaxshiroq natijalar beradi degan xulosaga kelingan. Lekin ma'lumotlar ko'p miqdorda bo'lsa TF-IDF usuli yordamida aniqlikka erishish mumkin ekanligi keltirib o'tilgan [7].

O'zbek tili bilan bir til oilasiga mansub qozoq tili uchun matnli hujjatlarning o'xshashligini o'lchash uchun Kosinus, Dice va Jaccard kabi funktsiyalar yordamida qozoq tilining sinonimlari hisobga olingan holda TF-IDF usulining yana bir kengaytmasi Bakhyt Bakiyev tomonidan ishlab chiqilgan. Usulning samaradorligi tajribalar bilan tasdiqlangan. Loyiha uchun 1000 ga yaqin qozoqcha sinonim so'zlardan iborat kichik lug'at yaratilib, o'xshashlik uchun ikkita matnli hujjatni solishtirib chiqilgan. Bu loyihaning kichik kamchiligi shundaki, faqat o'xshash ikkita matnli hujjatni bir-biriga taqqoslay oladi [8].

TF-IDF – bu kalit so'zlarning ba'zi bir hujjatlarga tegishlilikini ko'rsatadigan raqamli statistik usul bo'lib, kalit so'zlarni taqdim etadi va ular yordamida ba'zi bir hujjatlarni aniqlash yoki toifalarga ajratish mumkin. TF-IDF ikki xil so'zning birikmasidir, ya'ni so'z chastotasi va teskari hujjat chastotasi. TF atamaning hujjatda necha marta mavjudligini o'lchash uchun ishlatiladi. Misol sifatida, 5000 so'zdan iborat "T1" hujjati bor va "kitob" so'zi hujjatda roppa-rosa 10 marta mavjud. Shunday qilib, "T1" hujjatidagi "kitob" so'zining chastotasi $TF = 10/5000 = 0,002$ bo'ladi. Hujjatning teskari chastotasi tez-tez uchraydigan so'zlarga kamroq og'irlik beradi va kamdan-kam uchraydigan so'zlar uchun kattaroq og'irlikni belgilaydi. Misol uchun, 10 ta hujjat bor va "texnologiya" atamasi ushbu hujjatlarning 5 tasida mavjud, shuning uchun teskari hujjat chastotasini: $IDF = \log_e (10/5) = 0,3010$ sifatida hisoblash mumkin. TF-IDF atama chastotasi (TF) va teskari hujjat chastotasining (IDF) ko'payishi. TF-IDF ni hisoblash uchun: $TF-IDF = 0,002 * 0,3010 = 0,000602$ [9].

Bundan tashqari, Vadim Andreevich Kozhevnikov matnlarni tasniflash uchun modellarni yaratishning uch xil texnikasi bo'yicha tadqiqot olib borgan. So'zlarning oddiy ikkilik sumkasi modeli va TF-IDF modeli bo'lgan dastlabki ikkita usul matn tasnifida keng tarqalgan va keyingi so'zlarni inkor etishni kiritish orqali aniqlikni oshirishga harakat qilingan. Ushbu texnikaning bir nechta turli xil mashinali o'rganish algoritmlarida ishlashi ham oxirida ko'rsatib o'tilgan. Sinovdan o'tkazgan ikkinchi model – bu so'zlar sumkasidir. Bu yerda hujjatlar vektor sifatida ham ko'rsatilgan, ammo "0" va "1" vektori o'rniga, endi hujjatda har bir so'z uchun ballar berilgan. Ushbu ball aniq so'zlar uchun TF va IDFni ko'paytirish orqali hisoblab chiqilgan. Ushbu model oddiy ikkilik so'zlar sumkasi modelidan farq qilishi isbotlangan, chunki u hujjatlarni "0" va "1" vektorlari sifatida ifodalaymaydi, aksincha, 0 va 1 ichida aniqroq qiymatlarni belgilaydi. Oddiy TF-IDF modeli, hujjatda uchragan noyob ya'ni unikal so'zlarga, ahamiyat bergani uchun ikkilik so'z modelida barcha so'zlarni teng deb hisoblashdan ko'ra yaxshi ishlashi ochiqdangin [10].

Hujjatlar to'plamini turlari bo'yicha tasniflash (klasterlash) uchun maqola mualliflari tajriba o'tkazishgan. TF-IDF algoritmi K-means va ierarxik algoritmlar bilan bir qatorda qo'llanilgan [11]. Dastlab kichik ma'lumotlar to'plamida tajriba qilingan va klaster tahlili o'tkazilgan. Eng yaxshi algoritmlar kengaytirilgan ma'lumotlar to'plamida qo'llanilgan. Tegishli hujjatlarning turli klasterlari bilan bir qatorda, har bir ma'lumot uchun algoritmlar xatti-harakatlarini ko'rsatish uchun olingan siluet koeffitsienti, entropiya va F - o'lchovi tendentsiyasi taqdim etilgan. Birinchi tajriba TF-IDF algoritmi elektron pochta, News20, Reuters saytlaridan olingan 45 ta hujjatda bajarilgan. Har bir ma'lumot to'plami uchun entropiya va F - o'lchovi hisoblab chiqilgan. Ushbu algoritmlar klasterlarni olish uchun katta ma'lumotlar to'plamida qo'llanilgan. News20 va Reuters ma'lumotlar to'plami uchun HAC katta ma'lumotlar to'plami qo'llanilgan bo'lsa, elektron pochta ma'lumotlar to'plami uchun esa entropiya va aniqlik qiymatlari algoritmlardan birini qo'llash mumkinligi keltirilgan. Keyingi tajriba uchun News20 ma'lumotlar 10000 ta hujjatlarni o'z ichiga olgan va bir nechta guruhlariga bo'lingan juda katta ma'lumotlar to'plami olingan. NEWS20 ma'lumotlar to'plamidan ma'lumotlar guruhiga (motsikl) tegishli hujjatlar to'plami tanlangan va birinchi tajribada foydalanilgan algoritmlarni qo'llanilgan. Tajribalar ikki bosqichda ishlaydi, birinchi bosqich eng mos algoritmlarni aniqlaydi va ikkinchi bosqichda u kengaytirilgan ma'lumotlar to'plamiga qo'llaniladi. Har ikki bosqichning natijalari turli klaster tahlil usullari yordamida tekshiriladi. U elektron pochta, tadqiqotga oid ma'lumotlarni saralashdan farq qiladigan korpusda mavjud bo'lgan hujjatlar nusxalarini aniqlash kabi keng ko'lamli muammolar uchun ishlatilishi mumkin. Turli ma'lumotlar to'plamlarini qayta ishlashdan keyin olingan natijalar algoritmlarning samaradorligini ko'rsatgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Matnli vektorlashtirishning eng oddiy usullaridan biri so'zlar sumkasi (BoW) usulidir. Bow – bu hujjatdagi so'zlarning paydo bo'lishini tavsiflovchi matnning raqamli ko'rinishi bo'lib matnni modellashtirish (raqamlashtirish)da foydalaniladi. Bow usulida faqat matndagi so'zlar soni (statistikasi) aniqlanadi. Bow algoritmidan foydalanib, o'zgaruvchan uzunlikdagi matnlarni chegaralangan uzunlikdagi matn (vektor)ga aylantiriladi. Mashinali o'rganish modellarida raqamlashtirilgan ma'lumotlar qayta ishlanmaydi. Shu sababli, matnlarni raqamli ko'rinishga olib kelish lozim. Matnga ekvivalent raqamlar vektori hosil qilinadi [12]. Vektorning qiymatlari har bir so'zning berilgan matn parchasida paydo bo'lish chastotasini ifodalaydi. Tasvirlar, ovoz va videolar kabi boshqa ma'lumotlar turlari ham vektor sifatida kodlanishi mumkin. Dasturlashda vektor – bu ro'yxat yoki massivga o'xshash ma'lumotlar strukturasi.

Vektorli tasvirlar kiritish ob'ektining xossalari haqida ma'lumotni o'z ichiga oladi. Ular kompyuterlar oson ishlov beradigan yagona formatni taklif qiladi.

TF-IDF usuli birinchi bo'lib hujjatlarni qidirish va ma'lumot olish algortimlarida qo'llanilgan bo'lib, foydalanuvchi so'roviga mos tarzda axborot tizimining ma'lumotlar bazasidan eng kerakli hujjatlarni aniqlab beradi.

TF-IDF usuli ikkita statistik ko'rsatkichni o'zaro ko'paytirish orqali aniqlanadi:

– So'zlar chastotasi (Term Frequency, TF): so'zning hujjatda necha marta uchrashi;

– hujjatning teskari chastotasi (Inverse Document Frequency, IDF): hujjatlar to'plamidagi so'zning teskari chastotasi. Ushbu chastota orqali aniqlangan qiymatlarga ko'ra unikal so'zlar yuqori ballga, ko'p qo'llaniladigan so'zlar past ballga ega bo'ladi [12].

TF-IDF statistik ko'rsatkich asosida aniqlangan bo's matnning statistik tahlili haqida to'xtalini. Matnning statistik tahlili – tilni ehtimollik belgilariga ko'ra tahlil qilish, til hodisalarining statistik xarakteristikalarini asosida baholash demakdir. Til birligini gapda yoki matnda qo'llanilish chastotasi (sur'ati) ehtimollik deyiladi.

Til hodisalarini statistik usul asosida tahlil qilish uchun doim ma'lum bir matn yoki matnlar to'plami olinadi. Matnning statistik tahlili matn atributsiyasi muammosiga ham oydinlik kiritishda muhim tadqiqot usuli hisoblanadi. Bunda matnda tez- tez ishlatiluvchi til birliklari (otlar, sifatlar, kalit so'zlar, fe'llar) lingvostatistik tahlil yordamida aniqlanadi. Turli matnlardan olingan dalillarning qiyosiy tahlili bizga o'sha matnning mazmun-mundarijasini, matn tuzilgan davrni, dalillarni argumentlash xarakterini va hatto mualliflikni aniqlashga imkon beradi [13].

Tahlil va natijalar. Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, matn tasnifida TF-IDF usuli

keng o'rganilgan. Foydalanuvchi so'rovi (kalit so'zlar) asosida korpusdagi matnlarni TF-IDF usuli vositasida tartiblash kabi ishlarni amalga oshirilgan. O'zbek tili korpusidagi matnlar va berilgan so'rovga mos TF-IDF qiymatlarni hisoblashda tokenlarga ajratish yoki lemmatizatsiya asosida tahlilni amalga oshirilganda, lemmatizatsiya asosida qilingan tahlil samaradorligiga erishilgan. TF-IDF usulidan "Maktab korpusi"dagi nomuhim so'zlarni avtomatik aniqlangan, lekin aniqlangan nomuhim so'zlar o'zbek tilidagi barcha matnlar uchun ishlamaydi. Shunday qilib, agar so'z ma'lum bir hujjatda ko'p topilsa, lekin qolganlarida kamdan-kam uchrasa, unda bu so'z ushbu hujjatning o'zi uchun katta ahamiyatga ega va bunday so'zlar boshqa korpus so'zlariga nisbatan ko'proq vaznga ega bo'ladi. Hozirgi kunda TF-IDFning klassik usulidan foydalanish kamaygan va bu usul takomillashtirilib, SVM tasniflagichi va boshqa tasniflagishlar bilan birgalikda qo'llanilib, tahlilda yanada aniqlikka erishilmoqda.

Tilda so'zlashuvchilar so'z nimani anglatishini va uni gapda qanday ishlatilishini, semantikasini tushunishi mumkin. Biroq, TF-IDF usuli tizimi qayta ishlanadigan so'z yoki iboralarning ma'nosini hisobga olmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, muvaffaqiyatli yondashuv aniq bir hujjatdagi so'zlarning nisbiy chastotasi yoki noyobligini boshqa hujjatlardagi chastotasi bilan taqqoslashga asoslanadi. Ushbu yondashuvning asosiy g'oyasi shundaki, asosiy ma'no unikal so'zlarda yashiringan bo'ladi.

Matnni tasniflashda TF-IDF usuli matnlarga aniq va to'g'ri ishlov berish imkonini beradi. Axborot qidiruv tizimlarida tezlik va aniqlikni oshirishga ham yordam beradi. Ushbu maqolada TF-IDF metodi yordamida qilingan ishlar xususida so'z yuritildi. Bu metodni barcha qilingan tadqiqotlarda o'z samarasini bergan. Ba'zi tadqiqotlarda bu metod takomillashtirilib boshqa texnikalar va algortimlar bilan birgalikda foydalanilgan.

ADABIYOTLAR

1. Rahimov A., Kompyuter lingvistikasi asoslari, Toshkent 2011, 47-b.
2. Elov B., Xusainova Z., Xudayberganov N., O'zbek tili korpusi matnlari uchun tf-idf statistik ko'rsatkichni hisoblash, Science and innovation, international scientific journal volume 1 issue 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337.
3. Khabibulla Madatov, Shukurla Bekchanov, Jernej Vi cic [Dataset of stopwords extracted from Uzbek texts] , Data in Brief Volume 43, August 2022, 108351.
4. Özer Çelik, Burak Can Koç, TF-IDF, Word2vec ve Fasttext Vektör Model Yöntemleri ile Türkçe Haber Metinlerinin Sınıflandırılması, Dokuz Eylül Üniversitesi Mühendislik Fakültesi Fen ve Mühendislik Dergisi, 21.07.2020.
5. Barış Çimen, Ahmet Onur Durahim, Moodetectr: Mood Detection For Turkish Lyrics Through Word Vectors, Konya Journal of Engineering Sciences, 02.02.2020.
6. Basri Çiftçi.B, A Deep Learning Approach to Sentiment Analysis in Turkish, Istanbul Sehir Universitesi, 2019 10-17-b.
7. Halil İ. Çelenli, S. Talha Öztürk va boshqalar, Document Embedding based Supervised Methods for Turkish Text Classification, <https://mimoza.marmara.edu.tr>.
8. Bakhyt Bakiyev, Method for Determining the Similarity of Text Documents for the Kazakh language, Taking Into Account Synonyms: Extension to TF-IDF, 2022 International Conference on Smart Information Systems and Technologies (SIST), 28-30 April, 2022, Nur-Sultan, Kazakhstan.
9. Shahzad Qaiser, Ramsha Ali, Text Mining: Use of TF-IDF to Examine the Relevance of Words to Documents, International Journal of Computer Applications (0975 – 8887) Volume 181 – No.1, July 25, 2018.
10. Kozhevnikov.V.A, 2020, Sergeevna.E.P, Research of the Text Data Vectorization and Classification Algorithms of Machine Learning, Theoretical & Applied Science xalqari ilmiy jurnali.
11. Prafulla Bafna, Dhanya Pramo, Anagha Vaidya Document Clustering: TF-IDF approach, Conference: 2016 International Conference on Electrical, Electronics and Optimization Techniques (ICEEOT).
12. Elov B., Hamroyeva Sh., Xusainova Z., NLP (tabiiy tilga ishlov berish)ning vazifalari va zamonaviy yondashuvlar, Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim, 2022, № 5-6, 20-b
13. Elov B., Xusainova Z., Xudoyberganov N., Tabiiy tilni qayta ishlashda bag of words algortimidan foydalanish, O'zbekiston: til va madaniyat amaliy filologiya masalalari, 2022 Vol. 2 (5), 36-37-b.



Xurshida NARXODJAYEVA,
QarDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
E-mail: 4603448@mail.ru

Filologiya fanlari doktori O.Begimov taqrizi asosida

LINGUOCULTUROLOGICAL ASPECT OF EXPRESSION OF RESPECT IN OFFICIAL COMMUNICATION

Annotation

The article shows that the category of respect is a sociolinguistic phenomenon, as an important and complex, noteworthy category that has its own linguistic-speech, semantic-grammatical and stylistic-intonational methods and means of expression, factors and possibilities of realization, verbal and non-verbal means of expression of respect in official communication. Its application is expressed. Its manifestation in various forms and manifestations at all levels of the language is analyzed on the basis of the text.

Key words: Formal communication, category of respect, non-verbal means, social orientation, speech of respect.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АСПЕКТ ВЫРАЖЕНИЯ УВАЖЕНИЯ В ОФИЦИАЛЬНОМ ОБЩЕНИИ

Аннотация

В статье показано, что категория уважения является социолингвистическим явлением, как важная и сложная, заслуживающая внимания категория, имеющая свои языково-речевые, семантико-грамматические и стилистико-интонационные приемы и средства выражения, факторы и возможности реализации, вербальные и невербальные средства выражения уважения

Ключевые слова: Официальное общение, категория уважения, невербальные средства, социальная направленность, речь уважения.

RASMIY MULOQOTDA HURMAT IFODALANISHINING LINGVOMADANIY ASPEKTI

Annotatsiya

Maqolada hurmat kategoriyasining ijtimoiy-lisoniy hodisa ekanligi, lisoniy-nutqiy, semantik-grammatik va uslubiy-intonatsion jihatdan o'z ifodalaniish usul va vositalariga, voqelanish omil va imkoniyatlariga ega bo'lgan muhim va murakkab, e'tiborga loyiq kategoriya sifatida, rasmiy muloqotda hurmatning verbal va noverbal ifoda vositalarining qo'llanilishi ifodalangan. U tilning barcha sathlarida xilma – xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lishi matn asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Rasmiy muloqot, hurmat kategoriyasi, nolisoniy vositalar, ijtimoiy yo'nalish, hurmat nutqi.

Kirish. Bugungi zamon tilshunosligida muloqotda hurmat kategoriyasini o'rganishga doir bir qator izlanishlar olib borilmoqda. Kundalik hayotimizda muloqot jarayonida hurmat tamoyillariga rioya qilinayotgani ko'zga tashlanadi. Zero, milliy istiqlol mafkurasi o'zbek xalqini milliyligini, o'ziga xos tabiatini, intilishlarini aks ettiruvchi bir qator milliy xususiyatlarini yuzaga chiqardi. Hurmat kategoriyasi umuminsoniy mohiyatga ega, biroq u milliy mentalitetga, urf-odatlariga, an'analarga asoslangan holatda namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hurmat kategoriyasi – ijtimoiy-lisoniy hodisa bo'lib, lisoniy-nutqiy, semantik-grammatik va uslubiy-intonatsion jihatdan o'z ifodalaniish usul va vositalariga, voqelanish omil va imkoniyatlariga ega bo'lgan muhim va murakkab, e'tiborga loyiq kategoriyalardan biridir [1].

Rasmiy muloqotda ham hurmatning verbal va noverbal ifoda vositalaridan keng foydalaniladi. Masalan, hurmat ma'nosini ifodalovchi nolisoniy vositalar sifatida ma'ruzachi rasmiy muloqotni tabassum bilan boshlash, tikka turib egilib ta'zim qilish, qo'lni ko'ksiga qo'yib salom berish kabi hurmat xulqi (odobi) ko'rinishlaridan foydalanishi mumkin. Hurmat ma'nosini ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vositalar orqali hurmat ma'nosining ifodalaniish darajasi qo'llanish doirasi bir xil bo'lmaydi [2]. Vositalarning tuzilishi, vazifasi, ma'no xususiyatlariga qarab, ularning hurmat kategoriyasidagi mavqei, hurmatni ifodalash darajasi aniqlanadi.

“Hurmat – ijtimoiy – ijobiy hodisa sifatida til orqali ifodalanan ekan, uni lisoniy kategoriya deb atash maqsadga muvofiq”- Sh. Sodiqovanning quyidagi fikrlariga qo'shilgan holda, hurmatning kategoriya sifatida modal munosabatlar

bilan bog'liq bo'lishi uning umumiy jihati, hurmat va u bilan bog'liq sizlash, sizsirash, e'zozlash, ulug'lash, e'tibor berish kabi ma'nolarni ifodalashi kabi xususiy jihatlarini rasmiy muloqotda jaranida ham kuzatishimiz mumkin.

Hurmatning lisoniy kategoriya sifatida o'ziga xos uch tomoni mavjud: mazmun, shakl – tasvir vositalari, ifoda usullarini o'z ichiga oladi. Mazmun jihati: Jamiyatdagi ijobiy – ruhiy – lisoniy voqelikni aks ettirishi; Hurmatlash va sizlash hodisalarini voqelantirishi; Muomala odobida namoyon bo'lishi.

Hurmat rasmiy muloqotda (ijtimoiy – aloqa aralashuvda, monologik va dialogik nutqlarda, madaniy-ma'rifiy, axloqiy-huquqiy, ruhiy-hissiy kabi munosabatlarda ham) muloqot xulqi tarzida voqelanadi [1].

Hurmat ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida, ijtimoiy yo'nalishdagi qadriyat, mehr-oqibat, sevis-hissilish, nafasat, obro'-e'tibor, sadoqat, samimiyat, do'stlik, birodarlik, bag'rikenglik, or-nomus, iffat, hayo kabi xislatlarni aks ettiradi.

Kishilarning borliq hodisalariga, eng avvalo, odamlarga bo'lgan barcha ijobiy munosabatlari (fikri, so'zi, tuyg'usi...) muloqot hulqi, muloqot odobi, muloqot madaniyati (so'z boyligi, nutqining nafis va go'zalligi...), muloqot fazilatlarini (muomala odoblari, xush fe'llik, shirinsuxanlik, mayinlik, muloyimlik kabi) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mazkur tizim zaminida hurmat nutqi yotadi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Hurmat rasmiy muloqotda quyidagi o'ziga xos xarakterli xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning inauguratsiya marosimida so'zlagan rasmiy nutqi matni asosida “hurmat” birliklarining rasmiy muloqotda o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini tahlil qilamiz. Asosan, rasmiy muloqotda

hurmat ma'nosini keng ifoda etgan sizlash, hurmatlash belgilari ustun bo'ladi.

“Siz, azizlarga, sizlar orqali butun el-yurtimizga tinchlik va salomatlik, oilaviy baxt-saodat va farovonlik tilayman”[3]. E'tiboringizga berilgan rasmiy muloqot matnidan ko'rishimiz mumkinki, “siz”, “sizlar orqali”, “azizlarga” kabi hurmatni ifoda etgan so'zlarda hurmatlash belgilari ustuvorligi ko'rinadi.

Rasmiy muloqotda hurmat ma'nosi bevosita, bavoisita hamda mushtarak holatlarda ham ifodalanishini ko'rishimiz mumkin:

“Jonajon Vatanimiz timsoli va mustaqilligimiz ramzi bo'lgan davlat bayrog'imiz, madhiyamiz va gerbimizga, menga topshirilgan Prezidentlik Oliy nishoni va bayrog'iga yuksak hurmat bajo keltiraman”.

Rasmiy muloqot matni tarkibida hurmatning kimga yoki nimaga qaratilganligini ifodalovchi so'z, so'z birikmalari bo'ladi.

“Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Bobur Mirzo kabi ulug' ajdodlarimiz an'analari munosib davom ettirayotgan mard va jasur harbiy xizmatchilarimizga; saylov jarayonlarini keng va xolis yoritgan ommaviy axborot vositalari vakillariga, jurnalist va blogerlarga chin yurakdan minnatdorlik bildiraman”.

Hurmat nutqi tarkibida hurmat mazmunini yaqqol ifodalovchi, asosiy yukni ko'taruvchi leksik birliklar mavjud. Ularni hurmat ma'nosini ifodalovchi “tayanch leksemalar” deb atash ma'qul.

«Muhtaram tantanali majlis ishtirokchilari!»

Ba'zan rasmiy muloqot nutqida ham ezgu niyat bilan bog'liq emotsionallik ruhi hukm suradi.

“Avvalo, menga ulkan ishonch bildirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib qayta saylagan barcha yurtidoshlarimga chin qalbidan minnatdorlik izhor etib, mehnatkash, olijanob va bag'rikeng xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan ta'zim qilaman”.

Rasmiy muloqotda hurmat mazmunini tashuvchi morfologik birlik, leksik birlik, frazeologik birlik hamda sintaktik – stilistik birlik alohida holda yoki hammasi birdan ishtirok etishi mumkin. Bu holda birliklar ifodalagan mazmun bir – birini to'ldirish, ma'no qirralarini kuchaytirish, bo'rttirish uchun xizmat qiladi.

“Yosh avlodimizga – mening o'g'il-qizlarimga qarata aytmoqchiman: tomirlarida buyuk bobolarimizning g'ayrat-shijoati jo'sh urib turgan aziz farzandlarim, sizlar Yangi O'zbekistonni barpo etishda doimo oldingi safda bo'lasizlar, deb ishonaman...”

Tahlil va natijalar. Hurmat–muloqot xulqining asosiy ko'rinishlaridan hisoblanadi. SH. Sodiqova. O'zbek tilida hurmat kategoriyasini o'z monografiyasida ijtimoiy hurmatni o'z mazmuniy-vazifaviy yo'nalishiga ko'ra turlicha ko'rinishlarda bo'lib o'rgangan [1]. Biz quyidagi ijtimoiy hurmatni o'z mazmuniy-vazifaviy yo'nalishiga ko'ra turlicha qo'llanilishini davlatimiz rahbarining nutqi asosida tahlil qildik.

Ijtimoiy-siyosiy yo'nalishidagi hurmat;

Assalomu alyukum, qadrli vatandoshlarim, azizlarim! Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar! Bugun yurtimizda ulug' bayram, katta tantana. Ko'pmillatli O'zbekiston xalqi jonajon Vatanimiz istiqbolining shonli o'ttiz yillik to'yini zo'r shodu xurramlik bilan nishonlamoqda. “Yangi O'zbekiston” deb nom olgan mana shu muazzam bog'da biz bugun birinchi marta Mustaqillik bayramini o'tkazmoqdamiz.

Ma'lumki, mustaqil va kuchli sud hokimiyati inson huquqlari, demokratiya va qonuniylikni qaror toptirishning asosiy shartidir. Bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarga doir 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Hozirgi vaqtda ular asosida jiddiy amaliy ishlar olib borilmoqda [4].

Mazkur rasmiy muloqotdagi hurmat nutqi o'z tuzilish-tizimi, mazmuniy-vazifaviy yo'nalishi, leksik-semantik-grammatik tarkibi, ifoda asosi va morfologik-sintaktik belgilari jihatidan alohida ahamiyat kasb etib, ijtimoiy hurmat darajasining samimiy, tantanavor va chuqur ifodalanishini ta'minlagan.

Ta'kidga loyiq jihat shundaki, birinchidan, ijtimoiy-hurmat nutqi (matn) boshida vatandoshlarim, azizlarim undalmalari keltirilib, so'zlovchi o'z samimiy hurmatini yuqori darajada bildirgan (bunda vatan, aziz) leksemalaridan tashqari –dosh, -lar, -im morfologik unsurlarning ham xizmati katta; ikkinchidan, hurmat avvalo majlis qatnashchilariga (barchangizga), ular orqali butun O'zbekiston xalqiga (butun xalqimizga) yo'naltirilgan; uchinchidan, jumla kesimi kaminai kamtarlik, komilu donolik belgisi sifatida ruxsat bergaysiz leksemasi bilan tugallangan: buyruq tarzida emas, istak, xohish, ezgu ixtiyor shaklida izohlangan. Yana bir misol. Bunda hurmat to'g'ridan to'g'ri majlis qatnashchilariga yo'naltirilgan: Assalomu alyukum, muhtaram vatandoshlar! Avvalambor, siz, azizlarni Konstitutsiyamizning o'n to'rt yillik bayrami bilan chin qalbidan muborakbod etib, sizlarga, sizlar orqali butun xalqimizga o'zimizning samimiy hurmat va ehtiromimni izhor etishga ijozat bergaysiz. (Xalq so'zi, 2006, 8-dekabr).

Ijtimoiy-siyosiy rasmiy muloqot matnga misol tariqasida davlatimiz rahbari nomiga va u kishi orqali o'zbek xalqi nomiga kelgan chet davlatlar rahbarlari, jahon miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari tomonidan yo'llangan maktublari matnlarini keltirish mumkin. Ularda ifodalayotgan mazmun ijtimoiy-siyosiy jarayondagi rasmiy muloqot matnida hurmatni ifoda etgan birliklarning yaqqol ifodalarini ko'rish mumkin.

Yoki davlat rahbarlarining o'zaro bir-biriga yo'llaydigan tabriknoma, mustaqillik kuni munosabati bilan yo'llagan qutlovlarida, yoki rasmiy jarayonni ifoda etayotgan maktub matnlari ham bevosita hurmatni ifoda etuvchi birliklar asosida tuziladi. Unda so'zlovchi tarafidan murojaat qaratilgan shaxs “Janobi oliylari” deb ulug'lab, hurmat bilan tilga olinadi. Bu tabriknoma stilida orttirma darajada qo'llangan (“g'oyat samimiy”, “g'oyat yuksak”) sifatlar esa aks ettirilgan ehtiromning yuksak darajasini ko'rsatadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga!

Ijtimoiy-siyosiy jarayonni ifodalagan rasmiy muloqot nutqida davlat qonunlariga, farmonlariga, farmoyishlariga va qarorlariga mas'uliyat bilan qarash, ularga alohida e'tibor berish va e'tirof etish, mohiyatini tushunish va tushuntirish belgilari mujassam bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy yo'nalishidagi hurmat;

Assalomu alyukum, muhtaram ustozlar va murabbiylar!

Avvalo, Siz azizlarni, sizlarning timsolingizda ustoz degan sharafli nomni ulug'lab kelayotgan yurtimizdagi barcha insonlarni O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy tabriklayman. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy aytganlaridek, dunyoning bor boylik va xazinasi bilan ham oliyanob mehnatingiz haqini ado etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, o'quvchilarini o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda fidoyi kasb egalari. Muhtaram o'qituvchi-murabbiylar, aziz ustozlar! Sizlarni 1-oktabr – o'qituvchi va murabbiylar kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga uzoq umr, baxt-saodat, xonadoningizga fayzu-baraka, barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi ezgu ishlarigizga ulkan zafarlar tilayman [5].

Ijtimoiy-madaniy yo'nalishdagi hurmat nutqi ko'pchilikka, umumga yoki jamoaga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Asosan bunday rasmiy muloqot matnida: sizlarga oilaviy xotirjamlik tilayman; barchangizga uzoq umr, baxt-saodat, xonadoningizga fayzu-baraka, barkamol avlodni

voyaga yetkazishdagi ezgu ishlarimizga ulkan zafarlar tilayman kabi hurmatni to'la namoyon etadigan yaxshilik yo'nalishidagi hurmatga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ijtimoiy-madaniy yo'nalishdagi rasmiy muloqot matnida hurmat majlis ishtirokchilarining kasb-kori, hunari, urf-odati va boshqalarga alohida e'tibor, odilona nazar bilan qarash belgilari aks etadi: Siz azizlarni, sizlarning timsolingizda ustoz degan sharaflil nomni ulug'lab kelayotgan yurtimizdagi barcha insonlarni kabi so'zlarida ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnoma taqdim etilmoqda. Sizlarga yaxshi ma'lumki, dunyodagi ko'pchilik taraqqiy topgan mamlakatlarda davlat rahbarining milliy parlament a'zolari huzurida eng asosiy va dolzarb siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha Murojaatnoma bilan chiqish tajribasi mavjud [6].

Ijtimoiy-ma'rifiy yo'nalishidagi hurmat;

Qadrli yurtdoshlar! Madaniyat va san'at sohasining zahmatkash va fidoyi vakillari! Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni mamlakatimizda ilk bor nishonlanayotgan qutlug' ayyom – Madaniyat va san'at xodimlari kuni bilan chin qalbidan tabriklab, barchangizga o'zimizning yuksak hurmatim va samimiy tilaklarimni izhor etaman. Hammamizga ayonki, inson qalbiga olijanob fazilatlar, ezgu his-tuyg'ularni singdirib, jamiyatni birlashtirish va taraqqiy ettirish, xalqni, Vatanni dunyoga tarannum etishda madaniyat va san'atning o'rni va ta'siri beqiyosdir [7].

Ijtimoiy-huquqiy yo'nalishidagi hurmat;

Hurmatli ichki ishlar tizimi xodimlari. Qadrli ofitser va generallar, serjant va safdorlar, muhtaram faxriylar! Avvalo, siz azizlarni bugungi kasb bayramingiz hamda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tashkil etilganining 30 yilligi bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda o'z hayotini el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini asrashdek ezgu va olijanob ishga bag'ishlagan sizlar kabi mard va sadoqatli, haqiqiy vatanparvar insonlar sha'niga samimiy tilaklarimizni bildiramiz [8].

Ijtimoiy-tibbiy yo'nalishidagi hurmat:

Muhtaram tibbiyot xodimlari! Dunyoda inson salomatligi uchun mas'ul bo'lgan, ular umrining bardavom bo'lishi uchun jon kuydirishga tayyor Siz aziz hamkasblarni Tibbiyot xodimlari kuni bilan tabriklashdan behad mamnunman.

Hurmatli hamkasblar! Biz shu kunlarda milliy tibbiyot tizimida misli ko'rilmagan o'zgarishlar boshlash arafasida turibmiz. Bu o'zgarishlar yangilanayotgan O'zbekistonimizning jahon hamjamiyatidagi nufuziga ijobiy ta'sir etishi shubhasiz.

Ijtimoiy-ma'naviy-ruhiy yo'nalishdagi hurmat;

Aziz farzandlarim! Qadrli maktab bitiruvchilari! Avvalo, barchangizni beg'ubor o'quvchilik yillaringizni ortda qoldirib, qadrdon maktabingiz, mehribon ustozlaringiz bilan xayrlashib, hayotingizning yangi, yanada mas'uliyatli bosqichiga qadam qo'yayotganingiz bilan chin qalbidan muborakbod etaman.... Ushbu quvonchli ayyomda mamlakatimizdagi barcha maktablarda "so'nggi qo'ng'iroq"lar yangrab, qariyb 438 ming nafar o'quvchi yoshlarimiz yetuklik shahodatnomalarini qo'llariga olmoqda. Bu nafaqat siz, aziz farzandlarimiz, balki biz – ota-onalar, ustoz-murabbiylar uchun ham g'oyat quvonchli va hayajonli voqeadir. Chunki, qalbi pok orzu-umidlar bilan to'lgan sizlar kabi navqiron, azmu shijoatli yoshlarimiz timsolida biz uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya sohasidagi sa'y-harakatlarimizning yana bir amaliy natijasini, xalqimiz va Vatanimiz kelajagini ko'ramiz [9].

Ijtimoiy-faxrlanishi, g'ururlanish yo'nalishidagi hurmat. Qadrli farzandlarim! Hurmatli ota-onalar, ustoz-murabbiylar va sport muxlislari! Avvalambor, siz, azizlarni bugun barcha-barcha yoshlarimizning, qolaversa, butun xalqimizning e'tiborini o'ziga tortayotgan talaba yoshlarning sport bayrami bo'lmish Universiada o'yinlarining tantanali ochilishi bilan samimiy muborakbod etaman. Aziz bolalarim! Hammamizga xursandchilik yetkazadigan mana shunday shukhli kunda mustaqillik yillarida ozod va farovon hayot barpo etish, mamlakatimiz salohiyati va qudratini yuksaltirish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash yo'lida qanday ulug'vor ishlarni amalga oshirganimiz beixtiyor xayolimizga keladi. Hech shubhasiz, bugun boshlanayotgan Universiada bellashuvlari Vatanimiz mustaqilligining qutlug' 25 yillik bayrami arafasida bo'lib o'tayotgani unga chuqur mazmun va ko'tarinki ruh bag'ishlanmoqda [10].

Xulosa va takliflar. Hurmat kategoriyasi rasmiy muloqotning qaysi sohasida qo'llanilmasin, avvalo, o'zbek tili meyorlarining to'g'ri qo'llanilishi, bugungi soha terminlarning nutqda to'g'ri ishlatilishi bilan ham belgilanadi [11].

Xulosa qilib aytganda, hurmat kechimida hurmat kategoriyasining mazmun – mohiyati, ifoda usullari, tasvir vositalari (shakllari) va lisoniy – nutqiy rang-barangliklari mujassamlashgan; hurmat nutqi – hurmat ma'nosining voqelanish, ifodalanish, shakllanish manbai, lisoniy – nutqiy omili, imkoniyati, usuli, shakli, vaziyati kabilarni o'zida jamlaydi. Tildagi hurmat ma'nosi voqelanishi o'zining barcha ko'rinishlari bilan leksik – grammatik kategoriya doirasida birlashadi. U tilning barcha sathlarida xilma – xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Содиқова Ш. Ўзбек тилида ҳурмат категорияси. Монография. Тошкент, 2010.1. Овчарова К. В. Электронный дискурс: общая характеристика // Лингвистическая организация дискурса: функциональные и содержательные аспекты : Межвуз. сб. тр. молодых ученых. — Краснодар, 2004. - Вып.1. - С. 108-113.
2. Ҳожиёва Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти.: Филол. фанлари номзоди...дис. – Самарканд, 2001. – Б. 39.2. Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият.– Тошкент: Ўзбекистон, 1992.– 110 б.
3. <https://m.zamin.uz/jamiyat/-shavkat-mirziyoev-ustoz-va-murabbiylarga-tabrik>.
4. <https://review.uz/oz/post/vstuplenie-prezidenta-shavkata-mirziyoyeva-na-ceremonii-posvyashennoy-30-letiyu-nezavisimosti-uzbekistana>.
5. 1-октябр Ўқитувчи ва мураббийлар куни” муносабати билан байрам табриги. <https://antimon.gov.uz/uzb/1-oktyabr-oqituvchi-va-murabbiylar-kuni-munosabati-bilan-bajram-tabrigi/>
6. <http://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/54>.
7. <https://bugun.uz/2022/04/15/shavkat-mirziyoev-madaniyat-va-sanat-sohasi-xodimlarini-tabrikkladi/>
8. <https://bugun.uz/2021/10/24/shavkat-mirziyoev-ichki-ishlar-organi-xodimlari-va-faxriylariga-tabrik-yolladi/>
9. <https://xs.uz/uzkr/post/mamlakatimiz-maktablarini-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga>.
10. <https://m.kun.uz/news/2016/05/26/uzbekiston-prezidentining-universiada-2016-sport-ujinlari-istirokchilariga-tabrigi-elon-kilindi>.
11. Нарходжаева Х. “Ўзбек терминологияси масалалари”. –Қарши: “Intellect” нашриёти, 2022.
12. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан.д-ри. ... дисс. –Тошкент, 2000. –Б. 198-204.



Madinabonu NURUTDINOVA,
O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi F.f.f.d (PhD), dotsent
E-mail: injilkhon2022@gmail.com

O'zXIA dotsenti f.f.f. d. M. Nazirov taqrizi ostida

COLLECTIVE CLASSIFICATION OF MEDIAMETRIC TECHNOLOGIES IN ONLINE JOURNALISM

Annotation

Coagulating classification of mediametric technologies in online journalism

This article talks about mediametric research, a new direction in the field of journalism. Methods of online content analysis, their collective classification and development trends are discussed. Mediametric research methods have entered journalism from sociology and are mainly used in the analysis of various contents.

СВОДНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ МЕДИАМЕТРИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОНЛАЙН-ЖУРНАЛИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье рассказывается о медиаметрических исследованиях, новом направлении в области журналистики. Обсуждаются методы анализа онлайн-контента, их коллективная классификация и тенденции развития. Медиаметрические методы исследования пришли в журналистику из социологии и используются в основном при анализе различного содержания.

ONLAYN JURNALISTIKADA MEDIAMETRIYA TEXNOLOGIYALARINING KAOGULYATIV TASNIFI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jurnalistika sohasidagi yangi yo'nalish mediametrik tadqiqotlar haqida so'z yuritilgan. Onlayn kontentni tahlil qilish usullari, ularning kaogulativ tasnifi hamda rivojlanish tendensiyalari haqida so'z yuritiladi. Mediametrik tadqiqot usullari jurnalistikaga sotsiologiyadan kirib kelgan bo'lib, asosan turli kontentlarni tahlil qilishda qo'llaniladi.

Kirish. Bugungi kunda global media maydoni harbiy maqsadda kashf qilingan internet tarmog'i tufayli turli axborotlar bilan to'liq tasarruf qilindi. Ba'zi tadqiqotchilar internetni matbuot, radio, televideniya dan keyingi axborot vositasi deb qayj etishsa ba'zilar uni ommaviy kommunikatsiya maydoni sifatida e'tirof etishmoqda. Qolaversa, tarmoq nafaqat axborot tarqatishga balki ta'lim olish, ko'ngilochar vosita kabi bir qancha yo'nalishlarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Internetning turli darajada ommalashuviga uning hammabopligi hamda barcha foydalanuvchilar uchun gorizont va virtual aloqani ta'minlagani sabab tezlashib bormoqda. Auditoriyaning istalgan foydalanuvchisi o'zining professional hamda havaskorlik ijodiy namunalari e'lon qilishi mumkin. Tarmoqda e'lon qilinayotgan axborotlar (audio, video, matn) va bugungi kunda faoliyat olib borayotgan turli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda elektron portallar turli darajada o'zining o'rniga ega.

Mazkur holatda tarmoq foydalanuvchilarining e'tibori ni qozonish hamda ko'proq mushtariylarga ega bo'lish raqobati tufayli o'z kontentlarini doimiy ravishda o'zgartirib rivojlantirish borishmoqda. Kontentni rivojlantirish va undagi kamchiliklarni isloh qilishda kontent tahlil usullari va mediani o'rganuvchi mediametrik tadqiqotlardan keng foydalaniladi. Mediametrik tadqiqotlar o'z o'rnida turli fanlar ham sohalardan integratsiya qilingan konvergent tadqiqotlar jamlanmasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kontent tahlil borasida turli jurnalistik tadqiqotlar bevosita sotsiologik izlanishlar bilan bog'liqligi qayd etiladi. Bu borada bir qator olimlar[1]ning ishlarini qayd etish mumkin. Ular orasida ko'proq sotsiologik kitoblar va dissertatsiyalar, siyosiy-huquqiy yo'nalishdagi adabiyotlarni misol qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Kontent internetdagi har qanday faoliyatga hamrox bo'ladi va sayt sifatida uning reklamasi faoliyat olib borishiga bevosita ta'sir qiladi. Natijalarni yaxshilash uchun albatta tahlil qilish shart. Kontent

tahlilni qo'llash veb sahifalar mazmunini o'rganish demakdir. Vazifalar ketma ketligini quyidagicha tashkil qilish mumkin:

1. Muammoli nuqtalarni aniqlash;
2. Kamchiliklarni bartaraf etish;
3. Rag'batlantirish strategiyasini ishlab chiqish.

Odatda sotsiologiyada kontent tahlil natijalarini miqdoriy ko'rsatishdan foydalanadigan tadqiqot usuli sifatida ko'rib chiqadi. Tahlilchilar statistik statistik ko'rsatgichlarni olish uchun avtomatlashtirilgan vositalar va usullardan foydalangan holda ma'lumot oladi. Psixologiya kontentni tahlil qilish orqali matn va grafikalarining auditoriyaga ta'sirini o'rganadi. Ushbu tadqiqot usuli nafaqat veb saytlar, ilovalar va umumiy sahifalarni yaratishda qo'llaniladi. Auditoriyaning o'rganishdan olingan tadqiqot natijalari nafaqat veb saytlar, ilovalar balki umumiy xulosalar berish va sahifalarni yaratishda, SMM strategiyalarni qo'llashda ham foydalaniladi. Ushbu tadqiqot amerikalik bir qator boshqa tadqiqotchilar[2] boshqa bir guruh amaliy ishlarga asos qilib olindi. YA'ni kontentni o'rganish faqat ma'lum nashrlarga e'tibor qaratmasdan, barcha umumiy matubot nashrlariga taaluqli bo'lishi kerak. Odatda ma'lum bir nashr yoki kontentni o'rganishga ixtisoslashtirilgan mediametrik tadqiqotlar universal taq-qoslanuv formulasiga ega bo'lishi juda muhim. Eng asosiy tahlillar eng aniq xulosalarni berishi lozim. Sababi umumiy ma'lumotlardan kelib chiqib aniq bir reja ishlab chiqish mumkin emas.

Turli talab va takliflardan kelib chiqib matbuotni rivojlantirish borasida yangidan yangi tahlil usullari o'ylab topila boshlandi. Asosiy tahlillarga 49 kategoriya kiritilgan bo'lib, unda ichki tizimdan to tashqi aloqalar siyosati ham qamrab olingan edi.

20-30-yillarning boshlariga kelib, barcha tadqiqotlar umumiy nazariy o'rganilib, sotsiologik yo'nalishlar sifatida amalda tadbir qilina boshlandi. Ayniqsa siyosiy yo'nalishdagi targ'ibot ishlari, saylov oldi kompaniyalarida ommaviy ravishda qo'llanila boshlandi.

Milliy xavfsizlikka dahldor bo'lgan boshqa maqsadlar jumladan razvedka maqsadida ham kontentni o'rganish usullari yanada takomillashtirildi.

Kontentlarni o'rganish tarixdan mavjud bir amaliyot sifatida turli jarayonlar va davrlarga moslashib kelgan bo'lsa ham ommaviy axborot vositalarini tadqiq qilish davrida ayniqsa internet global tarmog'ini tahlillashda eng ommabop usulga aylandi. Bu usuldan tez tez foydalanish zarurati ko'proq mafkuraviy kurashlar va targ'ibotlar davrida yana ham avj oldi.

Hozirgi kunga qadar ushbu turdagi matnlarni o'rganish sotsiologik kuzatuvlar va turli ilmiy tadqiqotlarning asosi hisoblanadi. Matnlarni o'rganish yoki ma'lum bir OAVning tarkibiy qismini kuzatish mavjud tendensiyalarning umumiy atmosferasini baholash hamda universal modellar ishlab chiqishda juda qo'l keladi.

Kontent tadqiqotlar ko'proq ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq jarayonlar hamda adabiy asarlarni o'rganishda keng qo'llanilgani uchun ham xalq orasida o'zgacha qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda mazkur tadqiqot usullaridan maqsadli foydalanish amaliyoti ham yo'lga qo'yildi. Masalan, jamiyatdagi ma'lum bir g'oya targ'iboti yoki amalda mavjud siyosatning muqim saqlanishi uchun ham auditoriyani chuqur tahlillash texnikasi sifatida keng qo'llanilgan. Bu mazkur vaziyatda o'sha sotsial institutlarga qo'llanilayotgan siyosatning nechog'liq samara berayotganini ochib berishga xizmat qilgan. Yoki o'sha ideologik g'oyaning aynan shu xalq uchun mos yo'nalishini topib berishga dastur amal edi. Sotsiologik yo'nalishda amerikalik olim F. Znanetskiy va Uilyam Tomasning besh tomlik "Yevropa va AQShdagi polyak dehqoni" (1918-1921) nomli tadqiqoti mediametrik analizlar uchun emperik zamin yaratdi.

Mazkur ish deyarli to'liq hujjatlardan asoslangan bo'lib, bu gazeta arxivlari (AQShdagi polshalik muhojirlarning maxsus davriy narlarlari) kartoteka va xayriya uyushmasining rasmiy hujjatlari, tarixiy boshqa yozishmalardan tashkil topgan edi. Aynan mazkur asarning tarkibiy qismi uchun cherkovning 50 tomdan iborat (754 nusxadagi) xat, yozishma va maxsus dehqonlarning iltimosnomalaridan foydalanilgan. Yozishmalar va hujjatlardan iborat kontentni o'rganib chiqqan olimlar xulosasiga ko'ra xalqning turmush tarzi va yashash sharoiti barcha davrlarda turlicha xossaga ega bo'lgan. Ushbu hujjatlarni o'rganishdagi yana bir muammo fikrni uzatish va yozib olish jarayonida materiallarning buzilish darajasini aniqlash bo'lsa, ikkinchisi shaxsiy hujjatlarni shakllantirish uchun manba bo'la oladimi yoki yo'qligini aniqlash edi. Ilmiy farazlar yoki ijtimoiy qonuniyatlarning ochilishi monitoring xulosalariga ko'ra amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Kontent tahlilning asosi va qo'llanish amaliyoti juda sodda hamda keng qamrovli bo'lishi mumkin. Odatda matnlarni tahlil qilishda biz ularning ichki komponentlari (suratlar, audio, video komponentlari) ni to'liq holda idrok qila olmaymiz. Masalan matn X, to'ldiruvchi komponentlari Y. Ba'zi vaziyatlarda uning qaysi turga mansub ekanligi va qo'shimcha ma'lumotlarni ham bilish ziyon qilmaydi.

Kontent tahlildagi asosiy maqsad g'oyasi bu o'rganish kerak bo'lgan muammolar yoki izlayotgan masalalarni tizimlashtirish. Buni biz vizual tekshirishimiz va matnli dalillarni maqsadli to'plash usulini ishlab chiqishimiz kerak. Kerakli monitoring texnikasi bilan qurollangan tadqiqotchi o'z xulosalarini asosliroq qilishi balki matnda muallif aytmoqchi bo'lganidan ham ko'proq narsani o'rgana olishi mumkin bo'ladi. Matndagi ba'zi xarakterli rasmiy elementlar yoki konstruksiyalarning takrorlanishi tadqiqotchi tomonidan aniqlanadi va talqin qilinadi.

Darhaqiqat kontent tahlilning asosiy farqlovchi xususiyati uning ko'plab ta'riflarda e'lon qilingan "tizimli" va "obyektivligi"da emas.

Kontent tahlil qilish, birinchi navbatda matnning ayrim qismlarini o'rgangan holda uni raqamli baholashni o'z ichiga oladi. U turli xil sifat tasniflari va ma'lum strukturaviy komponentlarni ham aniqlashi mumkin. Shu sababli Mangeym va Rich[3] tadqiqotchilarining tasnifi bilan aytganda kontent tahlil bu matnning tizimlashtirilgan xulosaviy natijasidir.

Mazkur xulosada esa matnning to'liq tarkibi aks etadi. Kontentni o'rganish amaliyoti auditoriya foydalanuvchilariga sifatli tarkib ma'lumotlarini yaratishga imkoniyat yaratadi. Sifatli axborot kontentini yaratishda quyidagi hususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

Maqsadni aniqlab olish (auditoriya maqsadini aniqlab olish nazarda tutilmoqda); turli ijtimoiy so'rovnomalar va savolnomalar orqali auditoriya fikrini o'rganish va umumiy atmosferani hosil qilish.

Ma'lumotlarni yig'ish; auditoriya fikri, savolnomalar va so'rovnomalarning umumiy statistikasi, turli tadqiqotlar natijalari kabi bir qancha fikrlarni o'rganish.

Aniq tahlil prognozini yaratish; tahlillarga asoslangan kontentni yaratish va kerakli formatni tanlash nazarda tutiladi.

Shuningdek, boshqa bir qator turli tashkilotlar amalga oshirgan tahlillar va maqolalarni o'rganish qo'shimcha portfoliolardagi manbalarga murojaat qilishni ham nazarda tutadi. Kontentlarni tahlil qilishda targ'ibot usullarini o'rganish materiallarni nashr etishda qo'llaniladigan strategiyalarni ishlab chiqishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

Kalit so'zlar uchun optimallashtirilgan materiallarni nashr etish orqali portalni yuqori chastotali, o'rta chastotali va yuqori chastotali so'rovnomalar bo'yicha qidiruv tizimlari natijalarining yuqori cho'qqisiga olib chiqish.

Salbiy sharhlarni o'qib o'rganish orqali foydali materiallarni ishlab chiqish va nashr qilish.

Brending siyosatini amalga oshirish, yangi trendlarni o'rganish orqali xabardorlik siyosatini yuritish.

Har bir savolga javob berish orqali umumiy ishonchlilik darajasini oshirish.

Mahsulot yoki xizmatning afzalliklari haqida batafsil ma'lumot berish qo'shimcha ekspertiza ma'lumotlarini qo'shish.

Yuqoridagi kompleks faoliyatlar kontent marketingi, ya'ni axborot mazmunini sotuvlar oshiradi. Agar doimiy ravishda foydali materiallar nashr qilinsa kontent yoki profilga bo'lgan qiziqish oshib trafik soni ortib boradi. Bu yangi kontent foydalanuvchilari yoki xaridorlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Kontent tahlil qilish birliklarining tavsifidan oldin tahlil qilinadigan ma'lumotlar massivini harakterini qisqacha ko'rib chiqish kerak. Kontentni tahlil qilish usulining ta'rifida har bir yo'nalishni ko'rib chiqish kerak. Katta hajmli kontent tahlillarda odatda umumiy axborot atmosferasini aniqlash uchun bitta matn emas aksincha bir nechta matn tarkibi o'rganib chiqiladi. Eng katta e'tibor statistik raqamlarga qaralib umumiy matnning tarkibi hisobga olinadi. Ko'p hollarda matnlarning asosini aniqlashda qiyosiy tahlil amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda tarixdan kontentni tahlillash metodikasi jurnalistikaga turli sohalar va fanlardan integratsiya bo'lib kirib kelgan. Unda biz sotsiologik tadqiqot usullaridan tortib harbiy yo'nalishlardagi o'ziga xoslikni ham topishimiz mumkin. Har bir yo'nalishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib tadqiqotchilar mavzu tanlashi va yangidan yangi o'rganish usullarini ham qo'shishlari mumkin. Asar borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar juda ko'p tanqidga uchragan bo'lishiga qaramasdan u asosiy manba sifatida barcha ishlar uchun xizmat qilgan. Birinchi davrda tadqiqotchilar odatda gazeta sahifalaridagi turli

mavzu va bo'limlarni egallagan maydonni yoki badiiy adabiyotda qo'llanish chastotasini hisoblaganlar. So'zlar, nutq va xatlarni tahlillashgan. Asosan bu davrda Amerika usullari

asosan chiziqlar soniga asoslangan har xil turdagi materiallarning nisbatlarini aniqlashga qaratilgan edi.

ADABIYOTLAR

1. Акофф Р., Эмери Ф.О целеустремленных системах. Пер. с англ. Под ред. Ушакова И.А.. М., "Сов. радио", 2004, 272с.; 2. Батыгин Г.С. Обоснование научного вывода в прикладной социологии. М. Наука., 2001.; 3. Бирюков Б. В. Теория смысла Г. Фреге, в сб.: Применение логики в науке и технике. М., 2001.; 4. Бирюков Б. В. Теория смысла Г. Фреге, в сб.: Применение логики в науке и технике. М., 2007.; 5. Бусленко Н. П. Моделирование сложных систем. / М., 1998.; Гречихин В.Г. Лекции по методике и технике социологических исследований. М., 1988.; 6. Добренькое В.И. Покровский Н.Е. Американская социология в диалоге с современностью. // Современная американская социология. под ред. В.И. Добренькова М. Изд. МГУ 1994. С.290-294.; 7. Девятко И. Модели объяснения и логика социологического исследования. М., 1996, 172с.; 8. Докторов Б. З. О надежности измерения в социологических исследованиях. Л., 1999. Дридзе Т. М. Организация и методы лингво-психологического исследования массовой коммуникации. М., 1999.; 9. Дридзе Т. М. Социокультурные основания прогнозного социального проектирования (социальная диагностика в контексте социальной коммуникации)./ Прогнозное проектирование и социальная диагностика. М., 1991. 10. Дридзе Т. М. Текстовая деятельность в структуре социальной коммуникации: Проблемы семиосоциопсихологии. М., 1994.; 11. Дридзе Т. М. Язык и социальная психология. М.,1990.
2. Алексеев А.Н. Контент-анализ, его задачи, объекты и средства: Социология культуры. М., 1974. Вып.; 2. Бородкин Л.И. Рабочая книга социолога. М., 1976; 3. Дэвид Д., Джери Дж. Большой толковый социологический словарь. М., 2001 г; 4. Зиновьева Т.В. Основные социологические термины. Учебное пособие. Изд-во ЮУрГУ, 2006.
3. <https://www.krugosvet.ru/enc/lingvistika/kontent-analiz>



UDK: 611.050/070:611.008(575.1)

Maxsuma OQQO‘ZIEVA,
O‘zJOKU mustaqil izlanuvchisi
E-mail: maxsumazafarovna@bk.ru

O‘zJOKU fakultet dekani, f.f.n. A. N.Nurmatov taqrizi asosida

SPECIALIZED PUBLICATION – AS A MEANS OF IMPROVING MEDICAL CULTURE

Annotation

Information is the most important factor in any period and any society, which is a means of sharing information in the lives of society and people. It covers all areas and attitudes associated with the society and its lower systems. This also applies to the field of medicine and serves to increase the direct medical literacy. Because medicine also enters all human activity: spiritual, social, economic and political fields.

Key words: Specialization, medical journalism, public health, medical culture.

СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫЕ ИЗДАНИЯ – КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЕ МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

Информация является важнейшим фактором любой эпохи и любого общества, средством информационного обмена в обществе и жизни людей. Она охватывает все сферы и отношения, связанные с обществом и его подсистемами. Это актуально и для медицинской сферы, и напрямую служит повышению медицинской грамотности. Потому что медицина проникает во все сферы человеческой деятельности: духовную, социальную, экономическую и политическую.

Ключевые слова: Специализация, медицинская журналистика, общественное здоровье, медицинская культура.

IXTISOSLASHTIRILGAN NASHRLAR – TIBBIY MADANIYATNI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

Аннотация

Axborot – har qanday davr va har qanday jamiyatda eng muhim omil bo‘lib, jamiyat va insonlar hayotida ma‘lumot almashish vositasi hisoblanadi. U jamiyat va uning quyi tizimlari bilan bog‘liq barcha sohalarini va munosabatlarni qamrab oladi. Bu tibbiyot sohasi uchun ham tegishli bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri tibbiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi. Chunki tibbiyot ham inson faoliyatining barcha: ma‘naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalariga kirib boradi.

Kalit so‘zlar: Ixtisoslashuv, tibbiy jurnalistika, jamoat salomatligi, tibbiy madaniyat.

Kirish. Bugun ixtisoslashuvni, har bir sohani muhim tarmoqlar orqali rivojlantirishni zamonning o‘zi talab qilmoqda. Xuddi shunday, jurnalistika ham bir qator ixtisoslashuvlar tomon ketmoqda. Shu bois bo‘lsa kerak, harbiy jurnalistika, sport jurnalistikasi, xalqaro jurnalistika, eko jurnalistika, huquqiy jurnalistika atamallari bot-bot uchrab turibdi va bu ixtisosliklar allaqachon o‘z maktabini ham yaratib bo‘ldi. Tibbiy jurnalistika ham ana shunday muhim ixtisoslashgan tarmoqlardan biridir.

Ko‘pchilik tibbiyot mavzusini yoritishga panja ortidan qaraydi. Ayrımlarni esa televideniedagi ba‘zi ko‘rsatuvlar va yetakchi tibbiy nashrlar qanday qilib bu darajaga yetib kelgani, salomatlik mavzusi har qanday inson uchun muhim va qiziqarli ekanligiga hayron bo‘lishadi. Jurnalistikada ixtisoslashuv keng qamrovli jurnalistikaning tarmoqlarga bo‘linib borishidan yuzaga keladi. Biroq sohada termin sifatida shakllanib ulgurmagan, ammo mazmun-mohiyati jihatidan katta tarmoqlardan biriga aylanishi kerak bo‘lgan atamalar ham mavjud. Tibbiy jurnalistika ham aynan ana shunday atamalardandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqod mavzusi doirasida turli yillarda bir qator tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, xalqaro miqyosda seminar va konferentsiyalar o‘tkazilishi fikrimizga misol bo‘la oladi.

Ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlar ichida Rossiya mutaxassisleri yetakchilik qilmoqda. Ular orasidan falsafa doktori Kazbekova Varvara Valentinovnaning “Jamiyat salomatligining ommaviy axborot vositalarida aks etishi: haqiqat, imkoniyatlar va yechim” [1] mavzusidagi dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, 2010-yilda Oliy jurnalistika kurslarida ixtisoslashuv masalalari mavzusida II ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi. 1999-yilda M.A.Vusning «Axborot

jamiyati: axborot urushi. Axborotni boshqarish. Axborot xavfsizligi» kitobi Sankt-Peterburg universiteti nashriyotida chop etildi[2].

Yana bir rus tadqiqotchisi Kuznetsov Aleksey Viktorovich «Shifokorlar, bemorlar va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar» nomli dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qildi[3].

1991 yilda V.I.Pokrovskiyning «Tibbiyot va ommaviy axborot vositalari» kitobi chop etildi. [4] 2005 yilda esa Oleg Semenovich o‘zining «Sog‘lom turmush tarzi psixologiyasi va ommaviy axborot vositalari» nomli tezisini yaratdi[5].

Yana bir rus tadqiqotchisi S.K.Roshinning “Psixologiya va jurnalistika” kitobi ham muhim tadqiqot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan shu va boshqa manbalarda tibbiyot jurnalistikasi va ommaviy axborot vositalarida salomatlik mavzularining yoritilishiga doir jurnalistik faoliyat alohida mavzu sifatida maxsus o‘rganilmagan va tahlil qilinmagan. Ommaviy axborot vositalarining turli ko‘rinishlarida tibbiyot mavzularini yoritish xilma-xilligi, mavzular tasnifi, faktlardan foydalanish usullari, tili alohida tahlil etilmagan. Shu bilan bir qatorda, mahalliy ommaviy axborot vositalarida salomatlik mavzusini yoritish jurnalistikaga, qolaversa, butun dunyo uchun ta‘sir ko‘rsatishi ilmiy o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiyot jurnalistikasi – ommaviy kommunikatsiya kanallari (matbuot, radio, televidenie, fotografiya, hujjatli kino, internet, axborot agentliklari, kitob va h.k.) orqali salomatlikka oid muhim, dolzarb axborotlar, yangiliklar yig‘ish, ishlov berish, tarqatishga mo‘ljallangan ijtimoiy faoliyat turi bo‘lib, uning asosiy predmeti tibbiyot va unga bevosita, bilvosita bog‘liq fakt va voqealardir.

T.I. Frolovaning fikricha, [6] "Tibbiyot jurnalistikasi – umumiy jurnalistikaning bir qismi. Ommaviy axborot vositalari bozorida unga bo'lgan talab qanchalik yuqori bo'lmasin, jurnalistlar va insonlar uchun qiziq bo'lgan umumiy ba'za har doim ham yetarli emas. Ba'zida sog'liqni saqlash muammolari ijtimoiy jurnalistika doirasida gapiriladi va muhokama etiladi. Tibbiyot muammosi har doim insonlarni tashvishga solib keladi, bahslarga sabab bo'ladi, ammo hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi".

Bu borada I.M. Dzyaloshinskiyning fikri [7] ham o'rinlidir. "Yuqori sifatli tibbiy jurnalistika tibbiyot xodimlarining o'zi uchun ham foydali va zarurdir. Ommaviy axborot vositalarida yoritilgan material bilan tanishish ularning ma'lum kasallik va uni davolashning yangi texnologiyalari bo'yicha xabardorligi va malakasini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun ham OAVda bu borada sifatli va to'g'ri yondashuv muhimdir. Bu orqali tibbiyot sohasi vakillariga yangi va ishonchli ma'lumotlarni ham taqdim etish mumkin bo'ladi".

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan salomatlik mavzulari ko'lami jihatidan ko'pdek ko'rinishi mumkin, ammo ular shunchaki mavjud tibbiy tavsiyalar yoki shifokor ko'rsatmalaridagina iborat bo'lib qolmoqda. Yana bir toifa jurnalistlar esa, sohaga oid terminologiyadan iborat matnlarni taqdim etishadi. Bu ilmiy jurnalistikaning bir ko'rinishi bo'lib, keng omma uchun mo'ljallanmagan. Bu to'g'rida «Meduzы» saytining tibbiy jurnalisti Yelizaveta Babitskaya shunday deydi: "Ilmiy jurnalistlar tez-tez tadqiqot olib boradilar va shu asosda ilmiy yangiliklar yozadilar. Tibbiyot jurnalistlari esa sohada mavjud bo'lgan tibbiy tavsiyalar va ko'rsatmalarga amal qilishadi"[8].

Tahlil va natijalar. Sohaga oid jiddiy muammolardan yana biri – salomatlik mavzusining tibbiyotdan ancha uzoq bo'lgan jurnalistlar tomonidan yoritish. Tibbiyot va salomatlik axborot olish va material tayyorlash uchun juda keng soha. Shunga ko'ra, jurnalist tayyorlagan tibbiyotga oid maqolalarni bir nechta toifaga ajratish mumkin.

"Birinchi, [9] bu turli kasalliklar va ularni davolash usullari, oldini olish choralar, tibbiyot haqidagi yangiliklar va boshqa salomatlikka oid turli mavzular to'g'risidagi materiallar. Odatda, bunday maqolalarda sohaga oid atamalardan yetarlicha topiladi. Hattoki, keng omma uchun mo'ljallangan nashrlarda ham bu kabi holatni uchratish mumkin. Masalan, "Milk nima uchun qonaydi", [10] "Ostat'sya v temnote. Iz-za kakix bolezney mojet uxudshitsya zrenie?" [11]

Ikkinchidan, ba'zi maqolalar tibbiy muammolarning ijtimoiy tabiatiga yaqin tarzda talqin qilinadi. Bunday maqolalar markazida kimningdir taqdiri, ma'lum bir insonning muammolari turadi. "Muzaffar.uz" saytida e'lon qilingan "Men gipertoniyani yengdim" [12] maqolasida xuddi shunday uslubdan foydalanilgan.

Uchinchi, tibbiy mavzularning aksariyati "Salomatlik" sarlavhasi ostida chop etilayotgan bo'lsa-da, ularni to'liq ma'noda tibbiy deb atash mumkin emas. Masalan, "Sog'lom ozish, yaxshi xotira va teri salomatligi – yong'oq suvining foydali xususiyatlari haqida" [13], "Teri va sochlar salomatligi uchun zaytun moyidan tayyorlanadigan 5 xil niqob" [14] kabi tabiiy kosmetika va uning inson salomatligiga foydali ta'siri, sport zallarida zararsiz vazn yo'qotish usullari kabi maqolalar ana shular jumlasidandir. Bir tomondan, bu holatlarda axborot manbai ko'pincha shifokor emas, balki murabbiylar, stilist, kosmetologlar bo'ladi. Ammo salomatlik muammolari to'liqligicha aks ettirilmaydi.

To'rtinchidan, yangiliklarning yoritilishi. Ularning mavzuga aloqadorligi saqlansa-da, bevosita masalani yoritishga xizmat qilmaydi. Odatda, bunday materiallar matbuot anjumanlarining bayoni, tibbiyot muassasa yoki yangi shifoxona binosining ochilishi tarzida bayon qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi rasmiy sayti ssv.uz'da ham bu kabi maqolalarni ko'plab uchratish mumkin. Birgina misol tariqasida "Samarqand davlat tibbiyot universitetining Jizzax filiali tashkil etiladi" [15] nomli xabarni olishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Ommaviy axborot vositalarida salomatlik mavzusini yoritishi tamoyillarini jahon va o'zbek jurnalistikasi tamoyillari asosida tahlil qilish va o'xshash hamda farqli tomonlarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Shu bilan bir qatorda, bosma hamda onlayn nashrlarning tibbiyot mavzusini yoritishdagi afzalliklari va imkoniyatlari, mavzular ko'lami va ularning tasnifi, mualliflik huquqi hamda tibbiyot xodimlari va jurnalistlar hamkorligining jurnalistik faoliyatga qanday ta'sir ko'rsatishini yetarlicha o'rganish lozim.

Tibbiyot mavzusini yoritishning o'ziga xosliklari, etikasi va psixologiyasi, mavzuni bayon qilishda kasb odobiga amal qilish hamda ixtisoslashgan jurnalistikaning ahamiyatini milliy va xorij tajribasi asosida yoritib berish lozim.

ADABIYOTLAR

- Oliy jurnalistika kurslarida ixtisoslashuv masalari mavzuida II ilmiy-amaliy seminar materiallari. – T.: 2010.
- Вуса М.А. Информационное общество: Информационные войны. Информационное управление. Информационная безопасность. Издательство С. – Петербургского университета, 1999.
- Кузнецов Алексей Викторович. «Социальные взаимоотношения врачей, пациентов и СМИ». Автореферат. Волгоград – 2009-йил. 13 бет.
- Медицина и средство массовой информации. Ред. В.И.Покровский, Д.С.Саркисов, М.Медицина. 1991.
- Олег Семенович. «Психология здорового образа жизни и средства массовой информации». Диссертация. 2005-йил.
- Фролова Т.И. Социальная журналистика и ее роль в общественном диалоге. 2003. 45-бет.
- Дзялошинский И.М. Журналистика соучастия. Как делает СМИ полезными людям. 2006. 104 бет.
- <https://jrnst.ru/medicinskiy-zhurnalist>
- Шабанова Е.Ф. Проблемы медицинской журналистики.
- Милкнима учун қонайди. "Шифо-инфо" газетаси. 2022-йил,14-сон. https://aif.ru/health/life/ostatsya_v_temnote_izza_kakih_bolezney_mozhet_uhudshitsya_zrenie
- <http://muzaffar.uz/psixologiya-va-salomatlik/4426-men-gipertoniyani-engdim.html>
- <https://kun.uz/news/2020/08/08/soglom-ozish-yaxshi-xotira-va-teri-salomatligi-yong'oq-suvining-foydali-xususiyatlari-haqida>
- <http://daryo.uz/k/2022/11/04/teri-va-sochlar-salomatligi-uchun-zaytun-moyidan-tayyorlanadigan-5-xil-niqob/?id=1119406>
- <https://ssv.uz/uz/news/samarand-davlat-tibbiyot-universitetining-zhizzah-filiali-tashkil-etiladi>



Alijon ORIPOV,
O'zMU fransuz filologiyasi kafedrası magistranti
E-mail aligafurov1298@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d. R.X. Shirinova taqrizi asosida

THE PHENOMENON OF METAMORPHOSIS AND ITS LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION

Annotation

This scientific article presents the phenomenon of metamorphosis in the dictionaries of this term, reveals its explanation and reviews, as well as the essence of the content. Also, explanatory dictionaries in Uzbek, Russian, French and English were used in the analysis process.

Key words: Metamorphosis, transformation, dictionary science, linguistics, translation studies, change, form, phenomenon.

ФЕНОМЕН МЕТАМОРФОЗЫ И ЕГО ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация

В данной научной статье приведено явление метаморфозы в словарях этого термина, раскрыто его объяснение и обзоры, а также суть содержания. Также в процессе анализа использовались толковые словари на узбекском, русском, французском и английском языках.

Ключевые слова: Метаморфоза, трансформация, словарная наука, лингвистика, переводоведение, изменение, форма, феномен.

METAMORFOZA FENOMENI VA UNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada metamorfoza fenomeni ushbu atamaning lug'atlarda berilishi, uning izohi va sharhlari hamda mazmun mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, tahlil jarayonida o'zbek, rus, fransuz va ingliz tillardagi izohli lug'atlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Metamorfoza, transformatsiya, lug'atshunoslik, tilshunoslik, tarjimashunoslik, o'zgarish, shakl, fenomen.

Kirish. Tilshunoslikda metamorfoz fenomeni tushuncha, hodisa va jonli yoki jonsiz obyekt obrazining semantik transformatsiyasi yoki o'zgarishi deb tavsiflanadi. Adabiyotda esa fantastik yo'naliishdagi e'taklarda fantastik motiv hisoblansa, zamonaviy tarjimashunoslikda esa metamorfoza hodisasi sifatida talqin qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda "metamorfoza" fenomeniga oid ilmiy tadqiqotlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni o'rganishdan avval ushbu atamaning lug'atlarda berilishi, uning izohi va sharhlarini mazmun mohiyatini ochib berishni asosiy vazifa qilib belgilab olindi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tadqiqot olib borish jaryonida mazkur yo'naliishdagi ilmiy tadqiqotlarga, lug'atlarga va qomuslarga murojaat qilindi. Olib borilgan qiyosiy tahlillar shu narsani ko'rsatadiki, mazkur yo'naliishda xorij tilshunoslari, adabiyotshunoslari, tarjimashunoslari hamda lug'atshunoslar ko'plab tadqiqotlar olib borganlar, lug'atlar yaratganlar. O'zbek tilida mavjud lingvistik lug'atlar va tarjima lug'atlarida "metamorfoza" atamasiga berilgan to'liq va mukammal izoh yoki sharhlar mavjud bo'lmasada, biroq ushbu atamaga yaqin tushuncha ya'ni "evrilish", "aylanmoq", "o'girilmoq" tarzida izohlanganligini "O'zbek tilining izohli lug'ati"da uchratish mumkin [4]. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da esa "Metamorfoza (yunoncha: μεταμόρφωσις – o'zgarib qolish) – hayvonlar tuzilishining tubdan o'zgarishi tarzida berilganligini ham qayd etish mumkin. Metamorfoza odatda, ontogenezda hayvon yashash tarzining keskin o'zgarishi, suvda hayot kechirishdan quruqlikka chiqish, tuproqda yashirin yashashdan ochiq havoda yashashga, suvda erkin yashashdan o'troq yashashga o'tishi bilan bog'liq" deb ta'riflangan [5].

Xorij olimlari tomonidan yaratilgan lug'atlardagi izohlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak A.P.Yevgenevaning "Rus tilining izohli lug'atida" metamorfoza atamasiga quyidagicha sharh berilgan:

"Metamorfóz [qadimgi grekchadan "μεταμόρφωσις" – "o'zgarish", μετα – "orqali" + μορφή – "forma"] biror narsaning bir shakldan boshqasiga aylanishi" – deb ta'riflangan [1] (Tarjima bizniki O.A.).

D.N.Ushakovning "Izohli lug'atida" esa metamorfoza istilohi quyidagicha izohlangan: "Tarixiy rivojlanish davrida o'simlik va hayvonlar organlarining shakli va tuzilishidagi o'zgarishlar yoki rivojlanishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish davrida ularning tashqi ko'rinishi va turmush tarzidagi o'zgarishlaridir. Masalan, o'simliklarning ildizi va barglarining metamorfozasi. Itbaliqning qurbaqaga aylanish metamorfozasi" [2] (Tarjima bizniki O.A.).

"Metamorfoz" fenomeniga berilgan sharhni N.M.Shankining lug'atida ham uchratish mumkin va u XIX asrda fransuz tilidan olingan bo'lib, yunoncha "metamorfoz" so'zidan hosil bo'lgan va "qayta tashkil etish" degan ma'noni anglatadi. Biroq, XV asrdan boshlab ingliz adabiyotida metamorfoz – bu sehr yordamida tananing yoki tuzilishning jismoniy holatining o'zgarishi deb aytilgan. Masalan, odamning hayvonga aylanishi", – deb ta'riflangan [3].

1964-yildan buyon nashr qilib kelinadigan Fransuz akademiyasi lug'atning 9-sonida (Dictionnaire de l'Académie française, 9e édition) metamorfoza termini XIV asrda "μεταμόρφωσις" yunon tili orqali, xuddi shu ma'noda fransuz tiliga ko'chganligi keltirilgan [6]. U quyidagicha ta'riflangan:

"Changement de forme, de nature ou d'état qui, dans la légende ou les récits merveilleux, s'opère par quelque cause surnaturelle. Les métamorphoses des génies et des fées. Se dit notamment des transformations par lesquelles les dieux de la mythologie revêtent des apparences diverses aux yeux des mortels ou font passer l'un d'eux de sa forme naturelle à une autre. Les métamorphoses de Zeus, de Protée", – ya'ni afsonalarda yoki mo'jizaviy hikoyalarda qandaydir g'ayritabiiy sabablarga ko'ra yuzaga keladigan shakl, tabiat yoki holatning o'zgarishi [7]. Xususan, mifologiyada

keltiriladigan xudolar odamlarning ko‘z o‘ngida turli shakllarga ega bo‘lgan yoki ulardan birini tabiiy shaklidan boshqasiga o‘zgartirishga qodirliklari keltiriladi. Masalan, Zevs va Proteya metamorfozalari (Tarjima bizniki O.A.).

Yuqorida keltirilgan lug‘atni o‘zida zoologiyaga oid sharh ham mavjud bo‘lib u qo‘yidagicha keltirilgan:

“Changement de forme et de structure qui se produit au cours du développement, chez certains insectes et chez d’autres animaux. La métamorphose du têtard en grenouille. La transformation de la chenille en papillon est une métamorphose complète. Insecte à métamorphoses incomplètes, comme le criquet, chez lequel la larve diffère peu de l’adulte”, – ya’ni ba’zi hasharotlar va boshqa hayvonlarda rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan shakl va tuzilish o‘zgarishi. Misol uchun: Itbaliqning qurbaqaga aylanishi, g‘umbakdagi qurtdan kapalakka aylanishi – to‘liq metamorfodir deyiladi (Tarjima bizniki O.A.).

Fransiyaning “Larousse” izohli lug‘atida “metamorfoza” atamasiga “Changement d’un être en un autre, transformation totale d’un être au point qu’il n’est plus reconnaissable”, – deya izohlangan [8].

“Le Petit Robert” izohli lug‘atida “Métamorphose” fenomeni quyidagicha ta’riflanadi: “Changement brusque survenant dans l’organisme (de batraciens, d’insectes), dans son développement. Stades de la métamorphose des insectes (larve, insecte adulte)”, ya’ni organizmning (bakteriyalar, hasharotlarda) rivojlanishidagi keskin o‘zgarishlar. Hasharotlarning metamorfoz bosqichlari (lichinka, katta hasharot) – deya ta’riflanadi [9].

“CNRTL” (Centre Nationale Ressources Textuelles et Lexicales) leksika va matn resurslari bilan shug‘ullanadigan milliy markazi “Métamorphose” so‘ziga zoologik jihatdan quyidagicha ta’riflangan: “Ensemble des modifications morphologiques et structurales subies par certains organismes (la grenouille, le papillon, etc.) au cours de leur développement post-embryonnaire”, – ya’ni ba’zi organizmlar (qurbaqa, kapalak va boshqalar) tomonidan embriondan keyingi rivojlanish davrida sodir bo‘lgan morfologik va

tarkibiy o‘zgarishlar to‘plamiga aytiladi, – deya izohlangan [10].

Merriam Vebsterning (Merriam Webster online dictionary) elektron lug‘atida esa quyidagi ta’rifni uchirish mumkin:

“Organizm yoki har qanday jismning tashqi ko‘rinish, xarakter yoki vaziyatdagi o‘zgarishi, shuningdek, hayvonning shakli yoki tuzilishidagi (masalan, kapalak yoki qurbaqa) tug‘ilish yoki inkubatsiyadan keyin sodir bo‘ladigan odatda sezilarli yoki ozmi-ko‘pmi rivojlanish bilan keskin o‘zgarishiga aytiladi” [11] (Tarjima bizniki O.A.).

Tahlil va natijalar. Yuqorida xoriy va o‘zbek lug‘atshunoslari tomonidan “metamorfoza” fenomeniga berilgan izohlar va sharhlarni batafsil ko‘rib chiqdik va olimlarimiz mazkur leksemaning ma’nosini aniq va tushunarli izohlash hamda o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun turli xil misollardan ham foydalanganliklarini guvohi bo‘ldik. Demak, lug‘atlarga kiritilgan izohlarni umumlashtirgan holda uni quyidagi tarzda o‘zbek tilidagi lingvistik va tarjima lug‘atlariga kiritishni taklif qilamiz:

“Metamorfoza atamasi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib “μετα” – “orqali”+ “μορφή” “forma” ya’ni biron bir ob’ektning yoki narsaning bir holatdan boshqa bir holatga o‘tishi, aylanishi yoki transformatsiya qilinishini anglatadi”.

Xulosa va takliflar. “Metamorfoza” atamasiga keltirilgan izohlar tahlilidan kelib chiqib, taklif sifatida yuqorida qayd etilgan ta’rifni berish o‘rinlidir. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish, ulardagi tamoyillar va yondashuvlar hamda olimlar tomonidan ushbu fenomenning turli rakurslarda tahlil etilishi – tadqiqotning dolzarb masalalari sirasiga kiradi.

Demak, ko‘rib chiqilgan o‘zbek, rus, fransuz va ingliz tillarining izohli lug‘atlari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, “metamorfoza” termini o‘zgarish, turlanish kabi ma’nalarni ifodalashda qo‘llaniladi. Ilmiy jihatdan, ushbu tushuncha bir shakldan ikkinchisiga o‘tish davomida yangi shakl hamda funksiyaga ega bo‘lishiga aytiladi.

ADABIYOTLAR

1. Yevgeneva A.P. Slovar russkogo yazyka. – 4-izd., ster. – M.: Rus. yaz.; Poligraf resursy, 1999. – S.451.
2. Ushakova D.N. Sovremennaya ensiklopediya – M.: Gos. in-t; OGIZ, 1935. – S.367.
3. Shanski N.M. Etimologicheskiy onlayn-slovar russkogo yazyka – M.: Drofa, 2004. – S.286.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Beshinchi jild. T., B.86.
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. T., B.253.
6. <https://www.dictionnaire-academie.fr/article/A9M1913>
7. <https://www.dictionnaire-academie.fr/article/A9M1913>
8. <https://www.larousse.fr/dictionnaires/francais/m%C3%A9tamorphose>
9. <https://dictionnaire.lerobert.com/definition/metamorphose>
10. <https://www.cnrtl.fr/definition/m%C3%A9tamorphose>
11. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/metamorphosis>



Gulruxbegim RAVSHANOVA,
QarDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,
E-mail: ravshanovagulruxbegim1987@gmail.com

TATU Qarshi filiali dotsenti, f.f.f.d. Z.Yaxshiyeva taqrizi asosida

THE SCOPE AND INTERPRETATION OF COMIC POETIC FORMS

Annotation

First of all, in the series of socio-cultural life, the greatest genre-compositional integrity appeared in the works of the creators of the Enlightenment period, and later they began to be further refined in strict principles. Starting from the individual character and then connecting to the general mood, it prepared the ground for updating the philosophical-aesthetic criteria of humorism. A strong critical-psychological mood began to evolve into the improvement of comic works. This led to the emergence of new genres in literary directions. These are the aspects that we are studying in the new Uzbek poetry, and in determining the poetic interpretation of the satirical phenomenon, the terminological meanings of the concepts such as theme, problem, idea, and pathos in the satirical poetry have been clarified.

Key words: Humor, criticism, satire, humor, poetic construction, pathos, theme, idea, criterion, motive of laughter and crying.

ОБЪЕМ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОМИЧЕСКИХ ПОЭТИЧЕСКИХ ФОРМ

Аннотация

В первую очередь в ряду общественно-культурной жизни наибольшие замкнуты жанрово-композиционной цельности проявились в произведениях творцов эпохи Просвещения, а затем стали еще более уточняться в строгих принципах. Начав с индивидуального характера и затем подключившись к общему настроению, он подготовил почву для обновления философско-эстетических критериев юморизма. Сильный критически-психологический настрой стал перерастать в совершенствование комических произведений. Это привело к появлению новых литературных жанров. Именно эти аспекты мы изучаем в новой узбекской поэзии, и при определении поэтической интерпретации сатирического явления уточнены терминологические значения таких понятий, как тема, проблема, идея, пафос в сатирической поэзии.

Ключевые слова: Юмор, критика, сатира, юмор, поэтическая конструкция, пафос, тема, идея, критерий, мотив смеха и плача.

HAJVIY SHE'RIY SHAKLLARNING MAVZU DOIRASI VA TALQINI

Аннотация

Ijtimoiy-madaniy hayot silsilalarida avvalo, eng katta janriy-kompozitsion yaxlitlik zamzamalari ma'rifatparvarlik davri ijodkorlari asarlarida bo'y ko'rsatib, keyinchalik qat'iy tamoyillarda yanada sayqallana boshladi. Individual xarakterdan ibtidolangan va so'ngra umumkayfiyatga tutashuvi hajvnavislikning falsafiy-estetik mezonlarini yangilashga zamin hozirladi. Kuchli tanqidiy-psixologik kayfiyat hajviy asarlarning takomillashuviga evrila boshlandi. Bu aynanlik adabiy yo'nalishlarda yangi-yangi janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Mana shu jihatlar biz tadqiq etayotgan yangi o'zbek she'riyatida hajvnavislik hodisasining poetik talqinini aniqlashda hajviy she'riyatdagi mavzu, muammo, g'oya, pafos kabi tushunchalarning terminologik ma'nolariga aniqlik kiritildi.

Kalit so'zlar: Yumor, tanqid, satira, hajvnavislik, poetologik konstruksiya, pafos, mavzu, g'oya, mezon, kulgi va yig'i motivi.

Kirish. XX asr ibtidosidan boshlab, o'zbek she'riy shakllari jahon adabiy durdonalarining sintezlashuv jarayonidan oziqlandi. Bu oziqlanish Cho'lpon, Fitrat, Hamza, Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, U.Nosir poetik izlanishlarida yanada yaqqol bo'y ko'rsatdi. Shuni qayd etish joizki, davrning ijtimoiy-siyosiy evrilishlari etishi muqarrar. Ma'rifatparvarlik davri adabiyotidan shakllangan tanqidiy, satirik kayfiyat jadid ijodkorlarida ham davom etdi. Xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, turmush tarzining yaxshilanishiga qaratilgan da'vatkor she'rlar ana shu mezonlarni o'z ichiga olganligi bilan belgilanadi. Bir tomonda hukumatning belgilab berilgan yo'riqlari shoirlarga katta o'ng'aysizlik tug'dirdi. Turli xil adabiy davralardagina aytilayotgan she'rlar matbuot yuzini ko'rmadi. Faqatgina tor doirada yangragan millat dardu tashvishidan omma to'laqonli bahramond bo'lolmadi. Cho'lponning murg'ak qalbidagi hayqiriqlari, Usmon Nosir she'rlaridagi nolalar kuchli tragik drammatizmni namoyish qildi. "Ijtimoiy tafakkurdagi unversalizm hodisasi, umuman, badiiy ijod, xususan, adabiyotda ham universalizmni yuzaga keltirdi. Shuning uchun ham kechagina ko'pchilik odatlangan an'anaviy yo'sinda ijod qilib yurgan adibu shoirlar, hech kutilmaganda, tamomila no'anaviy yo'lda yoza boshlashi

ajablanarli bo'lmay qoldi. Bu holni millat tafakkur yo'siniga qandaydir falsafiy oqimning kirib kelgani yoki biror ijodkorning tashqaridagi qaysidir bir shoir-yozuvchiga ergashgani bilan emas, balki tasvirning orginalligi va tuyg'ular ifodasining to'liqligiga intilish natijasi sifatida izohlash haqiqatga yaqin bo'ladi". Binobarin, taqdir sinovlarining har bir imtihonida shoirlar o'zlarining botinidagi go'zal ideallarini aks ettirishga harchand harakat qilmasin, ziddiyatlarga ro'baro' kelaverdi. Chinakam san'at asari ana shu bo'linishlarda yaratildi. Universallik XX asr boshlarida Cho'lponu Fitrat, Qodiriy va Usmon Nosirlarda boshqacha tarzda yangradi. Demak, ijod ruhiy sog'ayish ekan, millatning ma'nan baquvvat ustunlari hayotning pastu balandlarini teran angladilar.

Haqiqat shuki, hajviy she'riy manzumalarda ong va tuyg'uda kechayotgan ziddiyatlar san'atning ranginlashuviga olib keldi. G'oya va mavzu rang-baranglashib, idrok tadriji ham o'sib bordi. Hajv qilinayotgan davr, zamon, voqelik takomili xalqning erkin va faravon yashash istagini o'zida mujassamlashtira olgani bilan o'lchanadi. Ijodkorlar Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matchon, Anvar Obidjon uslublari turli xil va bir-birini takrorlamasdir. 60-70-yillardagi

adabiy kayfiyat mazkur to'rtlikni yangi-yangi g'oyalar bilan ilhomlantirdi. Albatta, talqin va tasvirda mujassamlashgan g'oyaviy-kinoyaviy-parodik usul shaxs fojeligini yangicha idrok etishga zamin hozirladi. Kulgi va yig'i motivi milliy istiqlol tuyg'ularini obdon shakllantirdi.

Hajviyot poetik qirralarining tadrijiy talqini. Shuni qayd etish joziki, asli italiyalik Yuliy Sezar Skaliger poeziyaning paydo bo'lishini o'ziga xos tushuntiradi. Unga ko'ra, mavjud narsalarning barini uch turga: zaruriy, foydali va huzurbaxsh narsalarga ajratish mumkin. Jumladan, fikr tashish – zarurat, shu zarurat asosida nutq paydo bo'lgan. O'z navbatida, barcha san'atlar (ilmlar) nutq asosida vujudga kelgan. Skaliger nutq zarurat tufayli, amaliy foydalanish yoki huzurlanish maqsadida qo'llanishi mumkin deb biladi va shunga mos holda nutqning uchta tipini ajratadi. Ya'ni, haqiqatni bilish zarurati falsafaga, amaliy foydalanish maqsadi maishiy donishmandlikka, huzurlanish istagi poeziyaga nutq beradi. Binobarin, shu uchta tipi shoirlarga benihoya keng ijod maydonidir. Erkinlik va idealga talpinish esa ijodkorning mavqeiini belgilaydi. Bu mavqe o'sish-o'zgarishlarga yetaklaydi. Shunday ekan, antik yunon madaniyatidan to o'zimizning xalq og'zaki ijodi namunalarida ham shu uchta tipning turli xil shamoyillarini ko'rishimiz mumkin. Zaruriy, foydali va huzurbaxsh narsalar jiddiy she'riyat bilan hajviy she'riyatning mohiyatida turgan – inson obrazini tipiklashtiradi. Narsa va hodisalar fasllar va yillar almashinuvi, avlodlar tafakkuridagi olg'a siljishlar, fan-texnika inqilobi XX asrda katta o'zgarishlarga yo'l ochdi. Shuning uchun ham E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, A.Obidjon salafllari orasida she'riy janrlarni rivojini benihoya kengayishiga hissa qo'shdi. Natijada shaxsga munosabat o'zgardi. Endilikda madhiyabozlikning boshqacha bo'lishi mumkin emasligiga oddiy kitobxonni ham ishonitirishga yetakladi. Jiddiy kulgi bilan nosamimiy ijod mahsulotlarini farqlashga o'zlarining iste'dodi bilan javob bera oldilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yozuvchi Nazar Eshonqul ta'biri bilan aytganda “Kuyi shunday bo'lsa, dardning o'ziga qanday chiday oldi ekan odamzod?!” Darvoqe, biz zavq olayotgan san'at asarlari ijodkorning beadam og'riqlari, dardi, musibati evaziga yaratilganini, biz esa undan yanada ulug'vorroq san'at asarlari kutishga ko'nikib qolganimizni bir qiyoslab ko'ring. ...Ijodkor esa olomon e'tirofiga erishish uchun yanayam ko'proq iztirob chekadi, o'zini azoblar girdobiga tashlaydi. Izitirob qanchalik san'atkorona aks etsa, muallif undan ham og'irroq dardni boshdan kechirgan. Bizga zavq berayotgan san'at asari ijodkorning og'riqlari va xo'rliklari evaziga yaralgan”. Haqiqatdan ham, shoirlik qismati og'ir. Dard va iztirobdan yaratilgan hajviy asarlar ham bundan mustasno emas. U qanday shaklda bo'lmasin, jamiyat ichidagi muammolar shoir yuragini bezovtalaydi. Turli xil toifa kishilari ruhiyatida kechayotgan tragik narsalar oxirida insonning maqsad muddaosi yashiringan bo'ladi. Buni hajv ustasi yanada yashiradi. Ong va tuyg'uda aks etgan iztiroblar yig'indisi she'ning g'oyaviy-badiiy mundarijasini belgilab beradi:

Bu nechuk shoir demang, asli man nosog'roq,
Yozg'onim shaklan g'azal, lek o'zi barmog'roq.

Har qalay she'rimda bor ma'ni-yu, oz-moz fikr.
Ko'p axir ahli qalam mandinam maymog'roq.

Kimsa der: “Qilsang hajv, beknimas pastroqni ur,
Tinchgina avqot yeyur bo'lsa kim qo'rqog'roq”[4].

Mazkur she'rda haqiqiy bir mahoratning kulgiga yo'g'rilgan dardlarini, iztiroblarini ko'rishimiz mumkin. Anvar Obidjon “Bezgakshamol” turkumida g'azal shaklida juda ko'plab ijtimoiy-sisiiy masalalarni 80- yillarda yozib tugatgan. Haqiqatdan ham sobiq ittifoq davrida ana shunday “haybarakallachilik” kayfiyatida qanchadan-qancha asarlar yozilmadi deysiz? Muharrirga olib borgan g'azalida – haqiqiy

talantning o'rtamiyona shoir oldida izza bo'lishi qalamga olinadi. Shoir o'z she'rlarining gazetada chiqmasligini yengil kinoya bilan tushuntiradi. She'ridagi ijtimoiy dard odamlar dardi bo'lib yangraydi. Muharrir bu she'rga bepilandarlarcha yondashadi. Oddiygina shoir va muharrir orasida kechgan she'riy muloqot jamiyat hayotini tasavvur qilishga imkon tug'diradi. Kuchli hayajon bilan “1979-yil tiklandi” deb bitilgan imzoda shoarning kinoyaviy usulini payqash qiyin emas. “Yovvoyi g'azal” turkumida 68 ta raqamli va ikkita “Yovvoyi g'azal so'g'ingidin olding'i” deb nomlaydi. Shu o'rinda shoir nega g'azallarini “Yovvoyi g'azal” deb nomlaydi? Asarga kiritilgan aksar she'rlar Gulmat Shoshiyning bir-biridan qiziqarli sarguzashtlari bilan bezatilgan. Gulmat Shoshiy o'ta sinchkov va aqli shoir. U har bir narsaga teran nigoh bilan qaraydi. Jamiyatdagi muammolarni o'tkir fasohat bilan angelaydi. Aynan shu xarakteri unga mudomi pand beradi. Shoarning o'z iztirobi va dardi ayna shu g'azallar bag'riga yashirilgan. She'ning keyingi bandlariga e'tibor qartamiz:

Asli chin ash'ornavis yozmag'ay oddiy bayon,
Barchani o'ylantirur, gap otib ilmog'roq.

Dard chekib bitsam g'azal, bosmag'ay turkiy gazet,
O'ttirur unda birov fahmi sal tarqog'roq.

Ul dedi: “Gulmat, jo'na, paytava qilmam she'ring,
Lek o'zin yozg'onlari bundinam paypog'roq”[4].

Xo'sh, asli chin ash'ornavis kim? Shoarning o'zi. Hangomaga aylangan diologik munosabat zamirida davraning to'rida iste'dodsizlar o'tirganini va bayroq ularning qo'lida ekanligini ko'rishimiz mumkin. “Dard chekib bitsam g'azal, bosmag'ay turkiy gazet” deyishida ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Sobiq ittifoq davrida qancha asarlar yozilmadi. Shu sobiq ittifoq mafkurasiga xizmat qilingan, insonning tabiiy kechmishtidan ayro tiklangan asarlar o'sha davr bilan nom-nishonsiz yo'qolib ketmadimi? Tarixdan buni hech kim inkor qilolmaydi. Eng ilg'or terimchi, eng ilg'or sut sog'uvchi, eng ilg'or quruvchilar, mehnatkashlar jamoasining hayotini ko'pirtirib bitilgan jild-jild asarlarni bugun kim biladi? Shoirmi ana shu ijtimoiy dard asl maqsadini ochiqlashga hajv yo'sinida qalam tebratishga undagan. Ijtimoiy dardning zalvori ham, undagi aks etayotgan masalalar ham obyektivitizga tanlangan to'rtta shoirmi umumiy bir maqsad tomon birlashtirib turibdi. Mavjud tuzum yo'riqnomasida ko'rsatilgan mavzularning asar deb o'quvchiga taqdim qilinishini o'sha nomlari keltirilgan shoirlar hazm qilolgan emas. Ayni shu kayfiyatda – hajviyot yordamga kelgan. Botinan iztirob, zohiran kulgiga moyillik bularning ijodida tarannum ilingan “pafos”ni yuzaga chiqishiga sharoit hozirlaydi. Mana shu xotimada yuqoridagi mulohazalarimizning asosiy mantiqini ko'ramiz: “Ul dedi: “Gulmat, jo'na, paytava qilmam she'ring// Lek o'zin yozg'onlari bundinam paypog'roq”. Mana shu talqinning o'zi ham o'quvchini yanada teran mushohadaga chorlaydi. “Yovvoyi g'azal”ning mohiyatida aks etgan falsafiy-estetik g'oya aslida ijodkorning konseptual qarashlarining mevasi ekanligi ayonlashadi.

A.Obidjon yana bir asarida nomdorlik shohsupasiga ildam ilgariylayotgan olim xususida “Kambag'albop Gulmatiy” nomli hikoya yozadi. Mana shu nasriy asarda shoir mahoratini yana bir bor isbotlaydi. Gulmatshunos Butundor Tusmoliyning ilmiy ishi borasida o'zining botinidagi ko'p haqiqatlarni keltirib o'tadi. Satira aslida o'zimizning ibtidoiy qarashlarimizdan yozma adabiyotga ko'chib o'tgan degan xulosaga keladi: “Eramizdan ilgariroq bandalik qilgan yunon qalamkashi Aristofan o'zining achitqiroq asarlarini “satirik dramalar” deb ataganidan so'ng ushbu atama olam bo'ylab tarqalgan bo'lsa-da, ammo bundan o'zbeklar kulishni yunonlardan o'rganibdi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunonchi, o'zbekona askiya gulxan atrofida davra qurib, mamont go'shtining jizg'anak bo'lishini kutganlaricha qiy-chuvlashib

o'tiruvchi ibtidoiy odamlar marosimiga juda mos tushadi. Askiyalari latifalarga, latifalar ertaklarga, ertaklar dostonlarga aylana borgan sari og'zaki ijodning inqirozi tobora kuchayib, yana ibtidoiy davrning boshlang'ich nuqtasiga qaytish – yozuvga murojaat etish ehtiyoji tug'ila boshladi...

Yozuvdagi sof o'zbek satirasining ildizi juda chuqur. Biz uni ortiqcha kavlashtirib o'tirmaylik..." Ko'rinadiki, shoir o'zbekona lutf, hangomalarining asl ildiziga diqqat qaratmoqda. Demak, ming yillik va undan qadimgi davrlarga borib taqalgan xalq og'zaki ijodimizdagi boy ma'naviy xazinaning o'zida qanchalab sirlar, haqiqatlar yashiringanini alohida ta'kidlamokda. Ertak va dostonlar tabiatida aks etgan mantiq o'zligimizning, donishmand xalqimizning adabiy xazinasi ekanligini urg'ulamoqda. Bundan kelib chiqadigan xulosa ham, Gulmat obrazi bilan Matmusa orasida qandaydir o'xshashlikni anglash mumkin. Har ikkala shoir vodiy ruhiyatini, ya'ni askiyaxonlik uslubini adabiyotga yangicha shaklda, uslubda olib kirganligini his etamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Satira o'zbek adabiyotida jadidlardan keyin G'afur G'ulom, Said Ahmad, Sharof Boshbekov ijodida ham ranginlashdi. Said Ahmad satirik hikoyalari, miniatyuralari, mushtumbop hajviyalarida qancha-qancha ijtimoiy muammolarimizga iztirob bilan nigoh tashlanganini ko'rishimiz mumkin. Birgina "To'y" bilan bog'liq miniatyuralari bugun ham yelkamizdan nari tushgani yo'q. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov. Anvar Obidjon, Omon Matchon lirikasida turli xil janrlarda o'ziga xos uslubda yuzaga chiqdi. Aynan mana shu jihatlar davrning umumiy manzarasi haqida tasavvur qilishga imkon beradi:

Qolsun desang agar mandin yaxshi ot,

Yotni so'kma, jahl chiqsa nosni ot.

Eshaklikka salom bergil birinchi,

O'zing minib olg'on esang hamki ot.

Tahlil va natijalar. "Bezgakshamol" turkum she'rlarida tuyuqning hajviy ifodasini ham ko'ramiz. Inson o'zidan yaxshi ot qoldirishi uchun maydakashlik, kibr va maqtanchoq bo'lma, aqlu farosat hamisha insonni ma'nan yuksalishiga xizmat qiladi degan da'vat mana shu tuyuq-she'rda aks ettirilgan. Eshak va ot mingan odamning o'zaro munosabati, eshakliga salom ber, undan o'zingni baland tutma, baribir uni yengolmaysan degan muhim bir hayotiy

aqidani ilgari surmoqda. Har bir misradagi – ot o'ziga xos ma'no tashuvchi bo'lib, shoirning asl maqsadini to'ldiruvchi unsur sifatida namoyish qilinadi. D.Quronov: "Komiklik umumestetik kategoriya sanalib, badiiy asarlarning barida kuzatilishi mumkin.. Komiklikning yuzaga chiqish yo'sini bir xil bo'lmaydi. Masalan, satira va yumorda subyekt munosabati ko'proq obyektidagi ziddiyatni bo'rttirib ko'rsatish orqali namoyon bo'lsa, kinoya va sarkazmda obyektidagi ziddiyat, asosan, muallif munosabati orqali yuzaga chiqariladi". Darhaqiqat, D.Quronovning keltirgan manbasi A.Obidjonda ikki xususiyatda namoyon bo'lgan. Yuqoridagi "Yovvoyi tuyuq" she'rida ham shoirning tashqi dunyoga o'z idealidan kelib chiqib mushohada qilinganligi yaqqol seziladi. Individual va begonalashtirish orqali kulgu uyg'otish bir shaxsning boshqa bir shaxsga nisbatan ichki bir nazar orqali namoyon bo'lishi bilan o'lchanadi. Ya'ni subyetdan obyektga evrilyotgan kulgi zamirida ichki ehtiyoj va boshqalarda bu qusurning bo'lishiga yo'l qo'ymaslik istagi yotadi, aslida. A.Obidjon dunyoni toza va pok ko'rmoqda. Jamiyat esa bunga izn bermaydi. Uning qahramonlari ayyor va mug'ombir, o'zini manfaati yo'lida har qanday pastkashlikni qiladigan emas, aksincha, donishmandona, faylasufona, orifona fikrlaydigan, hamisha adolat va haqiqat tug'ini tutgan odam sifatida gavdalanadi. Bu xususiyat shoirning mahorati yuksakligidan, tafakkur sarhadlari benihoya turfaligidan, kengligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Shuni aytish joizki, hajviy asarlar dunyodagi barcha xalqlarda bo'lishiga qaramay, unga munosabat turli millatlarda o'z ma'naviy-axloqiy o'lchamlaridan kelib chiqqan holda turlichadir. Umuman, hajviy she'riy janrlar to'rtliklar, ruboiy, g'azal va uchchanoq, ikkilik, birlik she'r shaklida namoyon bo'lmoqda. G'arb adabiy an'lanlarining ta'siri ham o'z aksini topganligi bejiz emas. Shunday ekan, mafkuralashgan adabiyotda san'at, haqiqiy o'ziga tasvir maydonini belgilab olishga erishdi. U na makonda, na zamonda aks etdi. Bu shoirlarning nechog'li mahorat bilan tasvirlashga erishgani ularning chekkan zahmatlari mahsuli deb qarash o'rinli. Zero, adabiyotning ijtimoiy vazifasi faqat mehnatkashlar obrazini ko'rsatish emas, haqiqiy millat kishisining orzu-umidlarini, istaklarini, millat sifatidagi shakllangan tarixini bilishga undaydi.

ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. –T., "G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 2019. –B.31.
2. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri ocherki. –T., "FAN". 2008. –B.55.
3. Nazar Eshonqul. Mendan "men" gacha. –T., "Akademnashr". 2014. –B.185.
4. Obidjon A. Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni. –T., "Sharq". 2003. –B.12.
5. Quronov D. va bosh. Adabiyotshunoslik lug'ati.–T., "Akademnashr". 2010. –B. 139-140.
6. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1970. – B.308.
7. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. T., "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2018. –B.258.
8. Vohidov E. She'r dunyosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., "Sharq". 2001. –B.180.
9. Shukurov N. Jonim – she'riyatim. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –T., "Turon-Iqbol". –B.104.
10. Vohidov E. Umrim daryosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., "Sharq". 2001. –B.103.



Gulsanam RAKHIMOVA,

Docent, Doctor of Philosophy (PhD) Theoretical French Department, the Uzbek State World Languages University

E-mail: miss_guli777@mail.ru

O‘zMU professori, filologiya fanlari doktori A.E.Mamatov taqrizi ostida

THE IMAGE: LEXICOGRAPHIC AND LITERARY CONCEPTION (BASED ON THE LIFE AND ACTIVITY OF AMIR TEMOUR)

Annotation

